РЕЗЮМЕ. Данная статья посвящается рассмотрению вопроса рекламы, рекламного слогана и выделению их особенностей. Приводится широкое определение рекламы. В статье делается попытка совокупить специфические черты рекламы, творческий аспект рекламного текста, уделяется внимание языку и компонентам рекламного слогана, которые существенно влияют на выразительность и оригинальность рекламы. Кратко суммируются различные виды рекламы и их особенности. Основы разработки и создания рекламы предполагают её эффективность, и в этой статье упоминаются факторы эффективности рекламного дела.

SUMMARY. This article is devoted to the consideration of the issue of advertising, advertising slogan and highlighting their features. A broad definition of advertising is given. The article attempts to combine the specific features of advertising, the creative aspect of the advertising text, pays attention to the language and components of the advertising slogan, which significantly affect the expressiveness and originality of advertising. The various types of advertising and their features are briefly summarized. The basics of designing and creating advertising assume its effectiveness, and this article mentions the factors for the effectiveness of the advertising business. Since advertising includes not only information, but also a creative approach, it is important to consider all aspects of this issue.

PEDAGOGIK DIZAYN MODELLARI O'QITUVCHINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

R.K.Atamuratov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tayanch so'zlar: pedagogik dizayn, pedagogik dizayn modellari, ADDIE modeli, SAM modeli, ALD modeli, Backward modeli.

Ключевые слова: педагогический дизайн, модели педагогического дизайна, модель ADDIE, модель SAM, модель ALD, модель Backward.

Key words: instructional design, instructional design models, ADDIE model, SAM model, ALD model, Backward model.

Dunyoda ta'lif jarayonini takomillashtirish tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan va hayotga tadbiq qilinayotgan g'oyalar, yangilanishlar hamda islohotlar ta'lif tizimida tub burilish jarayonini boshlab berdi. Ta'lif sifatini oshirish har bir davlat taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'lli ekani, ushbu sohada boshlangan islohotlarni davom ettirishimiz, ta'lif yoshlarning zamonaviy, raqobatdosh kasblarni egallashi uchun muvaffaqiyat kaliti ekanligi, har qanday ta'limi yuqori natijaga yo'naltirilgan bo'lishiga erishish lozim. Bu, o'z navbatida, ta'lif jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, innovatsion usullarni to'g'ri tanlash, ta'lif oluvchilarining ijodiy qobiliyatini, kreativ va kognitiv fikrlashini inobatga olgan holda pedagogik dizayn modelaridan samarali foydalanish yordamida takomillashtirish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamlı texnologiyalar kun sayin rivojlanib borayotgan raqamlı transformatsiya davrida ta'lif sohasining o'quv jarayonini pedagogik loyihalashtirish, ta'limiyo ko'nikmalarini shakllantirish, raqamlı texnologiyalar yordamida ta'lif berish tajribasini yaxshilash, innovatsion pedagogik yondashuv va gibrildi ta'lif metodlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, o'qitish jarayonini tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lif jarayoniga pedagogik dizayn modellarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Ta'lif jarayoni kontekstida pedagogik dizayn tushunchasi so'nggi vaqtarda ko'p tilga olinmoqda. Bu atama ingliz tilidan olingan bo'lib "Instructional design" "Pedagogik dizayn" yoki "pedagogik loyihalash" degan ma'noni bildiradi.

Pedagogik dizayn (ID – *Instructional Design*) - bu o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab chiqish hamda ta'lif oluvchilarining belgilangan ta'lif natijalariga erishishini ta'minlash jaravoni.

Ko'pchilik tadqiqotchilar bu tushunchani yangi muhitda ishlashni davom ettirish uchun muhim ko'nikmalar, onlayn ta'lifni tashkil etish bo'yicha harakatlar to'plami deb tushunishsa [4], ba'zilar esa kasbiy yetuklikka erishish va daromadlarini oshirish imkoniyati [2], ta'lif muhitini o'rganadigan va eng ko'p uchraydigan holatlar uchun umumiyl qoidalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy soha [5], ta'lif mazmuni va strategiyalarini ishlab chiqish hamda samaradorligini oshirish vositasini [3], shuningdek, pedagogik tizimni qurish, muammolarni tahlil qilish deb bilishadi.

Ussainova va Bashkin tadqiqotlarida "Pedagogik dizayn - texnologiva va ta'lifning birlashuvi bo'lib, ta'lif beruvchining eng katta vazifasi bu ikki tushuncha o'rtaida "ko'prik"ni qura olishdir" [1] deb ta'rif bergan.

Ilmiy adabiyotlar tahlil qilish orqali pedagogik dizaynga o'z mualliflik ta'rifimizni beradigan bo'lsak "Pedagogik dizayn bu samarali o'rganishga yordam beradigan o'quv materiallari va tajribalarini loyihalashning tizimli va ijodiy jarayonidir".

Pedagogik dizaynni loyihalashtirishda ta'lif beruvchi biror-bir grafik muharrirlarda ishlay olish ko'nikmasiga (chizish, bo'yash yoki tahrirlash) ega bo'lishlari shart emas. O'z faoliyati bilan ta'lif oluvchilarini ta'lif jarayoniga jalb qilish, o'quv materialni aniq va malakali taqdim etishi, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligini baholash kerak bo'ladi. Buning uchun pedagog-dizayner, odatda, quyidagi muammolarni hal qiladi:

1. Maqsadli auditoriya ehtiyojlarini aniqlashtiradi. Bunda axborotga bo'lgan ehtiyoj va idrok eta olish

xususiyatlarini inobatga olgan holda materiallarni tahlil qiladi va tizimlashtiradi hamda kutilayotgan natijalar bilan bog'liq bo'lishini nazorat qiladi.

2. Ta'lif (yoki kurs) maqsadlarini belgilaydi va ularni aniq maqsadlar orqali rivojlantiradi.

3. Tomoshabinlar va maqsadlarga mos keladigan o'quv materiallarni tanlaydi / tuzadi va ularni eng samarali taqdimat uchun loyihalashtiradi.


4. Natijalarni baholash tizimini ishlab chiqadi.

Pedagogik dizayn ilmiy yo'naliш va amaliy intizom sifatida doimiy ravishda yangi ishlanmalar bilan yangilanadi. Ular tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va tayyor modellarga jamlanadi. Pedagogik dizayn modellari, ayniqsa raqamli ta'lif muhiti kontekstida samarali ta'lif dasturlarini ishlab chiqishda nazorat qiluvchi muhim asoslardir. Ushbu modellar samarali, ta'sirchan o'quv kontent tuzishga yordam berish bilan birga, talabalarning motivlarini oshiradi, ta'lif tajribasining mazmunli va individual ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlaydi.

Keling, ulardan eng mashhurlarini ko'rib chiqaylik.

ADDIE modeli. ADDIE besh bosqichli jarayon bo'lib, samarali o'quv materialini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Bu Analysis (tahlil qilish), Design (loyihalash), Development (ishlab chiqish), Implementation (amalga oshirish) va Evaluation (baholash) degan ma'noni anglatadi. Bu model ko'proq mehnat talab qiladigan jarayon bo'lishiga qaramay, natijasi birinchi marotaba bajarishda ko'rindigan to'g'ri ketma-ket bosqichli siklli jarayondir. ADDIE modeli ta'lif va o'quv dasturlarini yaratish jarayonini boshqarish uchun foydalilanildigan tizimli pedagogik dizayn asosidir. Bu takrorlanuvchi jarayon o'quvchilar ehtiyojlarini tahlil qilishdan boshlanadi, so'ngra o'quv yondashuvini loyihalash, mazmunni ishlab chiqish, yechimni amalga oshirish va uning samaradorligini baholashdan iborat bo'ladi. ADDIE modeli o'quv tajribalarini yaratishni shu tarzda tuzib, o'quv dasturlari samarali, haqiqiy hamda ta'lif muassasi va ta'lif oluvchilar maqsadlariga mos kelishini ta'minlaydi.


Bu model bo'yicha sodda misol keltiradigan bo'lsak, tasavvur qiling, siz bino qurmoqchisiz. **Tahlil** bosqichida siz qanday bino qurish kerakligini va uni barpo etishda qanday materiallar kerakligini aniqlaysiz. **Loyihalash** bosqichida siz chizmalar yaratasziz va xonalar soni hamda joylashuvining tartibini rejalashtirasiz. **Ishlab chiqish** qurilish jarayoni boshlanganida, **amalga oshirish** esa yangi uyingizga birinchi marta eshkni ochganingiz, va niyoyat, **baholash** bosqichida siz uyda yashayotganingizda va biror narsani sozlash yoki qo'shish vaqtি kelganiga qaror qilganingizga o'xhatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. ADDIE pedagogik dizayn modelining tarkibiy tuzilmasi

SAM modeli. SAM (Successive Approximation Model) - ketma-ket yaqinlashish modeli foydalanuvchilarni bitta mukammal yechimga bog'lanib qolmasdan ko'proq fikrmulohaza yuritish va tezkor tuzatishlar kiritishga undaydi. Bu model murakkab obyektlarni oddiyroq, ammo o'xshash narsalar bilan almashtirish orqali miqdoriy va sifat xususiyatlarini o'rganish usuli hamdir. Yaqinlashish deganda, murakkab nazariy materialni maqsadli auditoriyaning amaliy ehtiyojlarini va imkoniyatlariga mos keladigan qilib soddalashtirish tushuniladi. ADDIE modeli ketma-ket bosqichli jarayonlar orqali tashkil etilsa, SAM modeli esa buning aksi, ya'ni rivojlanish davriy bo'ladi. SAM modeli uch bosqichdan iborat iterative (takrorlanuvchi) sikllarni o'z ichiga oladi: *tahlil, dizayn va rivojlanish*.

Pedagog zaruriy bilimlar to'plami asosida o'quv kurs prototipini yaratadi va uni darhol sinovdan o'tkazadi. Har bir yangi o'quv guruhi (sinf yoki kurs) o'quv kursni tugatgandan so'ng aniqlangan kamchiliklarga tuzatishlar kiritadi. Natijada maqsadli auditoriya ehtiyojlariga eng mos keladigan kontentga tez muddatda erishish imkonini beradi. Iterativ rivojlanish uch bosqichli takroriy tsikllar orqali amalga oshiriladi. Bular: *rivojlanish; bajarish va baholash*. Iterativ rivojlanishning ushbu kichik bosqichida aqliy hujum va qo'shimcha dizayn uchun boshlang'ich bosqichga qaytish mumkin. Kurs maqbul darajaga yetganda, alfa va beta versiyalari ishga tushiriladi. Barcha versiyalar yuqori darajada baholansa, jarayon to'liq yakunlanadi (2-rasm).



2-rasm. SAM pedagogik dizayn modelining tarkibiy tuzilmasi

Bu model bo'yicha sodda misol keltiradigan bo'lsak, bu model yangi taom tayyorlash jarayoniga o'xshaydi. **Tayyoragarlik** bosqichida kerakli mahsulotlar tanlanadi. **Loyihalash** bosqichida bu turli xil ta'm kombinatsiyalari bilan tajriba o'tkazish tushuniladi. **Iterativ rivojlanish** bosqichida taomni qayta tayyorlash, taom retseptni yaxshilash uchun bir qator sinovlar o'tkazish va oldingi xatolar yo'l qo'ymaslik. So'ngi bosqich **harakat xaritasida** boshqalar mustaqil taom tayyorlashda foydalana olishi uchun mukammal retsept yoziladi.

ALD modeli. ALD modeli (Agile Learning Design) moslashuvchan ta'lif dizayni hisoblanib, raqamli ta'lif uchun samarali natijani kafolatlaydigan har bir dars rejisi uchun moslashuvchan bo'ladi. Bu modelning maqsadi moslashuvchan tamoyillarni joriy etish natijasi sifatida ta'lif oluvchilarini o'quv jarayonida samarali faolligini tashkil etish orqali va yanada jozibali, natijaviy ta'lif modelini qurishdir.

Agile so'zi inglizcha so'zlar lug'atida (epchil, moslashuvchan) bo'lishiga qaramay qisqartma so'z hisoblanadi. To'liq holatda esa:

Align – maqsadni aniqlash va unga kirishish;

Get set – jarayon uchun kerakli rejani tuzish;

Iterate – rejaga muvofiq maqsadga erishish uchun takroriy amalga oshirish;


Leverage – takror amalga oshirishlardan kerakli ma'lumotlarni olish;

Evaluate – har bir takrorni yaxshilash uchun oldingi ma'lumotlarni tahlil qilish va loyihaga singdirish.

Backward modeli. Backward modeli ta'lrim dasturini oxiridan ortga qarab loyihalashni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan pedagogik dizayn modellarida dastlab tahlil boshqichidan boshlab to' natijalarni baholash boshqichda yakun topar edi. Bu safar teskari harakat ya'ni, ta'lrim oluvchi kursni yakunlagandan so'ng erishishi kerak bo'lgan asosiy natijalarni birinchi shakllantiriladi. Bu natijalarga erishish uchun mezonlar (baholash vositalari ishlab chiqiladi) aniqlanadi. Faraz qilaylik, darsning mazmuni bilamiz. Biz kutilayotgan natijalarni va ularni qanday baholashdan kelib chiqib ularga erishish uchun kerakli materialni tanlashimizni osonlashtiradi. Ushbu model amaliyotga yo'naltirilgan va juda uzoq bo'limgan kurslar uchun maqbul hisoblanadi. Bu ta'lrim beruvchiga nazariy materialni ortiqcha yuklamaslikka va ta'lrim oluvchilarining faqat aniq natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishiga ko'maklashadi.

Dik va Keri modeli. Dik va Keri modeli (tizimli yondashuv modeli sifatida ham tanilgan) reduksionistik (tushuntirishga urinishda duch keladigan qiyinchilik) yondashuvdan foydalanadi. Bu turdag'i yondashuvlar butun tizimni batafsil tushunish uchun katta g'oyalan yoki jarayonlarni kichik qismlarga ajratib o'rganish tushuniladi. Sodda qilib aytganda, tizimli yondashuv tarkibidagi har bir muhim komponentning yakuniy natijaga qanday hissa qo'shishini aniqlashga uriniladi.

Ushbu falsafa natijasida tizimli yondashuv modeli samarali ta'lim tashabbuslarini rejalahshtirish va rivojlantirish uchun to'qqiz bosqichli jarayonlarni taklif etadi. Ba'zi olimlar ADDIE tizimli yondashuv modelini kengaytirilgan nusxasi sifatida ko'rishadi. Shuningdek, bu pedagogik dizayn modeli ADDIE modelidan ko'ra ko'proq ko'rsatmalarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish orqali iterativ rivojlanishga asoslanadi (3-rasm).



3-rasm. Dik va Kerining pedagogik dizayn modeli

Bundan tashqari, Robert Gane modeli, Merrill modeli, Blum taksonomivasi, Minimalizm, Kemp, SMART, Morrison va Ross modeli, Tezkor prototiplash va epatik pedagogik dizayn modellarini mavjud bo'lib, raqamli o'quv jayronini loyihalash uchun foydalanan kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik dizayn modellarini elektron ta'limming yuragi va miyasidir. Bu muvaffaqiyatli, qiziqarli va elektron ta'lim tajribasining tashabbuskor harakatlantiruvchi kuchidir. Pedagog dizaynerlar nafaqat bilimlarni yetkazib beradigan, balki, metodik dizayn (loyihalash) jarayoniga rioya qilish orqali ta'lim oluvchilarni ilhomlantiradigan va qiziqishini kuchaytiradigan muvaffaqiyatli elektron ta'lim resurslarini yaratishi mumkin. Texnologiya taraqqiyoti sari Ta'lim dizayni raqamli asrda ta'lim va ta'lim kelajagini shakllantirishda birinchi o'rinda turadi. Elektron ta'lim kompaniyalarini ko'rib chiqayotganda, Ta'lim dizayning rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu elektron ta'lim bo'yicha bo'lib, uni har qanday eLearningning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Adabiyotlar

1. Ussainova G. & Kazarenkov V. (2023). Pedagogical Design: Concept, Principles, Models. *Математиканы физиканы жэне информатиканы оқытуудың өзекти мәселелері*, 2(2), 9–15. <https://doi.org/10.52081/mpimet.2023.v02.i2.012>
2. Khaldi M. (2024). Choosing Pedagogical Models for a Learning Activity. In *Advances in educational technologies and instructional design book series* (pp. 99–140). <https://doi.org/10.4018/979-8-3693-1206-3.ch004>
3. Shkil O. (2023). Pedagogical Design In Professional Training Of Designers. *Научное Мнение*, 1–2, 123–127. https://doi.org/10.25807/22224378_2023_1-2_123
4. Erradi O., Barhone, J. E., & Khaldi, M. (2024). Main Models of Design and Pedagogical Scenarisation for Online Adult Training Courses. In *Advances in educational technologies and instructional design book series* (pp. 228–244). <https://doi.org/10.4018/979-8-3693-1206-3.ch010>
5. Гришаева А.В. (2024). PEDAGOGICAL DESIGN AS A WAY TO ENHANCE THE LEARNING PROCESS. *Pedagogical Review*, 2(54), 113–121. <https://doi.org/10.23951/2307-6127-2024-2-113-121>
6. Çalışkan İ. (2014). A Case Study about Using Instructional Design Models in Science Education. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 116, 394–396. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.228>
7. Khodabandeh R. & Samah S. a. A. (2012). Instructional Design Models for Online Instruction: From the Perspective of Iranian Higher Education. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 67, 545–552. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.11.359>
8. Dick W., Carey L. & Carey J.O. (2015). The Systematic Design of Instruction (8th ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson.

REZYUME. Maqloda raqamli ta'limi tashkil etishda foydalilanligan "Pedagogik dizayn" tushunchasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bu atamaga berilgan ta'riflar farqlanadi va uning modellari haqida so'z yuritiladi. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatida qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ. Статья анализирует концепцию "Педагогического дизайна", используемую в организации цифрового образования. Также даны различные определения этого термина, и его модели объясняются. Предоставлены рекомендации по проектированию образовательного процесса в инновационной педагогической деятельности учителя.

SUMMARY. The article analyzes the concept of "Instructional design" used in the organization of digital education. Also, the definitions given to this term are differentiated and its models are explained. Recommendations are provided on the design of the educational process in innovative pedagogical activity of the teacher.

TEMURBEKLAR MAKTABLESI SIFATINI OSHIRISH VA BOSHQARISH TIZIMI MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

A.E.Bekturdiev – assistent o'qituvchi

K.J.Baxitjanova – talaba

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Tayanch so'zlar: sifat, sifat kafolati, ta'lim, ta'lim sifatini boshqarish, menejmenti, model, monitoring.

Ключевые слова: качество, обеспечение качества, образование, управление качеством образования, менеджмент, модель, мониторинг.

Key words: quality, quality assurance, education, quality of education management, management, model, monitoring.

Davlatning ta'lim sohasidagi yetakchi maqsadi - shaxs, fuqarolik jamiyatni va davlat ehtiyojlardan kelib chiqqan holda fundamental bilimlardan va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan yaratilgan yuqori sifatli ta'limga erishishdir. Umuman olganda, o'quv jarayonining xavfsizligi va o'quvchilarning sog'lig'i saqlash, ularning kasbiy darajadagi ta'lim xodimlarining doimiy rivojlanishi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining rivojlanishi ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishning yangi shakl va uslublarini ishlab chiqish, turli tipdagi maktablar va ta'lim dasturlarini ko'paytirish bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyoti ta'lim rivojiga bog'liq. Ta'lim rivojlanishi boshqaruv jarayonlari orqali boshqarilsa va takomillashtirilsagina samarali bo'ladi. Ta'lim - bu bizning kelajagimiz, deb aytishning o'zi kifoya emas, bu - jamiyat taraqqiyotini barcha yo'nalishlarda jadallashtirishni ta'minlaydigan bilimlar ishlab chiqarish [1].

Ta'lim sifatini boshqarishni ko'rib chiqishda quydagi lar zarur:

- bir qator asosiy tushunchalarni ko'rib chiqing: sifat, sifatni ta'minlash, ta'lim, ta'lim sifatini boshqarish, sifatni oshirish, monitoring, pedagogik monitoring;
- ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarishning asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish;
- umumiy ta'lim tashkilotining ta'lim sifatini boshqarish tizimi modelining ahamiyatini aniqlash.
- umumta'lim muassasasida ta'lim sifatini ta'minlash va boshqarish tizimining faoliyatini tahlil qilish.

Ta'lim sifati bilan bog'liq masalalarini o'rganishda bir qator asosiy tushunchalarga tayanish kerak: sifat, sifatni ta'minlash, ta'lim, ta'lim sifatini boshqarish, sifatni oshirish, monitoring. Sifat - obyektning belgilangan va kutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlар to'plami. Sifatni ta'minlash – rejalashtirilgan va amalga oshirilgan, doimiy nazorat ostida bo'lgan va sifat talablarining bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun zarur bo'lgan tadbirlar [2].

Ta'lim - bu shaxsni maqsadli ijtimoiylashtirish tizimi bo'lib, u o'quvchilarning madaniy namunalari va qadriyatlarni o'zlashtirishini, tizimlashtirilgan bilim va ko'nikmalarga, shuningdek, atrofdagi dunyoga hissiy munosabat tajribasiga asoslangan o'z "men"ni shakllantirishni ta'minlaydi. Ta'lim sifatini boshqarish - ta'lim sifatini ta'minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga qaratilgan strategik va tezkor choratadbirlarning tizimli ravishda amalga oshirilgan tizimi. Sifatni oshirish - ta'lim faoliyatining mavjud parametrlarini ta'lim sifati sohasidagi davlat siyosatida belgilangan maqsad va vazifalarga yaqinlashtirish jarayonlari va natijalari. Monitoring (lotincha monitor - eslatuvchi, ogohlantiruvchi; inglizcha monitoring - monitoring, tracking) - diagnostika va nazorat qilish maqsadidagi yangi, zamonaviy monitoring vositali bo'lib, butun ta'lim jarayoniga butunlay boshqa nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Ta'lim sifatini boshqarish ta'limni boshqarish tizimining umumiy tarkibiga kiritilgan. Shu bilan birga, muhim jihat shundaki, sifat menejmenti hech qanday tarzda o'rnatilgan va samarali chiziqli boshqaruv tuzilmasini buzmaydi, bu yerda menejerning roli asosiy rollardan biridir [3].

O'z navbatida, ta'lim sifatini boshqarishning joriy etilishi boshqaruv funksionalligini - rahbar, ta'lim muassasalari xodimlari va manfaatdor jamoatchilik vakillari

o'rtaqidagi aloqalarni tartibga solishni jiddiy ravishda oshiradi. Amaliyotlar ketma-ketligi, operatsiyalarning o'zi, usullari, individual texnikasi va harakatlari batafsil tavsiflangan qoidalar ta'lim sifatini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular ko'p jihatdan boshqaruv qarolarining samarali bajarilishini kafolatlaydi.

Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida (jumladan, Rossiya va MDH mamlakatlarida) ta'lim sifatini boshqarish tizimini qo'llash bo'yicha amaliy tajriba ta'lim muassasida boshqaruvning asosiy bosqichlarini aniqlash imkonini beradi:


- Maktab ta'limi sifatini boshqarish tizimlarini loyihalash (SQEMS) va ta'lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (loyiha rejasi) - talab qilinadigan sifatga erishish uchun yordamni amalga oshirishni normativ, tashkiliy, uslubiy va instrumental asoslarni rejalashtirish va shakllantirish [4].

- Maktab ta'limi sifatini nazorat qilish tizimlarini sozlash (SQEMS) va ta'lim sifatini nazorat qilish (loyiha rejasi) - talab qilinadigan sifatga erishish uchun yordamni amalga oshirishni normativ, tashkiliy, uslubiy va instrumental asoslarni tuzatish va tartibga solish.

- Jarayonni monitoring qilish va tuzatish (Nazorat + Ta'sir = Natija) - bu erishilgan sifat darajasini ma'lum bir daraja bilan baholash va taqqoslash, barcha manfaatdor tomonlarga fikr bildirish, faoliyat va boshqaruv tizimiga tuzatishlar kiritish jarayoni.

- Natija - berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish va olingan ishlarni baholash orqali baholashni olish jarayoni.

Ta'lim sifatini boshqarish o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan jarayon bo'lib, ular ham ta'lim sifatini boshqarish bosqichlari hisoblanadi. Ushbu elementlar asosida ta'lim muassasasi tizimining metodik modeli quydigacha keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim muassasasi tizimini metodik modeli

Kadr tanglashni avtomatlashtirish - Kreativ fikrash, yangi xodimni qidirish zarurligini asoslash, talablar ro'yxatini (tajriba, ko'nikma, yosh, litsenziya) tuzish, bo'sh ish o'rinnarini to'ldirish vaqtini aniqlash va bo'sh ish o'rnnini internetda e'lon qilish, ishga qabul qilish agentligiga murojaat qilish, xodimlarning shaxsiy aloqalaridan foydalanish, ommaviy axborot vositalarida e'lon yuborish va hk.

O'qitish modeli texnik baza - Moddiy-tehnika bazasini yaxshilash (Parta jihozlari kompyuter texnikasi).

Yangi pedagogik metodlarni avtomatlashtirish - Ta'lim sohasi ijtimoiy-madaniy sohaga tegishli bo'lib, u avtomatlashtirish jarayonlariga alohida xususiyatlarni yuklaydi masalan, Baliq steyili metodi, Keys stady metodi, Muammali vaziyat metodi, Klaster, Texnologiyalar-keys metodlarida turlisha avtomatlashtirishni ko'rishimiz mumkin.

- Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni avtomatlashtirish - iqtidorli o'quvchilar va iqtidorli yoshlar bilan ishlash davlatning ta'lrim siyosatida ustuvor o'rinni egallaydi, shuning uchun davlatning vazifasi iqtidorlilarni qo'llab-quvvatlashdir va o'quvchilarga hamrohlik qilish.

Sifat menejmenti tizimlarini joriy etish bo'yicha zamnaviy ishlanmalarda umumiy sifat menejmenti tamoyillari asos sifatida qo'llilanadi:

- Ta'lrim sifatini oshirish jarayonlarini doimiy maqsad - ehtiyojlarni qondirish, raqobatbardoshlik, rivojlanishga aylantirish.

- Boshqaruv uslubini o'zgartirish, har qanday vaziyatda ham "qo'lga kiritgan yutuqlari bilan dam olish" yoki "taslim bo'lish" emas, balki ta'lrim muassasasining barcha tizimlari va jarayonlari sifatini doimiy ravishda yaxshilash zarur.

- Ta'lrim sifatini doimiy va uzlusiz oshirish, ta'lrim tizimini takomillashtirish, rejalashtirish, ta'lrim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tezkorlik bilan hal etish.

- Tashkilot xodimlari yagona jamoa sifatida harakat qilishlari kerak. Faqat bu holatda doimiy sifat kafolati talabini qondirish mumkin.

- Muayyan muassasaga mansubligi bilan faxrlanish imkoniyatini yaratting.

- Ta'lrim va o'z-o'zini takomillashtirishni rag'battantirish.

Kasbiy mukammallik cho'qqisiga mustaqil ko'tarilish va martaba pog'onasida ko'tarilish mutaxassislarining mala-kasi bilan belgilanishi kerak.

- Har bir jamoa a'zosini ta'lrim muassasasini o'zgartirish ishlariqa jaib qilish.

Rahbariyatning sifatga erishish jarayoniga ishonchi muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biridir. Rahbariyat harakat qilishi va sifatni yaxshilash jarayonlarini e'lon qilish bilan cheklanmasligi kerak. E.Demingom tomonidan biringchi bo'lib taklif qilingan ushbu tamoyillar quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi: [5]

- tashkilotning inson resurslarini rivojlantirishni boshqarish;

- menejer va unga bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish;

- turli bo'limlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish;
- xodimlarning motivatsiya manfaatlarini boshqarish.

Bundan tashqari, sifat menejmenti tizimi zamonaviy ta'lrim muassasasi uchun quyidagilar zarur:

- federal davlat ta'lrim standartlari talablariga erishishda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;

- muassasada ijodiy va faol muhitni rivojlantirish, uning xodimlarining kasbiy faoliyatini oshirish;

- umumta'lrim muassasasida umumiy boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- o'quv jarayonini moliyaviy, resurs va kadrlar bilan ta'minlashni optimallashtirish;

- ta'lrim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish; ta'lrim faoliyati uchun zamonaviy xavfsiz sharoitlar yaratish;

- ta'lrim muassasalarini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash.

Umumta'lrim tashkilotida ta'lrim sifatini boshqarish tizimining yuqorida aytib o'tilgan ehtiyojlariga muvofiq, modelning asosiy maqsadi ta'lrim sifatini baholash uchun

maktab tizimining modeli haqida ishonchli ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va tarqatishdir. Ta'lrim sifati bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi mumkin: [6]

- Tarkib komponenti bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi;

- ta'lrim sifati haqida tasavvurni shakllantirish;
- ta'lrim sifatini baholashning uslubiy yondashuvlari;
- ta'lrim sifatini tahlil qilish;
- maqsad, vazifalar va yo'nalishlarni belgilash;
- ta'lrim sifatini baholash uchun maktab tizimi dasturini ishlab chiqish.

Boshqaruv komponentiga quyidagilar kiradi:

- Ijtimoiy boshqaruv tizimi; uslubiy faoliyat tizimi;
- ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy faoliyat tizimi;
- nazorat, baholash va ekspert faoliyati tizimi.

Ta'lrim sifatini baholash bo'yicha Temurbeklar maktab tizimining faoliyat komponenti ko'rsatkichlar tizimi, diagnostika texnikasi, nazorat va o'chov materiallari majmuasi asosida shakllantiriladi, ular yordamida monitoring tizimi ishlaydi.

Monitoring axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shuningdek, an'anaviy ma'lumotlarni yig'ish (so'rovnomalar, so'rovlar va boshqalar) orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta'lrim sifatini ta'minlash va boshqarishning tashkiliy shartlari quyidagicha: [7]

- ta'lrim muassasasini boshqarishning dasturiy-maqsadli va loyihiy usullarini yaxshi biladigan ma'muriy guruhning mavjudligi;

- o'z-o'zini rivojlantirish, mehnat sharoitlarini va uning natijalarini yaxshilash uchun ichki ehtiyojga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar tarkibining mavjudligi;

- ta'lrim jarayonini zamonaviy ta'lrim standartlariga javob beradigan darajada tashkil etish imkonini beruvchi moddiy-texnikaviy, ilmiy va uslubiy ta'minotning mavjudligi;

- o'quv jarayonida davlat ta'lrim standartlarini bajarish imkonini beruvchi o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualaridan foydalaniш;

- umumiy ta'lrim muassasasida ta'lrim sifatini monitoring qilish tizimining mavjudligi.

Ta'lrim sifatini boshqarish modeli umumiy ta'lrim muassasasida ta'lrim sifatini baholash tartibini yaratishi kerak. Modelning ma'nosi deganda, sifat menejmenti nuqtayi nazaridan, ta'lrim muassasasida ta'lrim sifatini boshqarishga qo'yiladigan talablar tizimi sifatida umumiy ta'lrim muassasasi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini tavsiflovchi mezonlar va ularning tarkibiy elementlari tushuniladi: boshqaruvning yetakchi roli; siyosat va strategiya; xodimlarni boshqarish; resurslar va hamkorlar; jarayonni boshqarish: UCO tizimini ishlab chiqish va boshqalar. Model ta'lrim sifatini boshqarish vositasidir. Ta'lrim muassasasida ta'lrim sifatini baholash tizimi ta'lrim resurslarini, o'quv jarayonini, ta'lrim natijalarini baholashni va ularning sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashni ta'inlaydigan tashkiliy va funksional tuzilmalar majmuuni ifodalaydi [8].

Xulosa qilib aytganda, Temurbeklar maktabining ta'lrim sifatini boshqarish o'zaro bog'iqliq elementlardan tashkil topgan jarayon bo'lib, ular ham ta'lrim sifatini boshqarish bosqichlari hisoblanadi. Sifat menejmenti tizimlarini joriy etish bo'yicha zamonaviy ishlanmalarda umumiy sifat menejmenti tamoyillari ko'rib chiqildi.

Adabiyyotlar

- Seitnazarov K. K., Turemuratova B. K., Aytanov A. K. Stages and Methods of Data Collection for Developing an Artificial Intelligence Model for Recognizing Letters of the Karakalpak Sign Language //2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM). – IEEE, 2024. – C. 2530-2534.
- Сейтназаров К.К., Турэмуратова Б.К. Разница между глубоким и машинным обучением. // Periodica Journal of Modern Philosophy, Social, 2022
- Murphy, Kevin P. Machine learning: a probabilistic perspective. MIT press, 2012.
- Сейтназаров К.К., Турэмуратова Б.К. Применение технологии искусственного интеллекта в системе дистанционного образования// Новости образования: исследование в XXI веке, 2022.
- Deming W. E. (1986). The new economics for industry, education, government / W.E.Deming. – Cambridge, MA : MIT Center for Advanced Engineering Study.

6. Сеитназаров К.К., Мухиятдинов Н.С., Урынбаева М.М. / Искусственный интеллект и его применение во время урока информатики. / O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. –Tashkent: 2023. –C.1426-1429.

7. Seytnazarov K.K. Informatika fanini oqitishda samarali metodlarni tanlab olish va qorolar qabul qilish dasturiy taminotini qayta ishlab chiqish. / Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal. –Toshkent: C.88-98.

8. Усманов Р.Н., Кучкоров Т.А., Сеитназаров К.К. / Комплексное исследование и оценка состояния экологически напряжённых территорий в условиях разнородной информации. / Пятая Международная научно-практическая конференция «BIG DATA and Advanced Analytics. BIG DATA и анализ высокого уровня», Минск, Республика Беларусь. 2019. -C.122-132.

REZZUME. Ushbu maqolada ta'lrim sifatini boshqarishga ta'sir qiluvchi bir qator masalalar ko'rib chiqiladi va mavzuning asosiy tushunchalariga ta'riflar beriladi. Shu bilan birga ta'lrim muassasasida ta'lrim sifatini boshqarishning asosiy bosqichlari ko'rib chiqish va umumiyligi ta'lrim tashkilotining ta'lrim sifatini boshqarish tizimi modelining ahamiyati aniqlanadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассмотрен ряд вопросов, влияющих на управление качеством образования, и определены основные понятия предмета. При этом рассмотрены основные этапы управления качеством образования в образовательном учреждении и определено значение модели системы управления качеством образования общеобразовательной организации.

SUMMARY. this article examines a number of issues that affect the management of the quality of education and defines the basic concepts of the subject. At the same time, the main stages of education quality management in an educational institution are considered and the significance of the model is determined in the education quality management system of a general education organization.

JISMONIY MASHQLARDA ENERGIYA SARFLARINING TAHLILI

G.N.Ernazarov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'onasi filiali

Tayanch so'zlar: jismoniy mashqlar, sarflanayotgan energiya, energiya quvvati, statiki, dinamiklik, yoshi, jins, kuch-davomllilik, kuch-tezlik, muskulning qisqarishi.

Ключевые слова: физические упражнения, затраченная энергия, энергоёмкость, статика, динамика, возраст, пол, сила-продолжительность, сила-скорость, мышечное сокращение.

Key words: Physical exercise, expended energy, energy intensity, statics, dynamics, age, gender, strength-duration, strength-speed, muscle contraction.

Mavzuning dolzarbliji: Hozirgi kunda inson kundalik hayotida har xil harakatlarni bajaradi. Fiziologik nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadi amalga oshirish uchun yo'naltirilgan harakatlar majmuini mashq deb ataladi. Musobaqalar davrida bajariladigan mashqlar iloji boricha yuqori natijaga erishishga mo'ljallanadi (sakrash, yugurish, suzish va boshqalar). Kundalik xayotda uchraydigan jismoniy mashqlar, sport mashqlari xilma xil bo'lishiga qaramasdan ularni turlash zarur. Jismoniy mashqlarni fiziologiya yo'lida turlash ularni amalga oshirishda qatnashayotgan faol muskullarning hajmiga, muskullarni qisqarish turiga, muskul qisqarishini kuchi va quvvatiga qarab amalga oshiriladi.

Muskulning dinamik qisqarish kuchi uning qisqarish tezligiga teskari proporsionaldir. Muskulning qisqarishi qancha tez bo'lsa shuncha kuch oz ko'rindi yoki muskul qisqarishiga qarshilik qancha ko'p bo'lsa tezlik shuncha past bo'ladi va kuchi shuncha ko'p namoyon bo'ladi. Kuch va tezlikni o'zaro munosabati muskul qisqarishining quvvatini belgilaydi. qisqarishlar quvvati qancha katta bo'lsa shu ishning davomliligi shuncha qisqa bo'ladi. Muskullar qisqarishining kuchi va quvvatiga va bajariladigan ishlarni davomliligiga qarab jismoniy mashqlarni uch guruxga bo'linadi; "kuchli", "tezlik-kuchli" va "chidamlilik" mashqlari. "Kuchli" yoki katta kuch sarflab amalga oshirilagan mashqlarni bajarishda ishtirok etayotgan muskul guruxlari maksimal yoki maksimalga yakin zo'riqishlari mumkin. Bu mashqlarda «kuch» ularni bajarishdagi asosiy omil xisoblanadi [1:75; 2:68].

"Tezlik-kuchli" yoki quvvatli mashqlar dinamik mashqlar xisoblanadi. Ularni bajarishda asosiy muskullar bir vaqtning o'zida nisbatan katta kuch va tezlik bilan qisqaradi. Bunday mashqlar 3-5 sekunddan 1-2 minutga davom etadi. Tezlik va kuch hisobiga bajariladigan mashqlarda "quvvat" asosiy ahamiyatiga ega. "Chidamlilik" mashqlari deganda ularni bajarishda ishtirok etayotgan yetakchi muskullar uncha katta bo'lmagan kuch va tezlikda qisqaradilar. Shu tartibda uzoq muddat ya'ni bir necha minutdan bir necha soatlarga ishslashlari mumkin [3:74].

Jismoniy mashqlarni energiya quvvatiga qarab yengil, o'rtal, og'ir va o'ta og'ir mashqlarga bo'linadi. Energiya quvvatiga qarab jismoniy mashqlarni farqlaganda bir qator omillarga e'tibor berish kerak. Jumladan ishni statik yoki dinamikligiga, ishtirok etayotgan faol muskul massasining hajmiga, tananing kattaligiga, og'irligiga, yoshiga, jinsiga, jismoniy chiniqqanligiga va tashqi muhit sharoitlariga. Masalan 1,2 kkal/min energiya sarfi bilan organizm lokal ish bajarasa uning davomliligi bir necha sekund bo'ladi. Agar

shu sarf bilan regional ish bajarilsa, ish o'rtacha og'irlikda bo'lib bir qancha o'n minutlar davom etishi mumkin. Shu energiya sarfi global ish juda yengil hisoblanadi va kun bo'yi bemalol bajarilishi mumkin [4:92; 5:75].

Tahlil va natijalar, aniq jismoniy yuklamani bajarish uchun organizmni fiziologik va psixo-fiziologik reaksiyalarni ta'minlashga qaratilgan harakatlari fiziologik quvvatini yoki fiziologik yuklamani belgilaydi. Fiziologik yuklama va ishni og'irliq bir biriga yaqin termin yoki atamalar hisoblanadi. Jismoniy yuklama bilan fiziologik yuklamani quvvati orasida to'g'ri chiziqli munosabat mavjud. Masalan, yugurish tezligi qancha yuqori bo'lsa fiziologik yuklama shuncha yuqori bo'ladi. Shuni aytish lozimki bir hil jismoniy yuklamaga turli hil odamlar har hil fiziologik javob qaytaradilar. Masalan, yoshiga, chiniqqanligiga va turli hil muxit sharoitlariga qarab javob reaksiyalari har hil bo'ladi. Shu sababli sport mashqlarini turlashda ko'proq mashqning fiziologik quvvati yoki fiziologik yuklamasi ko'rsatkichlaridan foydalananiladi.

Ma'lum bir mashqni qancha ko'p vaqt bajara olish ko'rsatkichi ham asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Unga ko'ra V.S.Farfel fiziologik quvvatiga qarab jismoniy mashqlarni to'rtga bo'ladi.

1. Maksimal quvvatli – mashq bajarish vaqt 20-sekundgacha.

2. Submaksimal quvvatli – 20-sekunddan 3-5 minutgacha.

3. Katta quvvatli – 3-5 minutdan 30-40 minutgacha.

4. O'rtacha quvvatli – 40 minutdan ko'p davom etadi.

Fiziologik quvvatni ta'riflashda fiziologik reaksiyalarini qanchalik darajada o'zgarishiga e'tibor beriladi. Ma'lum bir jismoniy yuklamaga beriladigan fiziologik javob reaksiyalarining ko'rinishi va kattaligi organizmning yetakchi fiziologik tizimlarini funksional imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Ya'ni bir xil fizik yuklama turli odamlarga turlicha ta'sir etadi. Siklik mashqlarni turlagada ularni energiya manbayiga qarab anaerob va aerob mashqlarga bo'linadi. Har xil siklik mashqlarni bajarganda anaerob va aerob yo'l bilan energiya hosil bo'lishi turli nisbatda bo'ladi. Anaerob va aerob yo'l bilan energiya hosil qilish uchta tizimdan iborat bo'ladi.

1. Alaktat yoki fosfogen.
2. Laktat yoki glikolitik.
3. Aerob yoki kislородли. bu uchala tizimlarni ishslash chegaralari biri ikkinchisinkini qoplab ketadi. Anaerob va aerob energiya tizimlarini shu mashqlarni bajarishdagi ulushiga qarab siklik mashqlarni anaerob va aerob mashqlarga bo'linadi.

Maksimal anaerob quvvatli ishni bajarayotgan muskullarni energiya bilan ta'minlanishi asosan anaerob

yo'l bilan amalga oshiriladi. Umumiy energiya sarfining 90-100% anaerob yo'l bilan ta'minlanadi. Bu ish asosan fosforli birikmalarni (AUF, KF) parchalanishi va qisman laktat yoki glikolitik yo'l bilan energiya oladi. Eng katta quvvatli anaerob ish vaqtida yetuk sportchilar 120 kkal/min energiya sarflaydi. (qiska masofaga yugurish, qisqa masofaga suzish, qisqa masofaga velosiped haydash). Maksimal anaerob quvvatli mashqlar uzoq davom etmaganligi tufayli qon aylanish va nafas tizimlari faoliyati o'zini yuqori darajasiga ko'tarilmaydi.

Maksimal oldi anaerob quvvatli mashqlarni bajarganda sarflanayotgan energiyaning 75-85% fosfor organik birikmalarni va glyukoza ni sut kislotsasigacha parchalanishi yo'li bilan hosil qilinadi. Yetuk sportchilar bunday mashqlarni bajarganda minutiga 50-100 kkalgacha energiya sarflaydi. Bunday mashqlarning davomliligi 20 sekunddan 50 sekundgacha bo'ladi (200 metrgacha yugurish, 100 metrga suzish, 500 metrga konkida uchish maksimal oldi anaerob quvvatli mashqlar xisoblanadi).

Submaksimal anaerob quvvatli ishni bajarayotgan muskullarda energiya xosil qilishni 60-70% anaerob, ya'ni sut kislotsasi xosil bo'lishi xisobiga bo'ladi. Lekin aerob tizim xam energiya xosil bo'lishiga sezilarli xissa qo'shadi. Bunday ishlar yoki mashqlar 1-2 minut davom etadi. Masalan, 800 metrga yugurish, 200 metrga suzish, 1000 va 1500 metrga konkida uchish. Sportchilar bunday mashqlarni bajarayotganda o'rtacha minutiga 40 kkalgacha energiya sarflaydi. Kislород та'minlovchi tizim ko'rsatkichlari maksimumga yaqin bo'ladi [6:11].

Maksimal aerob quvvatli mashqlarni bajarganda sportchining masofadagi kislород iste'moli shaxsiy kislорodning maksimal istemolining 95-100% ni tashkil qiladi. Energiya xosil bo'lishini 60-70% kislород ishtirokida bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, 30-40% energiya anaerob tizim xisobiga ta'minlamoqda. Mashqlar 3-10 minutgacha davom etishi mumkin.

Maksimal oldi aerob kuvvatli mashqlar bajarilganda sportchining masofadagi kislород iste'moli shaxsiy kislорodni maksimal istemolining 85-95% ni tashkil qiladi. Sarflanayotgan energiyaning 90% oksidlanish yo'li bilan hosil qilinadi. Oksidlanuvchi modda sifatida uglevodlar ishlataladi, nafas koeffisiyenti 1,0 ga teng bo'ladi. Asosan muskullardagi glikogen va qisman qondagi qand parchalanadi. Mashqlar 30 minutgacha davom etishi mumkin. Bunday mashqlarga 5000-10000 metrga yugurish, 1500 metrga suzish, 10000 metrga konkida uchish kiradi.

Adabiyyotlar

- Ernazarov G.N. The level of preparation of players depends on maximum oxygen consumption. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 8, 68-75. 2023.
- Эрназаров F.Н. Талабалар жисмоний маданияти қадриятларини ўрганиш. //Фан-Спорта. 2020. №. 3. -С. 66-68.
- Ernazarov G.N. Attitude of a modern student to a walky lifestyle. *Stress*, 269(S 43), 74. 2020.
- Эрназаров F. 2023. Талабалари жисмоний сифатларини кўрсаткичи. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 5), 85-92.
- Эрназаров Г.Н. 2021. Педагогическая валеология в учебном процессе системы высшего образования. *ББК 75.1 A-43 Ответственный редактор*, 344.
- Нельматович Э.Ф. 2020. Обоснование метрологической доступности контрольных тестов по физической подготовленности. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 11(3).
- Ernazarov G., & Mavlonova S. 2023. Indicators of speed physical quality of students. *Science and innovation*, 2(B1), 177-183.

REZYUME. Maqolada sportchilarning kundalik xayotda xar xil xarakatlarni bajarishi, jismoniy mashqlarni amalga oshirilganda sarflanayotgan energiya miqdorini aniqlashda ikkita ko'rsatkichga e'tibor beriladi ya'ni, energiya quvvatiga, umumiy energiya sarflangan energiya miqdori tushunilishi va jismoniy mashqlarni energiya quvvatiga qarab yengil, o'rta, og'ir va o'ta og'ir mashqlarga bo'linishi ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье спортсмены выполняют различные действия в повседневной жизни, и при определении количества энергии, затрачиваемой при физических упражнениях, внимание уделяется двум показателям: энергоёмкости, пониманию количества затрачиваемой энергии в общей энергии и классификации физических упражнений. По энергоёмкости упражнения легкие, средние, делятся на тяжелые и сверхтяжелые упражнения.

SUMMARY. In the article, athletes perform various activities in daily life, and when determining the amount of energy expended during physical exercise, attention is paid to two indicators: energy intensity, understanding the amount of energy expended in total energy and the classification of physical exercises. According to energy intensity, exercises are light, medium, and divided into heavy and super-heavy exercises.

Submaksimal aerob kuvvatli mashqlarni bajarayotganda sportchining masofadagi kislород iste'moli shaxsiy kislородning maksimal istemolini 70-80% ni tashkil qiladi. Mashklarni bajarish uchun xosil qilinayotgan energiyaning 90% dan ortig'ini oksidlanish, ya'ni aerob yo'l bilan hosil qilinadi. Oksidlanuvchi moddalarning ko'p qismi uglevodlarga, ozrogi yoglarga to'g'ri keladi. Nafas koeffisiyenti taxminan 0,85-0,90 ga teng bo'ladi. Bu gurux mashqlarga marafoncha yugurish, 30 km ga yugurish, sportcha 20 km yurishlarni kiritish mumkin. Mashqlar 120 mingacha davom etishi mumkin.

O'rta aerob kuvvatli mashqlar bajarilganda sportchining masofadagi kislород iste'moli shaxsiy kislородни maksimal istemolining 55-65% ini tashkil kilib, barcha sarflanayotgan energiya aerob yo'l bilan hosil qilinadi. Asosiy energiya manbayi bo'lib ishlayotgan muskullardagi yoglar hisoblanadi. Nafas koeffisiyenti 0,8 ga yaqin bo'ladi. Bunday mashqlarga 50 kmgacha sportcha yurish, 50 km va undan ortik masofaga chang'ida yurishni olish mumkin. Yurak, nafas tizimlarining ko'rsatkichlari o'zining maksimumini 60-75% darajasidan ortmaydi.

Kichik aerob kuvvatli jismoniy mashqlarni bajarganda sportchining masofadagi kislород iste'moli shaxsiy kislородни maksimal istemolining 50% va undan ham ozroq darajasida ketadi. Sarflanayotgan barcha energiya aerob yo'l bilan hosil qilinadi. Asosiy oksidlanuvchi modda yoglar xisoblanadi. Bunday mashqlarga oddiy yurish mashqlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Asiklik mashqlar- portlovchi mashqlarga sakrash va uloqtirish mashqlari kiradi. Sakrash mashqlariga uzunlikka, balandlikka, uch qadamlab, langar bilan, chapng'ida, tramplindan suvg'a sakrash hamda gimnastika va akrobatikadagi sakrashlar kiritiladi. Uloqtirishga diska, nayza, molotni uloqtirish, yadro uloqtirish hamda og'ir atletikadagi siltab ko'tarishlar kiradi. Bunday mashqlarni alohida xususiyati shundan iboratki, ularni bajarishda bir marta yoki bir necha marta qisqa muddatli katta quvvatli kuchlanish sodir etiladi [7:183].

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, sportchilarning kundalik xayotida bajaradigan har xil harakatlarni bajarishi hamda jismoniy mashqlarni va jismoniy harakatlarni amalga oshirganda sarflaydigan energiya miqdorini aniqlashni ikki ko'rsatkichga bo'lish mumkin. Ya'ni, energiya quvvatiga, umumiy energiya sarflangan energiya miqdori tushunilishi va jismoniy mashqlarga e'tibor beriladi, yengil, o'rta, og'ir va o'ta og'ir mashqlarga bo'linishi ko'rsatilgan.

16

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHI

O.M.Gilishtaganova – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: raqamli texnologiyalar, o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik faoliyat, qo‘llab-quvvatlash, diagnostik, o‘qitish va rivojlanirish.

Ключевые слова: цифровые технологии, учитель, профессиональное развитие, педагогическая деятельность, поддержка, диагностика, обучение и развитие.

Key words: digital technologies, teacher, professional development, pedagogical activity, support, diagnostics, training and development.

Raqamli texnologiyalar tariximizdagi har qanday innovatsiyaga qaraganda tezroq rivojlandi. Bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb 50 foizini qamrab oldi va jamiyatlarni o‘zgartirdi. Raqamli texnologiyalar moliya, savdo va davlat xizmatlaridan foydalanishni kuchaytirish orqali tizimli ekvalayzer sifatida namoyon bo‘ldi [4:222-232].

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloq qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish kabi chora-tadbirlar egallangan [2].

Ta’lim sifati va samaradorligiga qo‘yilayotgan talablar professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlari mala-kasini oshirishning mazmuni, shakllari va metodlarini ana shu talablarga mos ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmonida professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan. Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilayotganligi ta’kidlangan [1].

Keyingi bir necha yillar davomida barcha sohalarda professional hayot sezilarli darajada ko‘p o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli muhit faoliyatga o‘tishning mazmuni va amalga oshirish usullarini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bu albattda, kasbiy tarafdan o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga ham tegishlidir.

Ko‘pincha o‘qituvchilarda metodik yani uslubiy tarafdan yordamga muhokama qilishdan oldin, biz “o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi” va “kasbiy rivojlanishda o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash”ning asosiy tushunchalarini aniqlab olishimiz lozim. Ushbu tushunchalar turli muassasalarda qanday atalishini emas, balki ularni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan aniqlab, tahlil qilib chiqsak. Biz o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini pedagogik faoliyatning ajralmas tuzilishini tashkil etuvchi shaxsiy fazilatlar va vakolatlar majmuasini sifat jihatidan o‘zgartirish jarayoni deb bilamiz.

Biz o‘qituvchini malakasini oshirishni qo‘llab-quvvatlashni, o‘qituvchiga uning vakolatlari doirasidan kelib chiqib yonaltirishga, shu jumladan o‘qituvchilar uchun tashkiliy, diagnostik, o‘qitish va rivojlanish faoli-

yati tizimini o‘z ichiga olgan, o‘z-o‘zini rivojlanirish mexanizmlarini ishga tushiradigan va o‘z resurslarini faollashtirishga qaratilgan nodirektiv yordamni aniqlashimiz zarur. Qo‘llab-quvvatlash jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni amalga oshirishda shaxsning ya‘ni o‘qituvchining salohiyati takomillashadi va u o‘z kasbiy faoliyati muammolarini hal qilishda tajribaga ega bo‘ladi.

Pedagogik faoliyatni tizimli yondashuv nuqtayi nazardan umumiyl maqsadga yo‘naltiradigan o‘zaro bir biri bilan uzviy bog‘liq tarkibiy va funktsional qismlardan tashkil topgan pedagogik tizim sifatida yondashuvni N.V.Kuzminaning asarlari asosida o‘qituvchining faoliyati to‘g‘risida g‘oyani o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq.

N.V.Kuzminaning fikricha, strukturaviy birliklar, pedagogik tizimning asosiy belgilari bo‘lib, funktsional komponentlar ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minkaydi va uning boshqa tizimlardan farqini ko‘rsatadi. Pedagogik tizimning tarkibiy qismlariga maqsadlar, ta’lim mazmuni (mualliflar talqini), pedagogik aloqa vositalari, pedagogik jarayonning etakchi subyektlari - o‘qituvchilar va talabalar, sifatni baholash mezonlari, shuningdek keyingi ta’lim tizimi kira-di. Shunday qilib, dastlab pedagogik faoliyat “o‘tmish-hozirgi - kelajak” nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvdagagi faoliyatning hozirgi holati aslida uning o‘tmishini ham, kelajagini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtida o‘tmish faoliyatni amalga oshirishning o‘zlashtirilgan vositalari bilan ifodalanadi, kelajak tizimning kelajagi haqidagi maqsad va g‘oyalar bilan belgilanadi.

Funktsional komponentlar pedagogik tizimning harakatini ta’minkaydi. Funktsional dizayn, konstruktiv, kommunikativ, gnostik, tashkiliy, baholash, bashoratli kabi tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Pedagogik tizimning har bir tarkibiy komponenti funksional komponentga mos keladi.

Pedagogik faoliyat haqida yaxlit tushunchaga ega bo‘lgan holda, raqamli muhitda o‘qitishga o‘tish davrida o‘qituvchi faoliyatini bilan nimalar sodir bo‘lishligi va o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash qanday tashkil etilishi kerakligi haqidagi savolga javob izlab ko‘rsak?

Birinchidan, muvaffaqiyatsizlik pedagogik faoliyatning tarkibiy qismini beradi. Bu ba’zi bir hollarda ilgari mavjud bo‘lgan ta’lim tizimining bevosita raqamli muhitga o‘tishida namoyon bo‘ldi. “Rivojlanish bosqichi” sxemasiga ko‘ra, hozirgi kunni chetlab o‘tib, o‘tmishdan kelajakka “otish” sodir bo‘ldi. Shu sababli, bazi hollarda talim tizimi ni yuqori sifatli prognozlash yuz bermadi va natijada keyingi ta’lim tizimini qayta loyihalash amalga oshirilmadi.

Shuning uchun ham darsni avvalgidek o‘tkazishga urinishlar bolar edi, talabalar ham klassik variantda uy vazifalarini bajarishlari zarur bolib qolardi, o‘qituvchi esa mavjud internetning yaxshi tezligi bilan o‘quv materialini real vaqt rejimida yetkazishga harakat qilardi. Bunday vaziyatda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida qo‘llab-quvvatlashi “favqulodda, tezkor uslubiy yordam”ni va usullar, texnikalar, o‘qitish vositalarini taklif qiladi. Bu oqituvchi uchun yangi vaziyatga tezda moslashishga va professional muammolarini hal qilishga imkon beradi.

O‘qitishni raqamli ta’lim muhitiga o‘tkazishda pedagogik faoliyatning gnostik (tadqiqot) komponenti amalda yo‘qolgan. Gnostik funktsiya qachon muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, agar o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratini oshirish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo‘lsa, tadqiqot qobiliyatları va refleks qobiliyatiga ega bo‘lsagina

amalga oshadi. (**Gnostik komponent** - bu o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosini tashkil etuvchi bilim va ko'nikmalar tizimi, shuningdek, uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi kognitiv faoliyatidir).

Uzluksiz pedagogik ta'larning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobjiy baho berib, hozirda shakllangan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini ta'kidlash lozim. Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi. O'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlash, malakaviy talablar,

o'quv rejalarini va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va mala-kalarni yangilab borish malaka oshirish kurslarining asosi maqsadi hisoblanadi [3:237].

Xulosa. O'qituvchilarini bunday qo'llab-quvvatlashning mazmuni va usullari, yangi sharoitlarda bo'lajak faoliyatga tayyorlanishini ta'minlash va kasbiy kamchiliklarni bartaraf etish maqsadli amalga oshirilishi kerak. Raqamli muhitda professional o'qituvchi faoliyatidagi o'zgarishlar yaxlit ko'rinishini hisobga olgan holda uning yondashuvlari bilan rejalashtirilgan, strategik harakati bo'lishi lozim.

Adabiyyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 yil 6 сентябрдаги ПФ-5812-сон “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришига доир кўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4312785>.

3. Karimov K.A. Raqamli transformatsiya sharoitida professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari “Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. 2024. 237-b.

4. Fayziyeva M. Raqamli transformatsiya sharoitida umumta'lim maktabi o'qituvchilarining kasbiy salohiyatlarini oshirishini tashkil etish muammollari May 2023 Общество и инновации 4(3/S):222-232 DOI:10.47689/2181-1415-vol4-iss3/S-pp222-232.

5. Караканова Г.А. Формирование деонтологической культуры учителя в системе непрерывного профессионального образования. 13 00 08 - теория и методика профессионального образования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. –Москва: 2007. 16-19.

REZYUME. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, ta'lim sifati va samaradorligiga qo'yilayotgan talablar, raqamli muhit faoliyatga o'tishning mazmuni va amalga oshirish usullari, «o'qituvchining kasbiy rivojlanishi» va «kasbiy rivojlanishda o'qituvchini qo'llab-quvvatlash»ning asosiy tushunchalarini tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchini malakasini oshirishni qo'llab-quvvatlash va o'qitishni raqamli ta'lim muhitiga o'kazishdagi bir qancha imkoniyatlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется профессиональное развитие учителя в эпоху цифровых технологий, требования к качеству и эффективности образования, содержание и способы реализации перехода цифровой среды к деятельности. Основные понятия «профессиональное развитие учителя» и «поддержка учителя в профессиональном развитии». Он также охватывает несколько возможностей для поддержки профессионального развития учителей и перевода обучения в цифровую образовательную среду.

SUMMARY. This article analyzes the professional development of a teacher in the digital age, the requirements for the quality and effectiveness of education, the content and ways to implement the transition of the digital environment to activity, the basic concepts of «professional development of a teacher» and «teacher support in professional development». It also covers several opportunities to support the professional development of teachers and the transfer of learning to a digital educational environment.

PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

N.Q.Haqnazarov – mustaqil izlanuvchi

R.B.Mannopova – tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

S.T.Mashrapova – direktor

324-sonli eksperimental davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

Tayanch so'zlar: kompetentsiya, pedagog, kasbiy kompetentlik, zamonaviy konsepsiylar.

Ключевые слова: компетентность, педагог, профессиональная компетентность, современные концепции.

Key words: competence, teacher, professional competence, modern concepts.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirish va takomillashtirishning ilg'or jarayonini ta'minlash mutlaqo zarur bo'lib, bu jarayon uzluksiz va iloji boricha samarali o'tishi kerak. Shu munosabat bilan turli olimlarning bu boradagi qarashlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, U.Sh. Begimkulov, T.T. Shoymardonov, Sh.M. Adashboyev va boshqalarning nuqtayi nazariga ko'ra, uzluksiz ta'lim zamonaviy konsepsiylarining pedagoglarning kasbiy kompetentligini butun hayoti davomida rivojlantirish jarayoni sifatida namoyon bo'lishi, biringchi navbatda, inson faoliyatining tez o'zgaruvchan sharoitlariga, jamiyatning jadal rivojlanishiga, kasbiy sohada va kundalik amaliyotda muhim bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarning asosiy qismini doimiy yangilanishi tufayli uzluksiz malakanli oshirish va tez-tez qayta tayyorlash zaruriyatiga javob berishning belgilangan namunasi bilan bog'liqidir. Bundan tashqari, pedagog, hatto minimal ish tajribasiga ega bo'lsa ham, ma'lum bir kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar to'plamiga ega ekanligini, shaxsiy va motivatsion xususiyatlarning ma'lum bir tegishli darajasini shakllantirganligini shubhasiz deb hisoblash maqsadga muvofiqlidir. Shu bilan birga, ta'lim tizimiga

qo'yiladigan ijtimoiy talablarning doimiy o'zgarishi, ta'lim vositalarini yangilash, uni doimiy texnologiyalashtirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlari sharoitida kasbiy kompetentlikning yuqorida tarkibiy qismlari doimiy rivojlanishga muhtojdir [1:79].

Ya.U. Ismadiyarovning ta'kidlashicha, zamonaviy sharoitda pedagoglarning kasbiy kompetentligining uzluksiz rivojlanishi, shu jumladan olyi ta'limdan keyingi ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, olyi ta'limdan keyingi pedagogik ta'lim tizimining asosi tamoyillarini asoslash jarayoni uning tarixiga emas, balki uni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslariga bag'ishlangan maxsus fundamental tadqiqotlar juda kam sonli ekanligi bilan murakkablashadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limga kompleks konseptual yondashuv alohida e'tiborga loyiqlidir. U tarixan shakllangan bilimlarni yaratish deb ataladigan tushunchaning paydo bo'lishiga olib kelgan malakaviy yondashuvdan uzoqlashishni taklif qiladi. Buning o'rniغا uzluksiz ta'limni ikki bosqichli jarayon sifatida ko'rib chiqish taklif etilib, bu oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishi paytida birlamchi tayyorgarlik

doirasida sodir bo‘lувчи педагог шахсини шакллантриш жарони ва олий та’лимдан keyingi та’лим орқали шахснинг ко‘п qиррали ривожланishi жаронидир. Ushbu talqin ostida олий та’лим muassasasida o‘qitish педагогнинг kasbiy madaniyatini shakllantirishda namoyon bo‘lsa, олий та’лимдан keyingi та’лим uning kasbiy va umumiy madaniyatini boyitish жаронида namoyon bo‘ladi. Aynan shu qarash bilan олий та’лимдан keyingi та’лим o‘zining sifatli mazmuniga ega bo‘ladi va faqat kasbiy takomillashtirish bilan cheklanmasdan, shaxsmi takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq holda va педагогнинг kasbiy kompetentligini узлуksiz rivojlantirishning umumiy tuzilishiga organik ravishda mos keladi [2:68].

A.A. Pecherkina o‘z tadqiqotlarida олий та’лимдан keyingi та’limni gumanistik yo‘naltirishning ahamiyati haqidagi g‘oyalarni kuzatishni amalga oshiradi. Olimning ta’kidlashicha, bu педагогнинг o‘zining axloqiy va madaniy o‘sishi, uning aynan shaxsisi darajada та’лим va tarbiyaning murakkab muammolarini hal qilishga tayyorligi uchun vazifalar belgilaydi. Shu munosabat bilan, олий та’лимдан keyingi keyingi та’лим nafaqat педагог томонидан олинган kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni umumlashtirish, ularni har bir inson uchun kasbiy kompetentlik tizimiga aylantirish tizimi sifatida, balki kelajakda shaxsiy rivojlanish, kasbiy shakllanishda yordam berish muhiti sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa педагогнинг kasbiy bilimlarining dolzarbligini та’minlaydi. Tadqiqotchilar томонидан олий та’лимдан keyingi та’лим mutaxassisning ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyoji sifatida shaxslar o‘rtasida ijtimoiy tajribani doimiy ravishda shakllantirishning maqsadli, maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan tizimi sifatida belgilanadi [3:196].

Tadqiqotchi L.R.Djurayevaning fikriga ko‘ra, олий та’лимдан keyingi педагогик та’lim tizimini nazariy va uslubiy та’minlashning muhim muammosi uning asosiy funksiyalarini aniqlashdir. Bugungi kunda ushbu masalaga turli xil yondashuvlarga qaramay, olimlar ularning umumiy obyektivligi va yaqinligini ta’kidlashadi. Ushbu holat muallifga олий та’лимдан keyingi педагогик та’lim tizimining quyidagi asosiy funksiyalarini belgilashga imkon berdi:

ta’limiy-axborot funksiyasi – bu allaqachon shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini kengaytirish, педагог томонидан turli sohaviy ma’lumotlarni olish hamda uning hozirgi va kelajakdagi kasbiy faoliyati, kasbiy kompetentligi uchun muhim bo‘lgan muqaddam egallangan bilimlarini yangilashga qaratilgan та’lim;

interfaol funksiya – bag‘rikenglik, та’lim jarayoni subyekti va obyekti o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, xushmuomalalik, sezgirlik, hamkorlik qilishga tayyorlik kabi kasbiy fazilatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, bu педагогнинг rolini o‘zgartirib, uni avtoritar kuzatuvchi emas, balki maslahatchi, konsultantga aylantiradi;

adaptiv-prognostik funksiya – педагогнинг ijtimoiy-siyosiy, madaniy, texnik, та’lim sohalarida doimiy ravishda ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlarga moslashishini та’minlash, олий та’лимдан keyingi педагогик та’limning ilg‘or tabiatи zarurligini dolzarblashtiradi, mutaxassisga o‘z kelajagiga ma’lum bir tarzda та’sir o‘tkazish imkoniyatini beradi;

rivojlantiruvchi-rag‘batlantiruvchi funksiya – bu педагог shaxsining, uning kasbiy-axloqiy va madaniy salohiyatining har томонлама uyg‘un rivojlanishini amalga

oshirish, uning узлуksiz kasbiy o‘sishining asosi bo‘lgan o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatini rag‘batlantirish;

diagnostik-tadqiqot funksiyasi eksperimental ishlarni tashkil etish, yangi педагогик texnologiyalardan foydalaniш samaradorligini tekshirish, tizimdagи kamchiliklarni va ularni hal qilishning samarali usullarini aniqlash;

tashkiliy funksiya – олий та’лимдан keyingi та’lim sohasining turli muassasalarida o‘qiydigan pedagoglarni tanlash, ularni o‘qitish uchun sharh-sharoitlarni та’minlash, uning muddati va shakllarini belgilash, tegishli malaka hujjatlarini taqdим etish uchun javobgarlik [4:87].

N.M. Voskresenskayaning ta’kidlashiga ko‘ra, bugungi kunda Buyuk Britaniya педагог kadrlarining узлуksiz педагогик та’limi xizmatlar bozori sezilarli darajada kengaydi: konsultatsiya byurolari, tadqiqot tashkilotlari, imtihon kengashlari, muzeylar, teatrlar, galereyalar, uyushmalarni qamrab oлган. Buyuk Britaniyada pedagoglarni узлуksiz o‘qitish uchun eng ilg‘or texnologiya masofaviy та’lim hisoblanadi. Ushbu mamlakatda masofaviy та’lim metodikasi kompyuter axborot manbalari, elektron kutubxonalar, video va audio kutubxonalar, darsliklar va boshqalarni o‘z ichiga oлган та’lim-axborot muhitini yaratishni nazarda tutadi. Bunday tizimning ajralmas qismi zamonaliviy telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan та’lim oluvchilar va o‘qituvchilardir. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyada pedagoglarning universitet- dan keyingi kasbiy shakllanishining uch fazali tizim alohida e’tiborga loyiqidir. Xususan, birinchi yil ishlaydigan педагог kadrlar uchun та’lim muassasasi yuklamani kamaytiradi va davlat томонидан ajratiladigan qo‘shimcha mablag‘larni taqdим etadi. Ishning ikkinchi yilda faoliyatni boshlagan педагог professional portfolioni qanday olib borishni o‘рганади va bir qator uslubiy va tashkiliy-pedagogik tadbirlarda qatnashadi. Agar педагог 2-3-yil ishlagan bo‘lsa, davlat томонидан ajratiladigan qo‘shimcha mablag‘lar miqdori ortadi. Kasbiy o‘sish va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning uchinchi bosqichi tajribali педагог unvonni bo‘lib, bunday unvonga ega педагог yangi ish boshlagan mutaxassislar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladigan, mahorat darslarini o‘tkazadigan, mahalliy та’limni boshqarish organlari ishida qatnashadigan, yangi o‘quv materiallarini ishlab chiqadigan va nashr etadigan mustaqil amaliyotchi hisoblanadi [5:93].

Xulosa. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini узлуksiz rivojlantirish hozirgi kun та’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi ularning individual ehtiyojlarini hisobga oлган holda rivojlantirishi zarur. Bu esa та’lim shakli, mazmuni va muddatida erkinlik beruvchi differentsial yondashuvni talab qiladi. Zamonaliviy педагогнинг kasbiy kompetentligi uning faqat nazariy tayyorgarligi emas, balki amaliy yechim topish qobiliyati, o‘ziga xos ijodkorlikka intilishi va yetuk axloqiy-ruhiy fazilatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish nafaqat та’lim sifati, balki jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida qaralishi kerak. Uzluksiz та’lim va yangi texnologiyalardan foydalaniш orqali pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatida samarali va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun ushbu jarayonga har томонлама ilmiy-uslubiy yondoshish zarur. Yuqoridaqи natijalar педагог kadrlarning узлуksiz kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan yangi yondashuvlarni shakllantirish va amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Бегимкулов У.Ш., Шоймардонов Т.Т., Адашбоев Ш.М. и др. Инновационная основа развития системы повышения квалификации педагогических кадров высших образовательных учреждений. // International Scientific Conference “Society, integration, education”: Материалы Международной научно-практической конференции. – Резенке, 2015. - С. 78- 90.

2. Исмадиев Я.У. Качество образования и компетенции. // Международная конференция «Педагогика сотрудничества в системе непрерывного образования». – Ташкент: 2016. - С. 64-65.

3. Печеркина А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика: Монография: Урал. гос. пед. ун-т. - Екатеринбург: 2011. -С. 233.
4. Djurayeva L.R. Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari. // Science and innovation. №10. 2023. 85-89-b.
5. Воскресенская Н.М. Великобритания: стратегические направления развития образования. // Педагогика. 2006. № 4. - С. 91-98.

REZYUME. Maqloda pedagoglarning kasbiy kompetentligini uzlusiz rivojlantirish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirish va takomillashtirishni ta'minlash borasida olimlarning qarashlari o'rganilan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются взгляды ученых на обеспечение повышения и совершенствования профессионального мастерства педагогов через постоянное развитие их профессиональной компетентности.

SUMMARY. The article examines the views of scientists on ensuring the improvement and perfection of teachers' professional skills through the continuous development of their professional competence.

BOLAJAQ FIZIKA OQÍTÍWSHÍLARÍNÍ METODIKALÍQ TAYARLÍGÍN

JETILISTIRIW FAKTORLARI

M.I.Isakova – tayanish doktorant

Ájinyiaz atundaǵı Nókis mámlekетlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: PISA xalqaro baholash dasturi, OTM ta'lím jarayoni, fizika, bo'lajak fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligi, keys-stady, innovatsiya, interaktiv o'qitish, tabiiy-ilmiy savodxonlik.

Ключевые слова: международная программа оценивания PISA, образовательный процесс ВУЗ, физика, методическая подготовка будущего учителя физики, keys-stady, инновация, интерактивное образование, естественнонаучная грамотность.

Key words: PISA international assessment program, educational process university, physics, methodological training of a future physics teacher, keys-stady, innovation, interactive education, natural-scientific literacy.

Kirisiw. Dúnya jámiyetiniń jedel rawajlanıwi bárshe tarawlarda innovacion jantasiwin talap etedi. Rawajlangan mámleketerde “tálim” turaqli rawajlanıwdı támiyinleytuğın tiykarǵı faktor sıpatında táriyplenip, xalıq aralıq shólkemler hám de dúnyaniń kóphsilik mámleketerleri tárepinen 2030-jılga shekem belgilengen jańa tálim konsepciyasında “bilim alıwshıldı ómirge tayarlaw, bilim beriw sıpatın bahalaw procesin hám quralların jetilistiriw, erisilgen nátiyjelerdi anıqlaw imkanın beriwshi mexanizmlerdi ámeliyatqa engiziw” aktual waziypa sıpatında belgilendi[1]. Bilim beriwdiń fundamental buwimi, ulıwma orta bilim beriw sıpatın bahalawǵa qaratılǵan xalıq aralıq izertlew bahalaw dástúrleri PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS belgilengen dáwirlilik tiykarında mámleketerdeń bilimlendiriwdegi jetiskenlikleriniń ózgeris dinamikasın gúzetiwi, mashqalalardı anıqlaw hám olardı joq etiw konsepciyaların islep shıǵıw imkámları beredi. Búgingi kún mektep oqıwshıllarınıń óz bilimlerin kerekli jaǵdaylarda qollanı, pánler shegarasınan shıǵıp pikirlew hám biytanıs jaǵdaylarda kreativ jantasaq halda mashqalalardıń ilimiý-ámeliy sheshimlerin tabıwǵa úyretiw, xabarlar aǵımı menen islew, kritikalıq pikirler, turaqli ráwıshe úyreniw hám rawajlanıw, óziniń jeke hám jámiyetlik qádiriyatlarının kelip shıǵıp, professional jolın hám turmıslıq kórsetpelerin tańılaw imkániyatına iye bolıwin támiyinlewi lazım. Joqaridaǵı talaplardıń bilimlendiriw sisteması ushin júdá áhmiyetli ekenligin, kóphsilik shet el mámleketerdegi sıyaqlı ilim-pán tarawları rawajlanıwin bahalaw hám monitoring qılıw tiykarında bilimlendiriw sıpatın asırıwǵa qaratılǵan eńaldi tájiriybelerdi tarawǵa engiziw kerekligin ańlatadı. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń “Xalıq bilimlendiriw sistemasında bilimlendiriw sıpatın bahalaw tarawındaǵı xalıq aralıq izertlewlerdi shólkemlestiriw shara-ilajları haqqında”ǵı 2018-jıl 8-dekabrdegi 997-sanlı qararına kóre, ulıwma bilim beriw mektep oqıwshıllarınıń ózlestiriw kórsetkisherlerin qadaǵalaw hám bahalawdı xalıq aralıq dástúrler tiykarında ámelge asırıw, bilimlendiriw sıpatın bahalaw boyinsha xalıq aralıq izertlewlerde qatnasiw waziypaları belgilendı hámde 2022-jilda PISA xalıq aralıq dástúrlerinde mámleketicimiz birinshi márte qatnasti [2]. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 29-apreldegi “Ózbekstan Respublikası Xalıq tálimi sistemasın 2030-jılga shekem rawajlandırıw konsepciyasın tastıyiqlaw haqqında”ǵı PP-5712-sanlı Pármanina kóre, 2030-jılga kelip PISA (Programme for International Student Assessment) Xalıq aralıq kólemde oqıwshılları bahalaw dástúri reytińgi boyinsha dúnyaniń birinshi 30 jetekshi mámleketi qatarına kiriwine erisiw waziypasi belgilep berildi [1].

Bul waziypalardıń orınlaniwında bolajaq oqitiwshılları tayarlawshı joqarı oqıw orınlarınıń tutqan ornı úlken. Joqarı

oqıw ornı sistemasin jetilistiriw, bilim beriw sistemasin jaqsılawdı támiyinlewe materiallıq faktorlar menen bir qatarda talabalardıń metodikalıq tayarlıgın rawajlandırıw dárejesi de úlken áhmiyetke iye. Joqarı blimlendirirw makemelerinde talabalardıń metodikalıq tayarlıgın jetilistiriw boyinsha tıjisli jantasiwlardi anıqlaw maqsetinde talabalarǵa tálim-tárbiya beriwde bir neshe dástúrlerdi analiz qılıp, usilar tiykarında házirgi kúnge shekem qollanılıp kiyatırǵan metodikalıq iskerliklerge ayriqsha toqtalıp ótemiz.

Bilimlendirirw sistemasin jaqsılaw hám nátiyeliligin asırıwda bolajaq oqitiwshılları oqıwshıllarıń intellektual rawajlanıwında metodikalıq tayarlıgın jetilistiriw máselesi úlken áhmiyetke iye. Oqıwshıllarıń intellektual rawajlanıwında bolsa xalıq aralıq bahalaw baǵdarlamalarınıń tutqan ornı júdá úlken bolıp esaplanadı. Búgingi künde innovacion xabar texnologiyaların tálim processine integratsiya qılıwǵa qızıǵıw artıp barmaqta. Tálim procesinde zamanagóy axborot texnologiyaların qollaw, oqıwshıllarǵa úyrenip atırǵan bilimlerin ózleri izlep tabıw, ózbetinshe orınlap úyreniw, juwmaq shıǵarıw hám analiz qılıw imkániyatların beredi.

Tema boyinsha ilimiý ádebiyatlardıń qısqasha analizi. Ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde fizikanı oqituwdıǵı eń áhmiyetli maqsetlerinen biri bul – oqıwshıllar fizikalıq bilimlerin jaqın keleshekte ámeliyattha qollawǵa itibardı qaratıw menen ólshenedi. Sol tiykarda, izertlewshi I.I.Vologinaniń orta bilim beriw mekteplerinde fizikanı oqitiwdeń zamanagóy texnologiyaları boyinsha izertlewinde orta mektepte fizika oqıtılw procesin shólkemlestiriw ózgeshelikleri, elektron tálim makemeleri kompleksinen paydalaniwdıń abzallıqları hám fizikanı oqitiwdeń oqıw texnologiyasına misallar keltirip ótilgen [3]. Fizik alım M.Djo'ravet tárepinen usinis etilgen “Fizika o'qitish metodikası” atlı oqıw qollanbadı joqarı oqıw orınlarında fizika pánın oqıtılw metodikasının ulıwmalıq máseleleri, onıń predmeti hám metodları, mazmuni hám waziyaları keń jaritilǵan. Sonıń menen birge, ulıwma fizika kursı boyinsha talabalardıń oqıw jumısların shólkemlestiriw, teoriyalıq hám metodikalıq tayarlıgın jetilistiriw máseleleri boyinsha tolıq bayan etilgen [4]. Pedagogika ilimleri doktorı G.E.Karlibaeva hám N.S.Matjanovlar tárepinen jazılǵan “Fizika hám astronomiya oqıtılw metodikası” atlı oqıw qollanbadı fizika hám astronomiya oqıtılw metodikası pánınıń maqsetti, waziyaları, pánınıń júzege keliw hám rawajlanıw tariyxı, fizikanı oqitiwdeń innovacyalyq usilları, fizikanıń basqa pánler menen óz ara baylanısı, fizikadan máseleler sheshiw usilları h.t.b.máseleler boyinsha maǵlıwmatlar bayan etilgen [5]. Bunnan basqa, G.E.Karlibaevanıń “Bo'lajak fizika o'qituvchilarining

metodik tayyorgarligini takomillashtirish” temasındaǵı ilimiý jumisında joqarı oqıw orınlarında bolajaq fizika oqitiwshılarıńı metodikalıq tayarlıǵın jetilistiriwdıń ilimiý-teoriyalıq tiykarları, didaktikalıq hám pedagogikalıq ózgeshelikleri hám bolajaq fizika oqitiwshılarıńı metodikalıq tayarlıǵın jetilisiriwdıń metodikası haqqında izertlewler alıp barılǵan [6].

Joqarida keltirilgen ilimiý-izertlewlerde bolajaq fizika oqitiwshılarıńı metodikalıq tayarlıǵınıń mazmuni, innovacion pedagogikalıq texnologiyalardıń áhmiyeti, kásiplik xızmetke tayarlawshi basqıshları fizika pánine sáykes ulıwmalastırılgan hám keñeytirilgen empirik túsinikler menen, metodikalıq tayarlıqtıń shólkemlesiriwshi pedagogikalıq processleri sistemesi komponentleri integraciyalasıw tiykarında jetilistirilgen. Biraq, izertlewde PISA xaliq aralıq baǵdarlamalar boyinsha bolajaq fizika oqitiwshılarıńı bilimlerin asırıwǵa, yaǵníy oqıw procesinde innovaciyalıq texnologiyalardı qollaw arqalı bilimlerin elede jetilitiriw haqqında maǵlıwmatlar keltirilmegen.

Izertlewdıń maqseti. bolajaq fizika oqitiwshılarıńı oqıw procesinde innovacion pedagogikalıq texnologiyalardı qollaw tiykarında xaliq aralıq baǵdarlamalar boyinsha bilimlerin asırıwdıń metodikalıq usinislарın islep shıǵıwdan ibarat.

Izertlewdıń obyekti. Bul jumistiń obyekti sıpatında fizika tálim baǵdarında bilim alıp atırǵan bolajaq fizika oqitiwshılarıńı oqıw procesi alıngan.

Izertlewdıń ilimiý jańalıǵı sıpatında bolajaq fizika oqitiwshılarıńı oqıw procesinde innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalardı qollaw tiykarında xaliq aralıq baǵdarlamalar boyinsha bilimlerin asırıw kózde tutılǵan.

Izertlew metodologiyası. Házirgi waqitta bolajaq fizika oqitiwshılarıńı metodikalıq tayarlıǵın jetilistiriwde, oqıw procesinde zamanagóy pedagogikalıq hám xabar-kommunikaciya texnologiyalarınan óz ornında paydalaniw menen bir qatarda xaliq aralıq bahalaw dástúrları menende úziksiz baylanıslı. Bul, ásirese, fizika pánin oqıtiv procesinde innovacion jantasiw sıpatında xaliq aralıq bahalaw dástúri tiykarında oqıtivwǵa tiykarlangan metodikaniń jańa forma hám qurallarınan paydalaniwda óz kórínisin tappaqta. Búgingi kún bolajaq fizika oqitiwshılarına tek ǵana tayyar bilimlerdi berip ǵana qalmay, olarǵa elektron-axborot resurslarının paydalaniwdı hám xaliq aralıq bahalaw baǵdarlamaları tiykarında oqıwshılar sawadxanlıǵın bahalawǵa úyretiw eń áhmiyetli máselerlerden esaplanadı.

Álbette, hár qanday oqıtiv procesiniń nátiyjesi, onıń qanday metodlar tiykarında rejelestiriliwine tikkeley baylanıslı. Sonnan kelip shıǵıp, sońğı jillarda joqarı pedagogikalıq bilimlendırıw tarawında oqıtiv procesinde mashqalalı oqıtivwǵa kóphsilik oqitwshılar unamlı pikir bildirmekte. Bul biykárǵa emes. Sebebi, sabaqtıń mashqalalı ótiiliwi, oqıwshı hám talabalardı túrlı dáliller jiyindisi menen ǵana qurallandırmastan, bálkım olardıń sanasın, pikirlewin, qábiletleriniń joqarı dárejede rawajlanıwın támıyinleydi.

Oqıw procesinde “mashqala” degen sóz, oqıwshı hám talabalargá tanıs bolmaǵan teoriyalıq hám ámeliy sorawlardıń qoylıwi menen ańlatıladi. Bunday máselerlerdiń sheshiliwi belgili algoritmge tuwı kelmeydi. Olardı sheshiw oqıwshı hám talabalardan jańa sheshiw jolların, bul proceste ózbetinshelikti hám ózgeshe jantasiwdı talap etedi. Sonıń ushın mashqalalı oqıtiv waqtında olardıń iskerligi hámme waqıt dóretiwhilik ruwxında boliwi kerek[4].

Mashqalalı oqıtiewdıń nátiyjeli texnologiyalarınan biri keys-stady metodi. Keys-stady metodınıń áhmiyeti sonnan ibarat, “bilim alıwshılarǵa real turmışlıq jadaylardı túsiniw usinís etiledi, onıń sıpatlaması bir waqtıń ózinde qandaydur ámeliy mashqalalardı sáwlelendiredi, bálkım bul

mashqalalı sheshiwde ózlestiriwi kerek bolǵan belgili bir bilimler toplamında aktuallastırıdı”. “Keys degende qandaydır obyekt yaki hádiye menen baylanısta bolǵan hám anıq pánler tarawındıǵı bilmlerdi qollaw hám payda bolatuǵın mashqalalı sheshiw jollarınıń zárlıǵı bolǵan anıq mashqalalı jaǵday sıpatlaması túsiniledi. Keystiń mazmuni tálimniń anıq zárlıǵine sáykes halda dúziledi” [7].

Keys metodi tálim alıwshıldıń analizlik hám bahalaw qábiletlerin rawajlandırıw, túrlı maǵlıwmat derekleri menen islew tájiriybesin ózlestiriwge járdem beredi. Sonida aytıp ótiw kerek, jaǵdaylardı analiz qılıw procesinde baylanıst tek ǵana oqitiwshı hám tıńlawshi ortasındaǵı xabar óz ara táśir menen shegaralanbaydı. Ol jaǵdaylardı analiz qılıwdı sezim hám aqly quramlıq bóleklerinde óz ishine aladı [8].

Analiz hám nátiyjeler. Dástúriy sabaq temáǵa kirisiw, aship beriw, túsindırıw, bekkemlew hám juwmaqlaw basqıshılarınan ibarat. Lekin, dástúriy klass bólmesinde oqitiwshı taxtanıń aldında turadı hám oqıwshılarǵa lekciyalar oqıydi. Biraq, bul oqıwshıldıń qızıǵıwın asırıwdıń nátiyjeli usılı emes. Házirgi dawirde bul usıl derlik nátiyje bermey qoydı.

Dástúriy emes yaǵníy interaktiv tálim ataması 2012-jılda keń kólemde tálim procesine kirgennen beri globallasıp barmaqta. Kóplegen oqitiwshılar bul strategiyadan paydalaniw atrı hám unamlı nátiyjelerge erispekte. Bul usılda oqıtılǵan klastaǵı oqıwshılar óz qábiletleri tezliginde islewleri mümkin hám óz teńlesleri menen klasta bolǵanında jánede interaktiv hám mazmunlı tárizde sabaqqa qatnasiwları mümkin.

Innovaciya (ing. Innovation – jańalıq kiriti; lat. Inovatis, in «ishinde», novus «jańa» - jańalaw, jańa, ózgerteriwr) – 1) anıq xızmet túrin jańalaw procesindegi jańa waqıya hám hádiyseler. 2) ilimiý izertlewler yáki oylap tabılıwlار nátiyjesinde jaratılǵan hám ámelde bar bolǵan analogdan ústın bolǵan obyekt túsiniledi.

Interaktiv oqıtiv – bul 1) dialoglıq oqıtiv bolıp, bul processte bilim beriwshi menen bilim alıwshıniń, bilim alıwshılar menen kompyuterdiń óz ara birge islesiwi shólkemlestiriledi; biliw xızmetin arnawlı shólkemlestirıw forması bolıp, bunda oqıw procesi sonday ótedi, bárshe oqıwshıldı biliw xızmetine iystermeleydi; 3) birge islesiwi hám dialog ornata alıw qábileti. Yaǵníy interaktiv tálim – bul birinshi náwbette dialoglı tálim bolıp esaplanadı [9].



Joqarida aytıp ótiłgen keys-stady metodına PISA xaliq aralıq bahalaw baǵdarlamasındaǵı tábiyyiý-ilimiý sawadxanlıqqa tiyisli bolǵan sorawlardan keltirip ótemiz.

1-tapsırma. Eki úy biykesi kir juwiwǵa tayarlıq kórdi. Birinshisi suwdı 60 °C qa shekem qızdırıdı hám kirdi jibitti. Ekinshisi suwdı 5 minut qaynattı, keyin 60 °C qa shekem suwtı hám sonnan keyin ǵana kir jiwiwdı basladı.

Soraw: Kim kirdi jaqsıraq juwiwi mümkin? Buni qanday ápiwayı tájiriybe menen dálillew hám túsindırıw kerek?

2-tapsırma. Dasturxanǵa kúngebaǵar mayı tógilip ketti. Daǵdı dárhal ketiriwge waqtıńız bolmadı. 10 kúnnen sóň dasturxandaǵı daǵ toq sari reńge aylandı. Onı benzin menen tazalaǵa urınıw nátiyjesiz boldı. Qońsıńız

dasturxandı Quyashqa bir neshe saat asıp qoyıwıñızdı másláhat etti. Haqiyqattanda dağlar jóǵaldi.

Soraw: Nege benzin dasturxandaǵı daǵdı ketirmedi? Ne ushin qońsıñızdıń másláhatı unamlı nátiyje berdi?

Kórinip turǵaninday bul sorawlarǵa juwap beriwde tek gána fizika pánindegi bilimlerdi emes ximıya, biologiya pánlerindegi túsiniklerdi yadqa túsiriwdi talap etpekte. Demek, bolajaq fizika oqıtıwshılarıń metodikalıq tayarlıǵı ústinde islew procesinde talabalarǵa tek gána ilimiý bilimler beriw menen sheklenip qalmastan, úyrenilip atırǵan predmetti başqa predmetler menen baylanıslı halda oqıtiw, úyrenilgen bilimlerdi ámeliý processte qollay alıw kónlikpe hám tájiriybelerinińde qáliplestirilip barılıwına ayriqsha áhmiyet beriw lazırm.

Tiykarınan, Sh.S.Abduraimov óz ilimiý jumıslarında sonday pikirlerdi keltiredi: "Integraciya, pánler aralıq baylanıś, óz ara baylanıś, úzliksizlik sıyaqlı túsinikler pedagogikada keń qollanılsa da, biraq kóplegen oqıtıwshılarıń olardı derlik birde túsinik dep oylayıd. Negizinde, bul terminler mánisi tárepinen bir-birinen parıq qıladi. Sońgi waqtılarda predmetler aralıq baylanıś hám integraciya múnásibetlerin analiz etiw barısında jańa kóz qaraslar kelip

Ádebiyatlar

- Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 29-apreldegi "Özbekstan Respublikası Xalıq tálimi sistemasiń 2030-jılga shekem rawajlandırıw konsepciyasın tastıyqlaw haqqında"ǵı PP-5712-sanlı Pármani.
- Ozbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń "Xalıq bilimlendirıw sistemasiń bahalaw tarawındaǵı xalıq aralıq izertlewerdi shólkemlestirıw shara-ilajları haqqında"ǵı 2018-jıl 8-dekabrdegi 997-sanlı qararı.
- Вологина И.И. Современные педагогические технологии обучения физике в средней школе // Приоритетные научные направления: от теории к практике. 2014. №9. (дата обращения 21.08.2023).
- Djóráyev M. "Fizika o'qitish metodikası" (Umumiý masalalar). –Toshkent: "Abu Matbuot-Konsalt" 2015.
- Karlibaeva G.E., Matjanov N.S. "Fizika hám astronomiya oqıtıw metodikası" oqıw qollanba. –Tashkent: "Fan va texnologiya" 2017.
- Karlibaeva G.E. "Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorlarligini takomillashtirish" ped.pán.dok... (DSc). ...diss. – Nókis: 2019.
- Turmanov Q.A. Keys dars samaradorligini oshirish uslubi sifatida. // "Tabiiy va anıq fanlarni o'qitishda innovacion yondashuvga asoslangan ta'lim" atamasındaǵı ilimiý-ámeliý konferenciya materialları. – Samarcand: 2018.
- Turmanov Q.A. "Malaka oshirish jarayonida informatika o'qituvchilarining testologik kompetenligini rivojlantirish texnologiyasi" fil.pán.dok... (Phd). ...diss. – Nókis: 2024.
- Musurmanova O. hám basqalar "Pedagogik atamalar lug'ati". – T.: "TURON-IQBOL", 2019.
- Abduraimov Sh.S. "Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya"/ Monografiya. – Toshkent: «Navro'z», 2014.

RÉZYUME. Bu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi bo'yicha bo'lajak fizika o'qituvchilarining bilimlarini oshirishga, ya'ni o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarnı qo'llash orqali ularning metodik tayyorlarligini takomillashtirish faktorlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлена информация о факторах улучшения знаний будущих учителей физики, то есть улучшения их методической подготовки за счет использования технологий в образовательном процессе по международной программе оценки PISA.

SUMMARY. This article provides information on the factors of improving the knowledge of future physics teachers, that is, improving their methodological training through the use of innovative technologies in the educational process according to the international assessment PISA.

TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G.A.Joldasova – assistant o'qituvchi

Nukus innovatsion instituti

Tayanch so'zlar: kreativlik, ijodiy faoliyat, amaliy kreativ fikrlash ko'nikkaları, xalqaro standartlar, kreativ sifatlar.

Ключевые слова: креативность, творческая деятельность, практические навыки креативного мышления, международные стандарты, творческие качества.

Key words: creativity, creative activity, practical skills of creative thinking, international standards, creative qualities.

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvı jarayonlarında bo'lajak o'qituvchilarining kasbga tayyorlarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini sifat darajasını oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oly ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarını zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi [1]. Bugungi kunda jahonda ta'limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlan-

shiǵıp atır. Pedagog kadrlardi tayarlaw hám pánler integraciyasın ámelge asırıwda ulıwma kásiplik hám qániligkeit pánler blokinan orın alǵan pánlerdiń úlesi ayriqsha áhmiyetke iye. Bolajaq oqıtıwshılarıń pánler integraciyası boyınsha ózlestiretuǵın teoriyalıq bilimlerin, pánler aralıq baylanısların ámelge asırıw kónlikpelerin usı pánlerdi úyreniw procesinde iyelep baradı" [10].

Juwmaq.

Bolajaq fizika oqıtıwshılarıń hár bir sabaq procesi ushin aldın ala tayaranıp, yaǵní waqtın duris bólistirip joybarlap bariwi, metodikalıq tayarlıǵıń jetilistiriwde úyrenilip atırǵan predmetti başqa predmetler menen baylanıslı halda oqıtiw, úyrenilgen bilimlerdi ámeliý proceste qollay alıw kónlikpe hám tájiriybelerinińde qáliplestirilip barılıwına ayriqsha áhmiyet beriw;

- tek gána tayyar bilimlerdi berip gána qalmay, olarǵa elektron-aborot resurslarının paydalaniwdı hám xalıq aralıq bahalaw baǵdarlamalari tiykarında oqıwshıları sawadxanlıǵıń bahalawǵa úyretiw;

- oqıw procesinde jańa pedagogikalıq texnologiyalardan paydalaniwǵa úyretiw sabaq nátiyjetliginiń tiykargı faktorlarından biri bolip esaplanadı.

Ádebiyatlar

"Özbekstan Respublikası Xalıq tálimi sistemasiń 2030-jılga shekem rawajlandırıw konsepciyasın tastıyqlaw haqqında"ǵı PP-5712-sanlı Pármani.

Ozbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń "Xalıq bilimlendirıw sistemasiń bahalaw tarawındaǵı xalıq aralıq izertlewerdi shólkemlestirıw shara-ilajları haqqında"ǵı 2018-jıl 8-dekabrdegi 997-sanlı qararı.

3. Вологина И.И. Современные педагогические технологии обучения физике в средней школе // Приоритетные научные направления: от теории к практике. 2014. №9. (дата обращения 21.08.2023).

4. Djóráyev M. "Fizika o'qitish metodikası" (Umumiý masalalar). –Toshkent: "Abu Matbuot-Konsalt" 2015.

5. Karlibaeva G.E., Matjanov N.S. "Fizika hám astronomiya oqıtıw metodikası" oqıw qollanba. –Tashkent: "Fan va texnologiya" 2017.

6. Karlibaeva G.E. "Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorlarligini takomillashtirish" ped.pán.dok... (DSc). ...diss. – Nókis: 2019.

7. Turmanov Q.A. Keys dars samaradorligini oshirish uslubi sifatida. // "Tabiiy va anıq fanlarni o'qitishda innovacion yondashuvga asoslangan ta'lim" atamasındaǵı ilimiý-ámeliý konferenciya materialları. – Samarcand: 2018.

8. Turmanov Q.A. "Malaka oshirish jarayonida informatika o'qituvchilarining testologik kompetenligini rivojlantirish texnologiyasi" fil.pán.dok... (Phd). ...diss. – Nókis: 2024.

9. Musurmanova O. hám basqalar "Pedagogik atamalar lug'ati". – T.: "TURON-IQBOL", 2019.

10. Abduraimov Sh.S. "Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya"/ Monografiya. – Toshkent: «Navro'z», 2014.

tirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oly ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalişlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Pedagog olimlardan O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagı o'ziga xos jihatlar, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsnıg faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lrim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko'rish mumkin [2]. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Patti Drapeau "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashningizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganiningiz yoki bo'lganiningizda emas, balki darslarni kreativlik ruhidagi tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir", - deb ta'kidlaydi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalarni majmui" sanaladi.

Talaba shaxsining mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra tizimli ijodiy jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-itstisodiy shart-sharoitlar samda inson ontogenezi - tuzilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzlusizlik, vorisilikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Kreativlik (lot., ing. «create» - yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi xamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy maxsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, xayotiy muxim va kasbiy shartlangan xodisalarga bog'liq. Zamonusiy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lish uning shaxsiy qobiliyatlar, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lrim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan talabalardan kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv va tarbiya jarayonlarida an'anaviy yondashishdan fargli yangi g'oyalarni xaqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Odatta pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni xal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy xamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalardan e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsija etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish [3].

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustakashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lrim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsija qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi. **Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir:**

1. Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajaa ekanligiga bog'liq bo'ladi.

2. Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti. Ko'z oldingizga ta'lrim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o'ziga xos va qiziqarli tarzda jo'shqinlik, zavqu shavq bilan tashkil etayotgan o'qituvchini keltiring [4].

U, garchi, o'zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasda, biroq, kreativlikni namoyon etuvchi ta'lrim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo'llayotganligidan o'zi ham mamnun, qolaversa, talabalarning minnatdor bo'lishlariga erishmoqda. O'qituvchi ta'lrim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlari nisbatan ishonchi shuncha ortadi. Pedagoglar tomonidan kreativlik sifat va ko'nikmalarining o'zlashtirilishida fan sifatida "Kreativ pedagogika" muhim o'rin tutadi. Har qanday fan kabi "Kreativ pedagogika" o'quv predmeti ham aniq maqsadni ko'zlaydi.

"Kreativ pedagogika" fanining maqsadi shaxsni kreativ o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat "Kreativ pedagogika" muayyan vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

➤ ta'lrim mazmuni, o'quv rejalarini va dasturlarini saralash;

➤ o'quv moduli (fani) ni o'qitishning taktika va strategiyalarini belgilash;

➤ mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;

➤ ta'lrim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;

➤ kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish.

Ma'lumki, har bir fan o'zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo'ladi. "Kreativ pedagogika" ham o'z obyekti va predmetiga ega.

Ular: **Obyekti** – Barcha yosh bosqichlaria kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni

Predmeti – Kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, yetakchi g'oyalari, muhim yo'naliшlari, asosiy bosqichlari va b.

Oliy ta'lrim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- oliy ta'lrim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- oliy ta'lrim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lrim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish [5].

Kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va asosiy kategoriyalari. Har qanday fan singari "Kreativ pedagogika" fani ham o'zining tarkibiy tuzilmasiga ega. **Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:**

- kreativ ta'lim asoslari: maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, subyektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari;
- malakali karlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsn shakllantirish bosqichlari.

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konceptsual holatlarni ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida o'chib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyatni va uning natijasi. Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs. Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandard usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs. Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarni yarata oladigan shaxs. Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.

Kasbiy-ijodiy imkoniyat

- kasbiy kompetentsiya, malakaga egalik;

Adabiyotlar

muhit xulq-atvorini qo'zg'atuvchi ba'zi kuchlar qanchalik chuqur ekanligini ko'rsatadi va bizni uni qanchalik o'zgartirish mumkinligi hamda o'zgarishi kerakligi to'g'risida real qarashga majbur qiladi" deb tashvishlanadi [3:322]. Bu borada ko'plab xorijlik olimlarning qarashlari mavjud bo'lib, xususan, ekologik ta'lifning mazmuni va mohiyati, tuzilishi C.S.Haugen, atrof-muhit muhofazasining o'ziga xos jihatlari Hsing Yun, sayyoramizda hayot kurtaklari va uning davomiyligi Bastedo Jamie Shield, Bioregionalizm, madaniyat va ekologiya sohasiga oid global muammolar Brennan Andrew, kontseptual ekologik tadqiqotlar metodologiyasi masalalari R.Harding, tabiiy-ilmiy bilimlar integratsiyasi D.Coste va J.Trimilar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boradigan ekopedagogik faoliyati bo'lib, uni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirishda shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda, hosil bo'lgan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Kulturologik-madaniy yondashuv biz tomonimizdan o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashxis ikki xil yondoshuv asosida qaralishi kerak. Birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta'sir ko'rsa-tishini baholash. Ikkinchidan, o'quvchi tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o'zgarishiga ta'sir etishini aniqlash.

Motivatsiyali komponentni ishlab chiqishda birinchi navbatda biz o'quvchi shaxsida "xavfsizlik" tushunchasini anglashga nisbattan ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish muhim deb topid. Mazkur komponent o'quvchi faoliyatini rejalashtirish, qunt bilan o'qish, ehtiyoj, qiziqi'uvchanlik va shaxsiy munosabatlar, bilim sifatini oshirishda mustaqil o'qish, qadriyatlar va shaxsiy qarashlarni o'z ichiga olib jamiyat va tabiat o'rtafigi munosabatlarda shakllangan e'tiqodga asoslangan mas'uliyat, burch, vijdonlik, zo'ravonlik qilmaslik, tabiatning yaxlitligini saqlash, har birimizni tabiatning ajralmas qismi ekanligimizni his qilish, xavf-xatarlardan himoya qilish, atrof-muhitdagi tahdidlardan himoyalanish, hayotga muhabbat, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrash kabi e'tiqodlarni tarbiyalashga asoslanadi.

Kognitiv (kompetentlikka asoslangan) komponent o'quvchining ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlarini anglash, qo'llash va mulohaza yuritish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bilishga oid kognitiv sohada o'quvchi o'quv materialini tushunish, yodga olish, xotirlash, tasvirlash hamda hayot bilan bog'lab amaliga misollar keltirish ko'nikmalari o'stiriladi. Qo'llashga oid kognitiv sohada o'quvchilar o'quv materialini taqqoslaydi, tasniflaydi, bog'liqlikni aniqlashtiradi, ma'lumotni talqin qiladi, izohlaydi, tabiiy modellardan samarali foydalanadi. Mulohaza yuritishga oid kognitiv sohada o'quv materialini tahlil qilish, sintezlash, muammoli savollar qo'yish, g'oya va farazlarni ilgari surish, baholash, asoslash, xuloslash, bashoratlash, umumlashtirish, kichik tadqiqotchilik va loyihalash malaka va kompetentsiyalari shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar

uchun xavfsiz muhit va yashash sharoitlari mayjudligini ilmiy bilish, favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganishadi.

Modelning kognitiv komponenti uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Biz ekologik xavfsizlik madaniyatining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatdik: aksiologik, kulturologik (madaniy), vaziyat bilan bog'liq muammoli, faoliyatga asoslangan [6]. Mazkur uslubiy yondashuvlarga mos tarzda ekopedagogik ta'lif maqsadi aniqlandi hamda o'quvchi shaxsining ekopedagogik faoliyatidan kelib chiqib aniq vazifalar belgilandi.

Ekologik madaniyat kulturologik (madaniy) yondashuvga ustuvorlik berish asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuvda o'quvchilarini tahliliy faoliyatga undovchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, ekopedagogik muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli vaziyatlar yechimini topish hamda ularni hal qilish jarayonida o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikma va malakalarni, asosiy hayotiy kompetentsiyalarni egallashi uchun qulay vaziyatlar vujudga keldi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv tajriba-sinov jarayonida tashkil etilgan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda yuzaga kelgan o'qitish muammolarini tahlil qilish va bartaraf etishga yo'naltirildi. O'quvchilarida ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan o'quv faoliyatiga yuqori darajada qiziqishni shakllantirish, o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar rivojlantirildi.

Kognitiv komponent xavfsiz ekotizimlar, asosan, atrof-muhit holatini tahlil qilish, ularni tartibga solish mexanizmlari, ekologik xavfsizlik muammolarini ilmiy asoslash bo'yicha didaktik materiallar orqali ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'quvchilarning mehnat natijalaridan qoniqish, yon-atrofdagilarga hamdardlik, atrof-muhit muhofazasini saqlash va tiklash bo'yicha ijodiy ekologik loyiylarda faol ishtirot etish istagi, hamda ekologik madaniyatni tarbijalash mazkur mezonnинг asosiy ko'rsatgichidir. Ushbu mezonning g'oyasi fanlararo o'quv dasturlari asosida o'quvchilarning ekologik bilimlarni izchil va har tomonlama egallashiga qaratilgan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq xavfsizlik madaniyatini o'quv jarayonida aks ettirish, o'quvchilarida xavfsiz ekologik ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishning muhim jihat - tabiat bilan uyg'unlikda yashash, mavjud ekologik sharoitlarni e'zozlash, tabiiy muhitni muhofaza qilish, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalarini o'rganish, sog'lom ekologik xulq-atvor madaniyat "Xavfsiz sog'lom ko'nikmalar" tashnis materialini o'zlashtirish orqali tahlil qilindi.

Amaliy-faoliyatli komponent asosida o'quvchida sog'lom turmush tarziga amal qilish, kundalik tartib, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiena, sog'lom ovqatlanish, zararli odatlarni tark etish kabi fazilatlar va sifatlarning namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Mazkur mezon bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi o'zining bilim darajasini anglagan holda o'z-o'zini baholay oladi, rivojlantiradi, nazorat qiladi, yo'naltiradi. Bu jarayon o'quvchini tabaqaga ajratmaydi, balki o'z bilim darajasini anglashga ko'maklashadi. O'quvchi o'zining kundalik faoliyati davomida sog'lom va xavfsiz ovqatlanish qoidalariiga rioya qilishi va sog'lom turmush tarzi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Bugun har birimiz nafas olayotgan havo, ichayotgan suv, atrof-muhit musaffoligi dunyodagi har bir tirik mavjudotning sog'lom turmush tarzi va yashashiga bog'liq.

Amaliy-faoliyatli komponent asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida amaliy kompetentsiyalar shakllantiriladi. O'quvchi shaxsiy gigienaga rioya qiladi, sog'lom turmush tarziga mos hayot-faoliyatga moslashadi, to'g'ri ovqatlanish, zilzila ro'y berganda to'g'ri harakatlanish qoidalarni amalda ko'rsatadi, o'z yashash joyidagi ob-havoni kuzatadi va undagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot to'playdi va xulosa qiladi, turli jihozlar (qog'oz va plastik idish) yordamida tovushlarni uzatishni, moddani fizik usulda o'zgartirish va buyumlarning elektralanishiga doir tajribalar o'tkazadi. Natijada o'quvchi tomonidan ekologik mazmundagi mavzularni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

Qayd qilingan mazkur mezon o'quvchining madaniy qiyofasini ekologik tavsifdagi ong va idrok oqimi vositasida o'z xulq-atvorini nazorat qilish, boshqarish, tarbiyalash, rivojlantirish darajasigacha yetkazadi. Mazkur mezon o'quvchining ekologik bilimlarni egallashdagi tashabbuskorligi, atrof-muhitni asrab-avaylashi, o'qishga qiziqishi, aql-zakovoti, ijodkorligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Bizningcha, hozirgi kunda yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish to'g'ri yo'lg'a qo'yilmaganligi tufayli, favqulodda sodir bo'layotgan ekologik hodisalarga insoniyatni qanday yo'l tutishni bilmaslik evaziga, atrof-muhit ekologiyasidaga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga tegishli xulosalar chiqarishga chorlovchi omillarda ikkilanamiz. Ular odamlarni sergaklantirishi zarur. Buning uchun boshlang'ich sinfda o'quvchilarga ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga oid tushunchalarini tarkib toptirish va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabat masalasi insoniyat hayotining ajralmas bir qismi sifatida azaldan xalqimiz turmush tarziga chuqur singib ketgan.

Adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmoni. -Toshkent: 2019-yil 30 oktyabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. [PF-4947-son 07.02.2017. \(lex.uz\)](#)
- Prezident Shavkat Mirzivoev raisligida chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni vaxshilash. «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2022 yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi nutqi. / "Xalq so'zi". 3-fevral 2022-vil № 25 (8087)
- Stewart, Frances 2004. "Development and Security", Centre for Research on Inequality, Human Security, and Ethnicity (CRISE), Working Paper 3, London: University of Oxford.
- Pezzey John. Sustainability: An Interdisciplinary Guide Environmental The White Horse Press, Cambridge, UK. Values 1.1992: - Pp.321-62.
- Muxtarova L.A. Boshlang'ich ta'lilda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asoslari // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси ilmiy-nazariy jurnalı. 2021, № 12. 657-662-b.

REZYUME. Mazkur maqolada xavfsizlik mezonlari asosida ekologik madaniyat samaradorligini tadqiq qilishga nazariy jihatdan yondashish asoslab berilgan. Xususan, har bir o'quvchida ekologik xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishning zamонавиy tendentsiyalarini ishlab chiqish, ekologik xavfsizligini ta'minlash usul-vositalarini aniqlash va ularni takomillashtirish bilan bog'liq masalalarga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Zamонавиy ekologik ta'liming yetakchi vazifasi sifatida shaxsni ekologik fikrlashga o'rgatish tizimini yaratish va o'quvchilarga ekopedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari tadqiqot iaravonida aniqlangan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье обоснован теоретический подход к изучению эффективности экологической культуры на основе критериев безопасности. В частности, изложены мнения по вопросам, связанным с развитием современных тенденций повышения культуры экологической безопасности у каждого школьника, выявлением методов обеспечения экологической безопасности и их совершенствованием. В качестве ведущей задачи современного экологического образования в процессе

исследования были определены компоненты, критерии и показатели создания системы обучения детей экологическому мышлению и создания эколого-педагогического воздействия на учащихся.

SUMMARY. This article substantiates a theoretical approach to studying the effectiveness of environmental culture based on safety criteria. In particular, opinions are presented on issues related to the development of modern trends in increasing the culture of environmental safety in every schoolchild, identifying methods for ensuring environmental safety and their improvement. As the leading task of modern environmental education, the research process identified the components, criteria and indicators for creating a system for teaching children environmental thinking and creating an environmental and pedagogical impact on students.

PEDAGOGIKA FANINING TA'LIM MAZMUNI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Sh.N.Mustafayev – pedagogika fanlari doktori

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: modernizatsiya, pedagogik amaliyat, pedagogik mahorat, pedagogik muhandislik, pedagogik texnologiya, pedagogik qonuniyatlar, bilim, ko'nikma, qobiliyat, kompetentsiya, pedotsentrik, sotsotsentrik, ta'lif turi, ta'lif ma'nosi.

Ключевые слова: модернизация, педагогическая практика, педагогическое мастерство, педагогическое проектирование, педагогическая технология, педагогические закономерности, знания, навыки, способности, компетенции, педоцентрический, социоцентрический, вид образования, смысл образования.

Key words: modernization, pedagogical practice, pedagogical skills, pedagogical engineering, pedagogical technology, pedagogical principles, knowledge, skill, ability, competence, pedocentric, sociocentric, type of education, meaning of education.

Kirish. Bugun jahonda ro'y berayotgan shiddatli globallashuv jarayonida aynan pedagogika fanining ahamiyati juda oshib bormoqda. Globallashuv, modernizatsiya bugungi hayotimizga yangi tushunchalarni, texnologiyalarni olib kirish bilan birgalikda jarayonlar yangilanib, keskin zamonaviylashuv davom etmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, ushbu sohadagi bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzuksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi [1].

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rmini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobjiy amaliyotni 2023/2024 o'quv yildidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri mакtablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi [2].

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzlusiz ta'lim olishiga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Ta'lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor berish va ushbu sohada ishslashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirishib borish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosini yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash darkor.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrarni

tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarni tizimli rivojlanishiga va ularda boshqaruva faoliyatini takomillashtirish, ularning ta'lim dasturlarini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashxis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilliklarini aniqlash bo'yicha zamonaviy usullarini joriy qilish hamda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi [3].

Asosiy qism. Davlatning ertangi kuni yoshlarning qaydarajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlanishirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganidek; "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq."

Inson – ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo'lgan moddiy mavjudot hisoblanadi. Pedagogika ilmi insonni tarbiyalash, shakllantirish ilmidir. Pedagog esa insonni, jamiyatni, davlatni taqdirini hal qiluvchi shaxsdir. Insonning ta'lim va tarbiyalanganligi darajasi qanday bo'lsa, jamiyat ham shunga xos bo'ladi. Bugungi kunda pedagog-o'qituvchi, talaba-o'quvchi pedagogikaning nima uchun kerakligini tushunishi, o'zlashtirib olishi va amaliyotda qo'llay olishi lozim.

Bugungi kunda hatto ba'zi aniq fanlar olimlari o'rtasida pedagogikaga ilm-fan sifatida qarash kerak emas chunki qat'iy belgilangan qonuniyatlar, formula va teoremlar bo'lmasa qanday ilm bo'lishi mumkin degan qarashlar paydo bo'lmoqda. Bu qarashlar umuman noto'g'ri. Pedagogika bu ilm. Pedagogikaning beshta asosiy qo'llanishi bor. Bular; pedagogika amaliyot sifatida, pedagogika san'at sifatida, pedagogika muhandislik sifatida, pedagogika ilm sifatida, pedagogika fan sifatida deb e'tirof etish mumkin [4]

Pedagogik amaliyotda ta'lim va tarbiya bilan hayotda barcha insonlar shug'ullanadi. Lekin pedagogik mahoratga ega bo'lish hamma uchun emas. Pedagogik sistemalar, texnologiya pedagogik muhandislikka kiradi. Insonning shakllanishi, pedagogik qonuniyatlar bilan pedagogika ilmi shug'ullanadi. Pedagogika fanida biz asosiy qoidalar va ularni qo'llay olishni o'rganamiz. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'tishdan maqsad talabalarda hayotga professional pedagogik qarashlarni

shakllantirish zarur. Pedagogik muloqot davomida kuzatishni, aniq faktlarga tayanishni, tahlil qilish va zarur bo'lganda qanday metodlar bilan yondoshishni bilishi lozim. Taniqli pedagoglar tomonidan yaratilgan tizimlar, texnologiyalardan, na'munalarni o'rganishi maqsadga muvofiq.

Talabaning bugungi kundagi vazifasi pedagogikaning nima ekanligi va nima uchun kerakligini tushunish va o'zlashtirish, uni amaliyotda qo'llay bilish, oliv ta'lim o'qituvchisining vazifasi – o'quvchiga malakaviy ko'nikmalarni berish uchun o'quv jarayonini tashkil etish, talabalariga rejalashtirgan maqsadlariga erishish uchun faoliyatini tashkillashtirishda yordam berishdir.

Ta'lim yoki tarbiya maqsadida boshqalar bilan muloqot qiladigan deyarli har bir kishi pedagogik amaliyot bilan shug'ullanadi. Pedagogik mahorat san'ati hammaga ham yetarli darajada berilavermaydi, u faqat ustoz-o'qituvchilardagina mavjud. Pedagogik muhandislik pedagogik tizimlar, texnologiyalar, masalan, Aristotel tizimi, Suqrot usuli va shu kabilar bilan ifodalanadi. Pedagogika fan sifatida inson tarbiyasining mohiyatini o'rganish, uning qonuniyatlarni aniqlash, konseptual asosni yaratish bilan shug'ullanadi. O'quv fani sifatida biz pedagogikaning asosiy tamoyillarini o'zlashtiramiz, uning vositalarini qanday qo'llashni o'rganamiz.

"Pedagogika" yo'nalihsida ta'lim olayotgan talabalar nimalarini bilishi amaliyotda qo'llay olishi lozim;

Birinchidan, atrof-muhitdag'i hayotga kasbiy-pedagogik nazar bilan qarashni shakllantirish. Aytaylik, avvallari siz onaning bolasi bilan shug'ullanayotganini shunchaki kuzatgan yoki o'smirlar to'dasi o'zaro qanday gaplashayotganlarini eshitgan bo'lsangiz endi siz vaziyatni to'g'ri mulohaza qilib, kerak bo'lsa o'z harakat usulningizni qo'llashingiz mumkin.

Ikkinchidan, mahalliy, xorijiy buyuk pedagog allomalar tomonidan yaratilgan nazariya, texnologiya, tizimlarning pedagogik namunalarni o'rganish. Buning uchun biror-bir pedagogik tizim tarafdori bo'lish shart emas, lekin o'z kasbiy mahorat bilan boyitish uchun dars yoki tadbirni o'rganiyotgan tizimlar bo'yicha ishlab chiqish kerak.

Uchinchidan, shaxsiy pedagogik mahsulotlarni ishlab chiqish, ya'ni: tushunchalarning ta'riflari, tarbiya usullarining tasnifi, ta'lim vaziyatlari va ularning yechimlari, dars konspekti, o'quv dasturlari, yaratilgan ishlanmalar amalda - haqiqiy o'qituvchilik amaliyotida yoki universitet seminarlarida tinglanib xulosalar olinsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagogik hodisa, voqe'a, vaziyat ham pedagogik mahsulot hisoblanadi. Pedagogik mahsulotlarni yaratish pedagogning asosiy ta'lim faoliyatidir. Sanab o'tilgan yo'nalihslar bilan boshqa sohalar ham bog'liq: ilmiy tadqiqot faoliyati - uning natijalari talabalarning diplom loyihibariga kiritilishi ham mumkin.

Bundan tashqari talabaning o'z ustida ishlashi, salohiyati, o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik kompetensiyaga ega bo'lislilikni shakllantiradi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nimani anglatadi? Bu shuni anglatadiki, pedagogika fanini o'rganishning asosiy natijasi paragraflarni yodlash va takrorlash emas, balki o'z qobiliyatlarini, birinchi navbatda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish bo'lishi kerak.

Ta'lim mazmuni ikki omillarga bo'linadi. Birinchisi tashqi omillar; darsliklar, ta'lim muhiti, butun dunyo va hk. Ikkinchisi ichki omillar o'quvchining ichida mavjud bo'lgan narsa-uning shaxsiy fazilatlari: bilim, ko'nikma, qobiliyat, kompetensiya va boshqalarga bo'linadi.

Shu yo'sinda biz umummadaniy vakolatlar, pedagogik vakolatlar va malakalarni ajratdik, ular ham ikki inson olamining tashkil etuvchilari sifatida ishlaydi - tashqi va ichki.

Kompetensiya-bu talabaning ma'lum bir sohadagi samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan o'quv tayyorgarligi

uchun meyoriy talab.

Malaka – bu ma'lum bir obyektga nisbatan samarali faoliyatni amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo'lgan o'quvchining shaxsiy fazilatlari to'plami. Shuningdek, kompetensiya - bu tashqi dunyoning normasi. Aksincha, malaka-bu talabaning tegishli kompetensiyaga ega bo'lishi, bu moslashgan shaxsiy sifatdir deyishimiz ham mumkin.

Umummadaniy vakolatlar va pedagogik vakolatlar

umummadaniy vakolatlar:	pedagogik vakolatlar:
solishtirish	kuzatish
tahlil qilish	farqlamoq
tizimlashtirish	tuzish
bahslashish	bilish va qo'llash
tushuntiring	tayyorlash
modellashtirish	foydanish
loyihalashtirish	ishtirok etish
namoyish etish	amalga oshirish
hisobga olish	tashkil qilish
tanlash	egalik qilish
	maslahat berish

Shunday qilib ta'lim pedagogikaning asosiy hodisisi va tushunchasidir. Albatta, gap inson tarbiysi haqida ketyapdi. "Ta'lim", "ta'lim turi", "Ta'limning ma'nosi" tushunchalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Ta'lim" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Insonni o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmi mavjud bo'lgan "Noma'lum o'simlik urug'i" sifatidagi tushunchaga muvofiq, ta'limni ham jarayon, ham shakllangan narsaning natijasi sifatida tushunilishi kerak. Demak, tegishli ta'rif quyidagicha: ta'lim-bu jarayon va inson tomonidan doimiy ravishda yaratilayotgan uning shakllanishi natijasidir degan xulosa kelib chiqadi. Shakllanish deganda biz shaxsnинг rivojlanishi, o'zgarib borishi va o'sishi, shaxsnинг potensial imkoniyatlaridan ularning mazmunining turli jihatlarining amalda namoyon bo'lishiga o'tish jarayonini tushunamiz.

Yuqoridaq ta'rifda ta'limning muhim xususiyatlari sifatida o'quv jarayonining protsessual, mahsuldarligi va ichki kelib chiqishi ta'kidlangan. Ta'lim jarayonining tashqi tarkibiy qismi atrof-muhit xarakteriga ega, deb taxmin qilinadi, u bilan inson o'zaro ta'siri faoliyatning texnologik doirasidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Ta'limning bir yoki bir xil turi yo'qligini ta'kidlash uchun bizga "Ta'lim turi" tushunchasi kerak. Shaxsga yoki fanga yo'naltirilgan ta'lim, dunyoviy yoki diniy, madaniy yoki evristik ta'limlar-bularning barchasi har xil ta'lim turlari bo'lib, ularning har biri o'z maqsadlari, mazmuni, vositalari, natijalarni nazorat qilish va baholash tizimiga ega va bundan ham muhimi, har bir ta'lim turi o'ziga xos qonuniyatlari, tamoyillar, konseptual apparatlar, ta'lim mazmunini loyihalash tizimlari, natijalarni nazorat qilish va baholash va boshqa uslubiy asoslarga ega. Masalan, ma'lum bir ta'lim turining o'ziga xos xususiyati o'quvchining vazifasini va o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining ma'nosini, ya'ni o'qituvchi talabalarga nima uchun o'rgatishini belgilaydigan asosiy mafkuraviy tamoyillardir.

Ta'lim turi-bu o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'ziga xos dunyoqarashi asoslarini va subyekt-obyekt munosabatlari bilan tavsiflanadigan ta'lim tizimidir.

Ta'limning har xil turlarining mayjudligi har bir turga o'ziga xos pedagogik nazariya kerakligini tushunishga olib keladi. Shuning uchun pedagogikada yagona nazariya mavjud emas va bo'lishi ham mumkin emas. Ushbu xulosa pedagogikaning fan sifatida nazariy asoslarini tushunish uchun juda muhimdir.

Ta'limning har xil turlarini aniqlash va tasniflash pedagogikaning dolzarb vazifasi bo'lib, u hali yechimga muhtoj. Ta'lim tipologiyalarini yaratish uchun turli parametrlardan foydalanish mumkin: diniy, ijtimoiy va shaxsiy.

Har bir ta'lim turining xususiyatlariga kamida quyidagilar kiradi:

-dastlabki falsafiy pozitsiyalar inson nima, dunyo nima, insonning o'ziga, insoniyatga, madaniyatga, fanlarga, atrofdagi dunyoga va boshqalarga nisbatan inson ta'lim

-psixologik pozitsiyalar-shaxs tushunchasi, o'rganish va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik

-subyekt-obyekt munosabatlarini belgilovchi pedagogik pozitsiyalar pedotsentrik (o'qituvchining yetakchi roli), bolalarga yo'naltirilgan (bolaning yetakchi roli), sotsiotsentrlik (jamiatning yetakchi roli).

Ta'limning har bir turi ta'limning o'ziga xos ma'nosiga ega, ya'ni nima sababdan va nima uchun sodir bo'lishini tushunish. Masalan, ta'limning mazmuni sifatida:

Adabiyyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ma'muriy islohotlari doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'RQ-957-son

2. Tulyakov E."Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish – ustuvor vazifa. <https://strategy.uz/index.php?news=1725> . 2023.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-54-son

4. Хугорской А.В. Педагогика. Darslik. –Питер: 2019.

5. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. –Toshkent: 2023.

REZYUME. Ushbu ilmiy maqolada Pedagogikaning ilm sifatidagi beshta asosiy qo'llanilishi, pedagogik amaliyotdagi ta'lim va tarbiya, pedagogik mahoratga ega bo'lish, pedagogik sistemalar, pedagogik muhandislik, pedagogik qonuniyatlar pedagogika fanidagi asosiy qoidalari va ularni qo'llay olish, talabalarda hayotga professional pedagogik qarashlarni shakllantirish, ta'lim turi, ta'limning o'ziga xos ma'nolari, konseptual apparatlari, tamoyillari, qonuniyatlar va texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В научной статье обсуждаются пять основных применений педагогики как науки, включая обучение и воспитание в педагогической практике, овладение педагогическим мастерством, педагогические системы, технологии, педагогическое проектирование, педагогические закономерности, основные правила педагогики как науки и их применение, формирование у студентов профессиональных педагогических взглядов на жизнь, виды обучения, уникальные значения образования, концептуальный аппарат, принципы, закономерности и технологии образования.

SUMMARY. In this scientific article, five main applications of pedagogy as a science are discussed, including education and upbringing in pedagogical practice, acquiring pedagogical skills, pedagogical systems, technology, pedagogical engineering, pedagogical principles, the main rules of pedagogy as a science and their application, forming professional pedagogical views on life among students, types of education, the unique meanings of education, conceptual apparatus, principles, laws, and technologies of education.

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛҚЫНЫң БАТЫРЛАРЫ МИНГЕН ТУЛПАРЛАР ҲАҚҚЫНДА

Е.К.Оразымбетов – педагогика илимлери бойинша философия докторы

Әжинияз атындағы Нәкис мәмлекеттік педагогикалық институты

Тәжінч сұйлар: чопқир, қаназат, арғумоқ, тулпар, ботирлар, содиқлик.

Ключевые слова: жүйрик, қаназат, аргымак, тулпар, батыры, верность.

Key words: zhuirik, kanazat, argymak, horse, warriors, loyalty.

«Жұзден жүйрик, мыңнан тулпар» қәсийетли, сийрек ушырасатуғын жүйрик, ҳасыл түкімлұ қаназат жылқыны қарақалпақтар «арғымақ, қаназат, тулпар» деп атап, оларға өзгеше нәзәр менен қараган. Өйткени қарақалпақ дәстүрлеринде тулпарлар тек ийесиниң ғана емес, пүткіл урыў аймағының, халқының абырайын, мәртебесин асыратуғын ғәзийнеси есапланған.

Қарақалпақ халқы мудамы жылқының ҳасылын ардаклад, оларды хеш қашан сойыслыққа жибермеген. Ер жигиттин қанаты болған қаназат тулпарлар өз әжелі менен өлген ҳәм құрмет пенен жерленген.

Қарақалпақ халқында «Ат - ер жигиттиң қанаты», «Ер жигиттиң бир мұрады ат болар, ат болмаса жүрегинде дәрт болар» деген ҳикметли сөзлер бар. Қарақалпак халқы тарихында аты дүйім жүртқа уран болған батырлар бир талай. Батырдың жети ғәзийнесиниң бири – жүйрик ат ийеси құласа жалын төсеп, туяғы менен жер қазып, аўызлығын шайнап, ийесине наиза ямаса қылыш пенен өктаған жаўды ат үстинен тислеп тартып жерге құлатып, туяғы менен таптап, урыстың усылларын менгерип, жаў оғынан қаймығып, ийесин аман сақлаган. Батырдың қыйналған ўактында тилине зибан питип, ийесине кеңес берген. Соныңтан ертеде тулпар сайлап минип елем деп еніреген, халқын сүйген, ел-журттың тынышлығы, абаданлығы, ғәрзесизлиғи ушын гүрескен батырлардың минген тулпарлары ийесине садықлығы, дослығы, керек ўактында сүйениш болатуғынлығы халық айзында дәстанларға, аңызға айланған.

-bir avlod tajribasini keyingi avlodga o'tkazish;
-dunyoni madaniy o'rganish;
-o'quvchilarning erkin rivojlanishi;
-kasbiy faoliyatga tayyorligi;
-o'quvchilarning o'zini o'zi anglashi.

Xulosa. Ta'limning ma'nosi bu - nima sababdan va nima uchun kerak, bu nima, inson uchun qanday vazifani bajaradi, degan savollarga javob beradigan ta'lim asosidagi g'oyadir. Ta'limning ma'nosi tegishli pedagogik tizimni yaratish uchun asos yaratadi. pedagogik klassik va mahalliy tizimlarning har biri o'ziga xos ma'noga ega va ma'lum bir ta'lim turiga tegishli bo'lib muammo ma'lum bir mintaqaga, viloyat, maktab, oila yoki alohida shaxs uchun tanlangan ta'lim turining aksariyat hollardagi asossizlidir.

Адабиёттар

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ma'muriy islohotlari doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'RQ-957-son

2. Tulyakov E."Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish – ustuvor vazifa. <https://strategy.uz/index.php?news=1725> . 2023.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-54-son

4. Хугорской А.В. Педагогика. Darslik. –Питер: 2019.

5. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. –Toshkent: 2023.

Қарақалпақ әдебияттаның илимнен тийкар салышылардың бири, көрnekli илимпаз ҳәм жәмийетлик искер Н.Дәўкараев өзиниң изертлеүлеринде жүйрик жылқылар ҳаққында төмендегише пикирин билдиреди. «... жаўгершилик, атланыс ўакларында жылқы үлкен әхмийетке иие болған. Қуýса куска жететуғын, кашса кутылатуғын, жулдызды ғөзлеген жүйрик ат жигиттин жолдасы деп есапланады. Қарақалпақ дәстүрлеринде жигит болыў ушын баслы шәрттиң биреүи оның аты болыўы керек. Атсыз жигиттин қәдіри кем болады. Бул қарақалпақтың «Не жаман» деген термесинде төмендегише тәрийипленеди.

Атлан-атлан дегенде,

Атланара аты жоқ,

Ййнмне тартар заты жоқ,

Оз тениниң ишинде,

Пияда қалған сол жаман» [1:110-111] деген пикирлер бүгинги күнде де жигитлерге атқа деген меҳирди оятары анық.

Ҳақыйқатында да илимпаздың келтиргениндег ертеде көп жаўгершиликлер болған. Топа-торыстан жаў бастырып келген. Соңдай ўакытлары жаўға қарсы гүресиү ушын жигитке шапқыр, тулпар ат керек болған. Егерде жигитте аты болмай қалса, қатарынан кем есапланған. Соның ушында қарақалпақ халық термелеринде атсыз жигиттин аўхалы баян етилген.

Батырлардың өзине ылайық тулпар таңлауы өз алдына тариххә иие. Олардың өзине ылайық ат таңлауы дәстанларда, анызларда сакланып қалған.

Батырлардың тулпарлары өзгеше қәсийети, дене дүзилиси, сұлыў келбети, жүйрикligи, ақыллылығы, ийесине садықлығы менен басқа жылқылардан ажыралып турады. Тулпар батырдың тек минетуғын көлиги емес, оның атақ-абыройын ҳәм мәртебесин асыратуғын садық досты, қыйын-қыстау жерде кенесгөйи, жауға шапқанда сүйенер жолдасы болған.

Изертлеүши Н.Г.Кульсарин өзинин «Образ богатыря в русском и башкирском героическом эпосе» атамасында диссертация жумысында «Түрли халықлардың қаҳарманлық эпос дөретпелеринде тулпар ат батыр менен бирге шәртли түрде садық дос, жәрдемши сыптында сүйретленеди» [2] - деген пикирди көлтирип өтеди.

Бул пикир жұдә орынлы көлтирилген. Басқа халықлардың дәстанларында ат батырлардың жақын досты болғаны сыйаклы қарақалпақ дәстанларында да да Алпамыс минген Байшубар, Қоблан минген Торы ат, Гулайым минген Ақтамкер, Едиге минген Бауыршын, Нуратдин минген Сары ала ат, Мәспатша минген Мәнжүн ат, Ер Қосай минген Қара ат қарақалпақ батырлар менен бирге тәрийипленгенин көремиз.

Түркменстанлы илимпаз О.Гундуғдыев «Конь и конница у туркмен» деген илимий мийнетинде атларды ҳәр тәреплеме изертлеп, «Батыр өзине ылайық жан жолдасы тулпарын тапқан ўақтында батыр. Оған шекем ол қашама күшин көрсетип ерлик ислегени менен батыр санағмайды» [3:106] деген токтамға көледи.

Қарақалпақ батырларының өзине тулпар таңлауы өз алдына тарийхқа иие. Мәселен, қарақалпақ халқының ырғаклы урыұынан шыққан Алпамыс батырдың өзине ылайық тулпар таңлауы «Алпамыс» дәстанында айрықша тәрийипленеди. «Алпамыс пайыў пияда, ер арқалап, қамшы алып, атлы бармас жерлерге пияда барып, атасының жылқысын бағатуғын Құлтай бабаның қасына барып минетуғын ат сорайды.

Сонда бабасы Құлтай «Бәрекелла, балам, сениң мәрт болғаныңа шүкір! Ат минемен деп кәмалға келгенине шүкір деп Алпамысқа:

Булақтың бойына бар, бойыншелли бир акым қаз, бойында жасырып жат, сәскеде жылқының алды таұдан құлап сүўға келер, сол жерде намазлыгерде сүү ишип, кейин серпилип қайтар. Тәкымың толғандай, хызыметице болғандай, ҳәжетице жарагандай, қабыргалы ябы болса сайлап өзин алып минил ал, балам! Қайсысының жүйригин, қайсысының шабанын, қайсысының жақсысын, қайсысының жаманын мен билмеймен балам, - дейді.

Сол ўақытта Алпамыс булақтың бойына барып, бойы шелли акым ды қазып, бойын жасырып жатты. Әрманлық пenen таң атты, күн шықты, сәске болды, жылқының алды таұдан құлап сүўға келди, намазлыгерде сүү ишип, кейин серпилип қайтты.

«Тәкымы толғандай,
Хызмет күнге болғандай,
Көрингеди ишинде,
Қабыргалы бир ябы.

- Пай, маңлайы қараның жыйнаған малы харамзада екен! - деп, акымнан басын көтерсе:

Аяқлары топышақ,
Құйрық жалы бир күшак,
Жүргіп жолдан адасқан,
Тула бойын кене басқан,
Мезгиллик жолды аңлаған,
Дүбір шықса узакта,
Қулақ салып тыңлаған,
Өзи шубар, котыр тай,
Қарны үлкен сүў қабақтай,
Кеселеп жортып киятыр.

Сол маңлайы қараны сынап көрейин, - деген мәрттиң кеүйлине қыял пайда болды, узактан суўсап келген жылқы булаққа тұмсығын басты. Мәрт акымнан

шығып, куйрыққа беккем жабысты. Ат арман тартты, Алпамыс берман тартты, тулпарлығын билдирип, Алпамысқа күш бермей, бир танап жерге сүйреп қашты. Батырлығын билдири, аш жолбарыстай ыңыранып, жарылған муздай гүциренип, иркип алды шубарды» [4:36-37].

Байшубардың өз бойын жасырып журиүи, негизинде оның ұзакты ғөзлеген жүйрик тулпар екенлиги ҳәм Алпамыстың оны таңлауы дәстанда ҳәр тәреплеме сүйретленген. Батырдың бундай өзине ат таңлауы ҳәм аттың тулпарлық қәсийетлери тек ғана қарақалпақ дәстанларында ғана емес, ал түрки тиллес қазақ, ногай, күмық ҳәм басқада да халықлардың қаҳарманлық дәстанларында ушырасады. Тулпар ат барлық ўақытта батырга жәрдемши досты сыптында тәрийипленнип, батырлардың тәғдиди мудамы атлары менен тығыз байланыслы болып көледи. Әсиресе, қазақлардың «Алпамыс» жыры қарақалпақ қаҳарманлық дәстаны «Алпамыс» дәстаны менен сыйбайлас екенлигин көріумизге болады.

Бүннан тыскары Арқа Кавказ халықларының (Адыгейлер, Осетинлер, Чеченлар ҳәм Ингушлар ҳәм басқалар) қаҳарманлық дәстанлары қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары менен үқас тәреплерин көріумиз мүмкін. Бул халықлардың да қаҳарманлық дөретпелеринде батырлардың жәрдемшиси болған ат ең зәрүрли рол ойнайды, олар сөйлеүди биледи, батырга урыс дауымында өзин қандай тұтыўды, не қылыш кереклигини айттып береди, қыйын тапсырмаларды орынлауда жәрдем береди.

Қарақалпақ халқының қыпшақ урыұынан шыққан Қоблан батырдың да өзине ылайық тулпар таңлауы ҳаққында халық арасында түрли аңыз-әңгимелер тараған. Қобланның туўылыўы, кәмалға келийи, өзине ылайықты тулпар таңлауы, өз халқының азатлығы, ғәрзесизлиги, баһытты турмыс сүриўи ушын ел-журтын сыртқы жаўлардан қорғаганлығы ҳаққында «Қоблан» дәстанында айрықша көтеринки рүүх пенен сүйретленген.

Дәстанда «...Бала он бир жасына келип, Қыдырбай ғәріп көп баланы жанына қойды. Сарықум деген жерден бир орда сайлап берди. Балалар менен асық ойнап, балаларға зорлық қылып, жүргеги қабына сыймай, атасың алдына барып, «ата, маган жүйрик ат берсөң, кейніме қырқ жигит берсөң, ҳәр-жерге барып, кеўлимди көтерсем, қалай болар екен» дейді. Қартайғанда көрген перзенти «ат минемен» деген соң, ғұдары нокта, алтыннан пүү берген тебиги, алтын ер, ушыға терлик - барлығын таяр қылып, көп жылқыға алып барды. Көп жылқынан таңдаған жылайды, я күйәнған жылайды», - деген, күйәнғанынан жылай, гаррының бауыры езилди. Қоблан минген атлар баланы көтере алмай, жәниүардың омырткасы үзилди» [5:28] – деп тәрийипленеди.

Қоблан батырдың торы аты ҳаққында дәстанда төмөндеги мағлұйматлар берилген. Қобланның яры Қуртқа келин болып түскеннен кейин жылқының ишинде буўаз кер бийени көріп, кер бийениң қарнындағы баласында “ер жигиттиң қанаты – арғымақ”тың бар екенин аңлайды ҳәм бий туғаннан соң, тайыншақты анасынан айырып өз перзентиндей етип тәрбиялайды.

«Қуртқа да сыншы еди, көп жылқының ишинде бели қайқы кер бийе, маңлайы жазық сур бийе, көп жылқының басы еди, бир нышанды көреди.

... Қуртқа жан кер бийени қырық күн бақты, арадан қырық күн өткенде кер бийеден құлын туўды, шын маңлайдан күн туўды, тобығында мени бар, тоты күстай жәниүар, Қоблан мәртке миясар, Қуртқа оның

аўзы-басын сыйырып, кулағына үрледи, емшегин аўзына салып, перзентим деп жүреди» [5:51].

Халық арасындағы аныз-әңгімелерге қарағанда Күртқа Қобланнан тайыншақты кәмалға келтириү үшін алты жыл мәйлөт сорайды. Күртқа тайыншақты анасынан айырып, оны жаман көзден жырак болыў үшін арнап тигилген кийиз үйде сақлайды. Оған тоқсан күн туўмаган қысыр бийе ҳәм түйениң сүтін береди. Тоқсан күн толғаннан соң оған жемге қосып түрли шыпабағыш от-жем менен бағады.

Лекин, арадан үш жыл өткенде ел арасында ғалаўыт пайда болады ҳәм Қоблан Күртқадан торы атты берійин сорайды.

Халық жақсы, жүйрік атты тулпар дейди. Тулпардың еки қолтығында қанаты болады, қыйын қыстау шешиши гезек келгенде ушады деп түсінеди. «Мәспатша» дәстанинда Айпарша қалмақлардың қолына түскенде, қалмақтың корғанынан ат пенен үшшы шығады. Қобланның торы аты да Акшаханның тойында бәйгігі жиберилген атлардың изинен бир күннен кейин жолға шығады.

“Бир күн өткен арадан.

Тәүекел етип кейнинен,
Күйғынышы болды мәрт Қоблан,
Әрме күмнан өрмелеп,
Оннан етип барады.
Мәрттиң минген торы аты,
Таў үстинен жүреди,
Отлайды екен торыша ат,
Таўға шықкан селеўди.
Гәхі ушып, гәхі қонады”,

Тулпарлар батырдың қыйын-қыстау жағдайға түсken ўақытларында жаңында сүйеў болды. Торы атка зибан питип, адам киби сөйлеп, Қобланға ақыл кенес береди. Талай душпан менен болған урысларда батырды аман алып шығады.

Қоблан батыр Қебикли менен айқасқанда торы ат Қебиклиниң ала атын шайнап өлтиреди. Қебиклиниң күшагында қалған Қобланды көре алмай “иімнен

Әдебияттар

1. Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйындысы. 2 том. -Н.: 1977. 356-б.
2. Кульсарин Н. Г. Образ богатыря в русском и башкирском героическом эпосе: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа: б. и.], 2014. –С. 24.
3. Гундуғдыев О. Конь и конница у туркмен. –Ашгабат: 1999. –С. 106.
4. Каракалпак фольклоры. Қөп томъык. VII том. Алламыс дәстаны. -Н.: 1981. 217-б.
5. Коракалпок фольклоры. Қөп томъык. VIII том. Қоблан дәстаны. -Н.: 1981. 272-б.

РЕЗЮМЕ. Маколада корақалпок ботирлари минган түлпопларнинг ўзига хос жихатлари, эгасига содиқлиги, дүстлиги ва уларнинг ёшлар тарбиясидаги түтгап ўрни педагогик жихатдан баён этилган.

РЕЗЮМЕ. В статье с педагогической точки зрения описываются характерные черты лошадей каракалпакских батыров, их дружность и верность хозяину, а также их роль в воспитании молодого поколения.

SUMMARY. The article describes the characteristics of the horses that the Karakalpak heroes rode, their loyalty, friendship and their place in the education of youth from a pedagogical point of view.

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARI INTEGRATSİYASINI TA'MINLAsh

N.T.Orimbetov – pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat, integratsiya, innovasiya, modernizasiya, bilim, ko'nikma, malaka, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, olyi ta'lim, bakalavriat, uzyviyilik, integratsiya, ixtisoslik, mutaxassislik, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, интеграция, инновация, модернизация, знание, умение, навыки, общепрофессиональные и специализированные дисциплины, высшее образование, бакалавриат, преемственность, интеграция, специальность, система образования.

Key words: professional activity, integration, innovation, modernization, knowledge, skills, general professional and specialized disciplines, higher education, bachelor, continuity, integration, specialty, education system.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF 5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi olyi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasida olyi ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, olyi ta'limni modernizatsiya

айрылдымба” деп жылайды ҳәм ийесине жәрдем беріў ушын өзин ортага урады. Қебикли дәўдің қолынан батырды жаздырыў ушын дәўдін бармағын тислейді. Бәлентке секирип дәўдің тәбесине тебеди. Лекин, дәў Қобланды жаздырмайды. Сонда торы ат Қобланға ыразы бол деп өкіралып жылайды.

“Дәўдін минген ала атын, Шайнаўы менен өлтиреди, Жан-жағына қарады, Көре алмады Қобланды, Айрылды ба Қобланнан! Деп жәниўар жылады. Ортага өзин урады, Қөзлер тасласа қарады, Ақша жұзи албырап, Тұлымшағы салбырап, Дәў қолында көринди, Қоблан атлы жалғызын, Еки көзи жаўдырап, Ҳаслы хайұан демесен, Қасына келди зар әйлеп, Агасын жети айланды, Ҳаўаға қарап еснеди, Гүлдир-гүлдир киснеди, Жаздырыў ушын Қобланды, Он бармағын жаныўар, Гашыр-ғашыр тислейді” [5:155].

Торы ат Қобланды дәўдің қолынан күтқарыў ушын бир ярым айлық жолға тәўекел етип үш күнде Күртқаның ағасы Қараманға жәрдем сорап Қобланды жаў қолынан күтқарады.

Бундай ҳасыл, ийесине садықлықты Гулайым минген Ақтамкер, Едиге минген Бауыршын, Нуратдин минген Сары ала ат, Мәспатта минген Мәнжүн ат, Ер Қосай минген Қара атта да көремиз.

Жүймеклап айтқанда батырлар минген тулпарлар алысты жақын ететүғын. ҳасыл, ийесине садық, оған жан жолдас болған жүйрік ат болыўы менен бирге инсан тәрбиясында шын дослықтың тымсалын көрсетип береди. Бүгинги күнде бундай ҳасыл тұкымлы каназатларды жасларымыз бәйгилерде, көкпары ойынларындаға көреп келмекте. Ерте заманларда өткен батырлар хаккында оқып, үйренип, олардың минген тулпарларына да итибар қаратыўымыз зәрүр. Себеби, сол дәүирлерде батырдың қанаты болған тулпарлардың ийесине садықлығын оқыў, үйрениў арқалы жаслар өзинде жолдасына садықлықты, жақсы-жаман, күйанышты ҳәм қайғылы күнлөрде өз жақынларының, халқының қасында жәрдемши болыўы, елине, жұртына садық болыўға тәрбияланады.

Эдебияттар

1. Гундуғдыев О. Конь и конница у туркмен. –Ашгабат: 1999. –С. 106.
2. Каракалпак фольклоры. Қөп томъык. VII том. Алламыс дәстаны. -Н.: 1981. 217-б.
3. Коракалпок фольклоры. Қөп томъык. VIII том. Қоблан дәстаны. -Н.: 1981. 272-б.

РЕЗЮМЕ. Маколада корақалпок ботирлари минган түлпопларнинг ўзига хос жихатлари, эгасига содиқлиги, дүстлиги ва уларнинг ёшлар тарбиясидаги түтгап ўрни педагогик жихатдан баён этилган.

РЕЗЮМЕ. В статье с педагогической точки зрения описываются характерные черты лошадей каракалпакских батыров, их дружность и верность хозяину, а также их роль в воспитании молодого поколения.

SUMMARY. The article describes the characteristics of the horses that the Karakalpak heroes rode, their loyalty, friendship and their place in the education of youth from a pedagogical point of view.

qılısh, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan [1].

Uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri uning bosqichlari o'rtaisdagi, fanlararo uzyviyilik va uzluksizlikni ta'minlash, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir.

Shuning uchun ham ta'limda integratsiya, uzyviyilik va uzluksizlikni ta'minlash masalasi bugungi kunning dolzarb

muammolaridan hisoblanadi. Jumladan, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi metodikalarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'quv faoliyatini kafolatlangan natijalarga olib kelishi mumkin.

Ta'limga qo'yilgan talab va mazmunning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib uzviylik masalasini quydagicha tarkiblashtirish mumkin:

a) ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda muayyan ta'lim mazmunini avvalgisi bilan uzviy bog'langan holda keyingi ta'lim turlarida davom ettirish ta'minlanadi;

b) o'quv fanlaridagi uzviylik. Bu ko'pincha fanlararo bog'lanish deyiladi.

Uzviylik muammosini to'la hal etish uchun nafaqat ta'lim bosqichlari va fanlararo uzviylik, shuningdek, ta'lim mazmunini bayon qilishda o'qitish texnologiyasidagi uzviylikni ham ta'minlash muhimdir.

Pedagogik sohasiga oid adabiyotlarda uzviylik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, B.G.Ananyevning ta'kidlashicha - "uzviylik" tushunchasiga quydagicha ta'rif beradi: "Ta'limdagi uzviylik o'quvchilar fan asoslarini egallash jarayonida oлган bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir". Sh.I.Ganelin ta'kidlashicha - "...uzviylik - bu o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv materiali uchun tayanch bo'luchchi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarning amalda shunday qo'llanilishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o'rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiya g'oyalari ochiladi, eski va yangi bilimlarning o'zaro aloqadorligi ta'minlanadi, natijada o'quvchilarda puxta va chuqr bilimlar tizimi shakllanadi". Ba'zi tadqiqotlarda esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e'tirof etiladi. "Tor ma'noda uzviylik jarayoni - bu ta'limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzilishlarini to'ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma'noda - bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiyl kontekstiga kiritiladi». Shunday qilib, uzviylik tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan tizimlik va ketma-ketlik tamoyillari bilan bog'langan (binobarin, ketma-ketlik o'quv tarbiya jarayonining tartibini, bo'g'in va aloqalarni aniqlashtirish, belgilashning o'zi yetarli emasligi bois metodikaning barcha elementlarini qayta ko'rib chiqish zarur [3:21].

Integratsiya-(lotincha "integration"-tiklash, to'ldirish) - barcha qismlari, elementlarining birlashishi degan ma'nomi anglatadi. "Falsafiy qomusiy lug'at'da integratsiyalash jarayoni rivojlanish jarayonining bir qismidir, ilgari o'xshash bo'lmagan qismlar va elementlarning birlashishi bilan bog'liq deb qaraladi.

O'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda "Duel" o'yini ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur o'yinning mohiyati shundaki, bu o'yinga ikki-uch daqiqagacha vaqt sarflash mumkin. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga imkon qadar ko'proq javob berishlari talab etiladi. Buning uchun 3-4 o'quvchidan iborat bo'lgan ikkita guruh tuziladi. Har bir guruhga savollar navbat bilan taqdim etiladi. Dastlab birinchchi guruh, keyin ikkinchi guruh o'yinni o'ynaydi. Eng ko'p to'g'ri javob qaytargan guruh g'olib hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga taqdim etiladigan savollar har ikki guruh uchun bir xildagi murakkablik darajasiga ega bo'lishi lozim. Ularda qo'llaniladigan so'zlarning ham bir xil miqdorda bo'lishi talab etiladi. Bu ayniqsa 5-6-sinf o'quvchilari uchun niyoyatda zarur hisoblanadi. Duel o'yindan yangi mavzuni o'tish hamda nazorat darslarida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. "Duel" o'yini uchun qo'llaniladigan savollar reproduktiv xarakterda bo'ladi. Tarix darslarida vaziyatlarni imitatasiyalash maqsadida qo'llaniladigan o'yinlar sirasiga "Qadrdon maktabim" o'yinini ham kirish mumkin. Ushbu o'yin o'quv jarayoniga "tarixiy turizm virtual o'yini"ni qo'llash imkonini beradi. Ushbu o'yinining o'ziga xos xususiyatlari sirasiga:

- tarixga oid bilimlarni mustaqil tarzda, bosqichma-bosqich o'zlashtirish;

- o'quv jarayoniga zavq-shavq bag'ishlovchi vaziyatlarni olib kirish o'quvchilarda emotsiyonal motivatsiyani hosil qilish;

- bir-biridan farqlanuvchi ko'plab shaxslarning obrazlarini tasavvur etish, tarixiy voqelikni tinglash va ko'rish imkoniyatini taqdim qilish;

- ko'p qirrali o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- o'yinining har bir bosqichida o'quvchilarning o'quv muvaffaqiyatini qayd etish imkoniyatining mavjudligi,

shuningdek, majburiy nazorat bosqichidan o'quvchilarning ozod qilinishi, o'quvchilarning tarixiy bilimlarni o'zlashtirishlari va ularda tarixiy tafakkurning shakllanishidagi muvaffaqiyatni ta'minlashiga erishiladi.

Tarix darslarida rolli o'yinlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, tarixiy mahkamalar yoki matbuot anjumanlari, davra suhbatlari, teatrlashtirilgan tomoshalar shular jumlasidandir. Mashg'ulotlarni tashkil etishga tayyorlanish jarayonida o'rganilayotgan mavzuni har tomonlama, keng ko'lamda o'rganish taqozo qilinadi. Bunda o'quvchilar uchun izlab topish qulay bo'lgan axborotlar va manbalardan foydalanish nazarda tutiladi. O'quvchilardan o'z nuqtai nazarlariga ega bo'lishlari, uni namoyon etishlari talab etiladi. O'quvchilar o'zlarini qo'llab quvvatlayotgan va ularga munosabat bildirayotgan sindfosholarining nuqtai nazarlariga tanqidiy yondasha olishlari alohida ahamiyatga ega.

Rolli o'yinlar o'quvchilar tomonidan o'ynaladigan kichik hajmli sahna asari hisoblanadi. Uning asosini o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan improvizatsiya tashkil etadi. Rolli o'yinlardan to'g'ri foydalanishni ko'rsatuvchi muayyan me'zonlar mavjud. O'quvchilar o'quv jarayonida xuddi mana shu talablarga amal qilishlari taqozo etiladi. O'yinning maqsadiga alohida e'tibor qaratish, biz nimani xohlasmiz degan savolga aniq javob berish, o'yinning maqsadi aniq shakllantirilgan, uni loyihalashtiruvchilar, o'qituvchilar uchun tushunarligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

O'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda imitatshon va noimitatsion o'yinlardan foydalanish birdek samarali hisoblanadi. Tarix darslarida foydalaniladigan o'yinlarni ham ikki guruha bo'lish mumkin:

A) Ishchan o'yinlar. Bunday o'yinlar sirasiga tarixiy sud, matbuot anjuman, ilmiy laboratoriya, tok-shou kabilarni kiritish mumkin.

B) Retrospektiv xarakterdagi o'yinlar. Mazkur o'yinlar teatrlashtirilgan rolli o'yinlar hamda muammoli rolli o'yinlarga bo'linadi.

Strategiya-didaktik o'yini ham o'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur o'yinlar o'zida ishchan hamda retrospektiv o'yinlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Imitatsiya qilinmaydigan o'yinlar bir vektorli o'yinlar bo'lib, shartlilik xarakteriga ega. Muayyan qonun qoidalar va shart-sharoitlarga amal qilishni taqozo etadi. Bunday o'yinlar sirasiga 3 gap, blits so'rovlari, grafikli o'yinlarni kiritish mumkin. Bunday o'yinlarni amalga oshirish voqelikni aniq chizmalarda ifodalashni talab qiladi. Ular: rebuslar, krassvordlar, ko'p vektorli o'yinlardan QVZ, Breyn-ring kabilar. Shu bilan bir qatorda tarixiy shaxslar haqida yozilgan badiiy asarlar, kinofilmlar bilan bog'liq holda Sohibqiron Amir Temur va uning o'g'illari, Shoh va shoir Bobur, Alisher Navoiy Hirotda kabi tarixiy shaxslarning nomi bilan bog'liq o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Bunday o'yinlardan keyin o'quvchilar tarixiy davr va tarixiy shaxslar haqida o'z fikrlarini bayon qilib ularning faoliyatiga baho beradilar.

Multimediali loyihalar o'quvchilarning bilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'z bilimlarni mustaqil loyihalash, global axborotlar maydonida to'g'ri yo'nalishlar ola bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimediali loyihalar loyiha texnologiyalari talablarini asosida shakllantiriladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayoni maqsadlarini belgilashda ham innovatsion yondashuvga tayanishni talab qiladi. Chunki tarixiy tafakkur o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy xususiyati o'quvchilarni o'quv faoliyatining subyektiga aylantirishdan iborat. Bu esa ularda tafakkur mexanizmlarini shakllantirish orqali amalga oshadi.

O'quvchilar loyiha texnologiyalari bilan ishslash jarayonida o'z oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarishga astoydil harakat qildilar. Ular har bir topshiriqlar ustida mustaqil ravishda izlanishga harakat etdilar. Har bir davrni o'rganish natijasida o'quvchilar mazkur davr o'zbek xalqi hayotida qanday iz qoldirganligini tahlil qilishga muvaffaq bo'ldilar. O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarining natijalari ularning multimediali taqdimotlarida o'z ifodasini topdi. Biz tomonimizdan tashkil etilgan tarix haftaligi davomida o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, chuqurlashtirish, yangiliklarni izlab topish, ular ustida ijodiy fikr yuritishga muvaffaq bo'ldilar. Bu o'quvchilarda tarix faniga oid kompetensiyalarini shakllantirib, ularning tarixiy tafakkurini boyitishga xizmat qildi. Tarix haftaligi davomida tashkil etilgan pedagogik tadbirlar: tanlovlari, viktorinalar, breyn-ringlar, tarixiy obidalarga sayohatlar, tarixiy qadamjolar bilan tanishish, ilmiy laboratoriya mashg'ulotlari, to'garak mashg'ulotlari bilan birgalikda tarixiy kinofilmars tomosha qilish, tarixiy shaxslar haqidagi asarlar ko'rgazmasi, mazkur asarlar asosidagi sahna ko'rinishlari o'quvchilarda tarixiy tafakkurning samarali shakllanishiga xizmat qildi. Natijada o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarining shakllanishi jadallahdi: Muayyan tarixiy davr koloritini his qilish, tarixiy ma'lumotlar bilan ishslash, voqelikni xronologik tarzda

idrok etish kabilar. Shuning uchun ham tarix o'qituvchilari voqelikni muvaffaqiyatlari imitatasiyalashda interaktiv metodlardan keng ko'lamli foydalaniishlari talab qilinadi. Buning natijasida o'quvchilarda xotira, kuzatuvchanlik, voqelikni anglash va o'zaro farqlash, diqqatni bir nuqtaga jamlash, voqealarni qayta bayon qilish, taqdirm etilgan axborotni baholash hamda yuqori darajadagi insoniy qadriyatlarni shakllantirish, milliy g'urur, o'zlikni anglash, o'z xalqi tarixi bilan faxrlanish tuyg'ularini rivojlantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchilar hozirgi globalashuv jarayonida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish orqali o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy mansublikdan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratishlari talab etiladi. Natijada ularda fanga oid kompetensiyalar shakllanib, o'quvchilar tarix fanidan beriladigan tayanch topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishlari natijasida tarixiy tafakkurning tizimli shakllanishiga erishiladi. Shuning uchun ham o'qituvchilar tarix darslarini loyihalashda voqelikni imitatasiyalash imkonini beradigan interaktiv o'qitish shakllari va metodlaridan samarali foydalaniishlari lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan tarixiy voqelikni imitatasiyalashga xizmat qiladigan ish shakllari, o'qitish metodlari, texnologiyalari imitatasiyalash vositasida o'quvchilarining tarixiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelida o'z ifodasini topdi.

Adabiyyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug', kelajagi farovon bo'ladi. – T.: "O'zbekistan" 2019.
2. Istoricheskoe myshlenie // Teoriya i metodologiya istoricheskoy nauki. Terminologicheskiy slovar. Otv. red. A.O.Chubaryan. – M.: 2014.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
4. Lerner I.Ya. Razvitie mishleniya u uchashixsyu v protsesse obucheniya istorii / Posobie dlya uchiteley. – M.: «Prosveshenie», 2002.
5. A.Sagdullaev, B.Aminov, O'.Maylonov, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti / 1-qism – T.: "Akademiya", 2000.
6. Xojametov G.B. Tarix fanlarini o'qitishda AKTdan foydalanan samaradorligini oshirish ("Tarix o'qitish metodikasi" fanini o'qitish misolida: ped.fanl. bo'yicha fals.fanl.dok. (PhD) ... avtoref. – Nukus: 2023. 16-17-b.
7. Usmonboyeva M., Arripova M., Mo'minova D. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanan. – T.: "Lesson Pres", 2019.
8. Zamilova R.R. Badiiy-tarixiy adabiyyotlar vositasida bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish: ped.fan.doktori (DSs) ... dis.avtoref. -T.: 2022.

REZYUME. Maqolada tarixiy tafakkurini shakllantirish shakllari, usullari, metodlari va ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqilgan va u haqida so'z etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье разработаны и рассмотрены формы, методы, приемы формирования исторического мышления и модель педагогического процесса, направленная на достижение этой цели.

SUMMARY. The article develops and examines the forms, methods, techniques of forming historical thinking and a model of the pedagogical process aimed at achieving this goal.

KREATIV TAFAKKUR TUSHUNCHASINING FALSAFIY MANBALARDAGI TALQINI

D.N.Sulaymanova – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tafakkur, kreativ tafakkur, yondashuv, falsafiy, shaxs, komillik.

Ключевые слова: мышление, креативное мышление, подход, философское, личность, совершенство.

Key words: thinking, creative thinking, approach, philosophical, personality, perfection.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim falsafasi, uning paradigmalari, qonuniyatlar, tamoyillari va qadriyatlarning o'zgarishimi, jarayonga mutlaqo yangicha yondashuvlarni vujudga keltirmaoqda. Mazkur yondashuvlarni fonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlilik, kreativlik, kommunikativlik, jamoada ishslash, tanqidiy tafakkur mustaqilligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatiga innovatsiyalarini kiritish, ularni tushunish, ijodiy yondashish, shuningdek, mahoratini uzlusiz ravishda oshirib borish uchun qulay sharoitlar yaratishga falsafiy, psixologik va pedagogik asosga ega bo'lgan tizimli munosabatni taqozo etadi. Pedagogik tafakkur borgan sari o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini subyekt sifatida anglash, mas'uliyat va moslashuvchanlik layoqatiga ega mutaxassislar va ularni shakllantirish muhitiga ega bo'lgan zamoniaviy ta'limga bo'lgan tasavvurlar, izlanishlar, yangiliklarni kengaytirmaoqda. Amaliy pedagogik muhitning ilgarilab ketuvchi, faol-o'zgartiruvchi funksiyalar ahamiyatiga yangicha munosabati fikrlay

oladigan, ijodiy yondashadigan, muammolarni tushunish, ularning yechimini loyihalash, innovatsion jarayonlarda harakatchan bo'lgan pedagoglarga muhtojlikni yaqqollshtiradi.

Zero, mazkur yondashuvlar dolzarb jarayon sifatida ta'lim islohotlarining bosh bo'g'inini ifodaydi. Fikrimizni respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oly Majlisiga O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi"da ta'lim tizimi oldidagi ustuvor yo'nalish sifatida qo'yilgan "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishslash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Mana maktablarimizga qanday muhit kirib borishi kerak" [1] vazifasi bilan dalillash mumkin.

YUNESKOning ta'lim bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hududiy byurosi hamda Kolorado universiteti "Ta'lim sohasidagi siyosat milliy markazi" mutaxassislarining 152 ta, jumladan o'qitish tizimi eng rivojlangan davlatlar ta'lim natijalariga mo'ljallangan me'yoriy hujjalari tahlili tanqidiy tafakkur, kreativlik, muammolarni hal qilish,

muloqot, hamkorlikda, jamoada ishlash kabi 21-asrda zaruriy ko'nikmalar sifatini baholashning yangi metodikalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatdi. Tadqiqotlar natijasida e'lon qilingan ma'ruzalar aynan shu ko'nikmalar 21-asrda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi va ta'lif maqsadlari ularga yo'naltirilishi lozimligini uqtiradi [4:125]. Demak, kreativ tafakkur faqatgina ma'lum bir iqtidor yoki qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar uchun emas, balki zamonaviy dunyoda yashab qolish uchun har bir insonda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan birini anglatadi.

Tafakkur tushunchasi yetarlicha tarixga ega bo'lib antik davrlardan boshlab to hozirgacha mushohada va diqqat markazida turibdi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimiz davomida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik talqinini ifodalash imkoniyatiga paydo bo'ladi (1-rasm.). Quyida ularning ayrim e'tiborga molik jihatlariga diqqat qaratamiz.

Kreativ tafakkur tushunchasiga yondashuvlar

Falsafiy talqin

Psixologik talqin

Pedagogik talqin

1-rasm. Kreativ tafakkur tushunchasiga doir yondashuvlar

Kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy talqini. Kreativlik va tafakkur tushunchalarining o'zaro bog'liqligi fundamental ilmiy tadqiqotlarda bahstalab mavzu sifatida ko'p ko'tariladi. Chunki, aniq holat, voqealarni tushunish, tafakkur qilish hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal qilishdagi fikrlash jarayoni, natijaga yo'nalganlik doimo diqqat markazida bo'lishi tabiiy. Shuning uchun, kreativ tafakkur tushunchasi ijtimoiy fazilat sifatida shaxsning insoniy qiymatini belgilovchi omillardan biridir. U shaxsning mustaqilligiga ishora qiluvchi sifat va miqdor mujassamligini ifodalaydi. Aynan, shu mujassamlik qadimgi yunon faylasuflarining tushunchaga turliqa qarashlarga kelishlariga turki bo'lgan.

Jumladan, Suqrot kreativlikni yo'qlikdan borliqning tug'ilishi sifatida baholaydi. Uningcha, ijod – insonning asl faoliyat jarayoni bo'lib, uning natijasida sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratiladi, yangi buyumlar, xulq, muloqot usullari, tasavvurlar va bilimlar shakllanadi. Ijod jarayonida nafaqat obyektiv borliq hodisalarini va buyumlari, balki, ularning mavjudligi yoki vujudga kelish maqsadi, shartlari va sabablari anglanadi [9]. Aflatunning qarashlarida kreativlik insonning turli tushunchalar yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati bo'lsa, kreativ tafakkur uni kundalik amaliy faoliyatga tatbiq zarurati tarzida qaraladi [6]. Arastu esa "ijod o'z-o'zini anglashdagi determinallashgan faoliyat bo'lib, u bilimning yangidan-yangi sifat ko'rsatkichlarini yuzaga keltiradi", deya ta'riflaydi hamda "kreativlik" va "kreativ tafakkur" tushunchalarini ajratishga harakat qiladi, "kreativlik"ni ijodiy imkoniyatning ijodiy voqelikka o'tish jarayoni, "kreativ tafakkur"ni esa shu jarayonning pirovard natijasi tarzida tushuntiradi. Lekin, keyingi mulohazalarida ushbu fikrlarini rivojlantirmaydi va ularni bir-biriga o'xshash, o'zaro to'ldiruvchi mazmuniда foydalangan [10].

Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida ilgari surilgan g'oyalalar inson, uni tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, kasbiy yetuklik, ijodiy fazilatlarini yuksaltirishning ilmiy asoslarini yaratishda muhim

ahamiyat kasb etdi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Yusuf al Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yugnakiy, Imom G'azzoliy, Burhoniddin Zarnudjiy, Alisher Navoiy ijodkorlik, tafakkur tushunchalarining mohiyati, mazmuni, ma'nosini tushunishga doir ilmiy qarashlarini ilgari surdilar.

Muhammad al-Xorazmiy inson mohiyati haqida fikr yuritar ekan, uming aql imkoniyatiga yuqori baho beradi hamda qadrini bilimi, mahorati va ijodkorligida, deb hisoblaydi. Abu Ali ibn Sino insonning imkoniyatlarga ishonch bildirish, barkamol insonni tarbiyalash, pedagogik faoliyatni tashkil qilishga ijodiy yondashishga doir fikrlarini asoslaydi [3]. Abu Nasr Forobiy "shoirlar chindan tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi va ularda tashbih va tamsilga layoqati yaxshi ishlaydigan bo'ladi. Bu xil shoirlar she'r navining ko'p turida yo bo'limasa bir turida ijod qilishga layoqatli bo'ladi.ijodda yo tabiyyilik, yo majburiylikdan holi bo'lmaydi" [2:164], deb ijodning ahamiyatini, turlarini ko'rsatadi. Shuningdek, boshqa allomalar asarlarida ham komillikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish va bu jarayonda ijodiy faoliykning muhim sifat ekanligi keng yoritilgan.

Kreativ tafakkur, I.Kantning ta'kidlashicha insonning o'z-o'zi bilan muloqoti, ichki ovozini eshitishi hisoblanadi. Insonda immanent muloqotning paydo bo'lishi natijasida ijodiy fikrlashining uyg'onishi ro'y beradi. Bu tarzdagi muloqot yoki o'zining o'zi bilan ichki suhbati ijodkor shaxsning tanqidiy va kreativ tafakkurga bo'lgan noyob qobiliyatining yuzaga chiqishidir. Demak, kreativ shaxslar yangi bilimlarga ochiq va o'rganayotgan fani yoki faoliyat yuritayotgan sohasida o'z so'zini aytish jasoratiga ega bo'ladilar [12]. G.V.F.Gegelning qarashlarida ijodiy tafakkur butun obyektlarning bo'laklarga bo'linishi, bu jarayonda ijodning quvvati, butunni bo'laklarga ajratishdagi qobiliyati, bo'laklarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi hamda insonning aqliy fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Uningcha, shaxslarning ijodiy izlanishlari bir-biriga yaqin yoki tubdan farq qilish, hatto butunlay zid bo'lishi ham mumkin [8]. B.Spinoza va A.Bergson asarlarida ham kreativ tafakkurni intellekt bilan bog'lash uchraydi. Ularning fikricha ijodiy tafakkur intellektning yuqori bosqichi bo'lib, qat'iy belgilangan qoidalarga muvofiq harakatlandi [6].

Faylasuf V.Lebedev "Nazariy CRAFT. Koordinatalar sistemasi, g'oyalalar tushunchasi" nomli maqolasida kreativ metodologiyaning vazifasi insonni anglangan ijodiy natijaga olib kelishidir, degan xulosani beradi. Anglangan natijaga bo'lgan qiziqish ijodiy mahsulotning sifatini o'lchash mumkin bo'lgan sohalarda kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish jarayonida nostandart yondashuvlar vazifani hal qilishning samaradorlik darajasini belgilaydi. Aynan, mazkur yondashuvlar kreativ, deya nomlanadi, chunki jarayonning o'zi ham yakuniy mahsulotlar ham ijodiy bo'ladi [7:15-16]. Ye.A.Shulga "Kreativlik falsafasi: ijodkorlikni o'rganishning muhim davrlari" nomli maqolasida kreativ tafakkur insonning o'z fikri, tushunchalarini ilgari surish, asoslash, ajdodlar tajribasini o'zlashtirish, turli timsollar va g'oyalarda namoyon bo'lishini hamda mazkur tushunchaning dalillarni to'plash, tahil qilish, voqealarni kuzatish, mavzuga doir bilimlarni o'rganish, ularni o'zaro bog'lash, o'zining ijodiy farazini yaratishdan iboratligini bildiradi [13:5]. Kreativ tafakkurning ishslash mexanizmlarini aniqlash bilan shug'ullangan olima Ye.N.Knyazeva "Kreativlikning kreativlik oynasidagi tabiat" nomli maqolasida "Ong xatoliklar, adashishlar, ulardagи bo'shlqlarni yo'qotishga yo'nalganligi bilan avtopoetik kognitiv va kreativ funksiyaga ega" bo'lib, o'zini takomillshatirish, ixtiro qilish, maqsadlarga erishish va butunligini qurishni ifodalashini dalillaydi [11]. N.A.Shermuhamedova esa "Falsafa va fan metodologiyasi" nomli qo'llanmasida inson

zehnining aqli, zukkoligi, xotirasingin tabiat, jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari bilan bog‘lab mushohada qilishi, o‘z-o‘zini anglashi haqida fikr yuritib, “...fandagi uzluklilik ijodiy jarayon va oldingidan mutlaqo farq qiluvchi yangi bilimning paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi”, deb umumlashtiradi [5:11].

Yuqorida keltirilgan fikrlar kreativ tafakkurni muayyan bilimlar asosida amalga oshadigan jarayon tarzida qabul qilish imkonini beradi. Unda insonning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, fikrlash tarzi, nostonart yechimlarga kelishi, ijodkorligi, yangi g‘oyalarni yaratma olish xislati, intuitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi”
2. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobi / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas‘ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toshkent: “Yangi asr avlodni”, 2016. 164, 320- b.
3. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarini ta‘limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: ped. fan. dok... diss. – Toshkent: 2006. 302-b
4. NEPC: Education System Alignment for 21st Century Skills: Focus on Assessment // Esther Care, Helyn Kim, Alvin Vista, & Kate Anderson (Brookings Institution, November 2018)
5. Shermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: “Aloqachi”, 2008. 11, 126-b.
6. Sherov M.B. Kreativ tafakkur haqidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasi [Elektron resurs] – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-tafakkur-a-idagi-falsafiy-arashlar-evolyutsiyasi>
7. Боровинская Д.Н., Суровцев В.А. Креативность и мышление: категориальная характеристика // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. –Томск: 2019. №47. -С. 15-24.
8. Гегель Г. Феноменология духа / Пер. с нем. Г.Г.Шпета, Коммент. Ю.Р.Селиванова. – М.: Акад. Проект, 2008. – 767 с
9. Грекова В.С. Творчество и креативность-компаративный анализ [Электронный ресурс] URL: <https://articlekz.com/article/10617>
10. Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. Изд.3. – М.: УРСС, 2009. –С. 368.
11. Князева Е.Н. Природа креативности в зеркале креативности природы // Эпистемология креативности. – М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2013. - С. 10-47.
12. Философское обоснование креативности в мышлении [Электронный ресурс]-URL: https://ozlib.com/843454/meditinsina/filosofskoe_obosnovanie_kreativnosti_myshlenii.
13. Шульга Е.Н. Философия креативности: важнейшие вехи изучения творчества // Философия творчества. Ежегодник. Вып. 2. -М.: 2016. -С. 36-62

REZYUME. Ushbu maqolada kreativ tafakkur tushunchani falsafiy anglash orqali bo‘lajak yangi davr o‘qituvchilarini tayyorlashda asosiy yo‘nalishlardan biri ularning kreativ salohiyatini orttirishga qaratilishi zarurligi bayon qilingan bo‘lib kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy manbalardagi talqini asosli tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье утверждается, что одним из основных направлений подготовки учителей новой эпохи через философское осмысление понятия креативного мышления является необходимость ориентации на раскрытие их творческого потенциала, а также трактовка понятия креативного мышления. Аргументировано анализируется креативное мышление в философских источниках.

SUMMARY. This article argues that one of the main areas of training teachers of the new era through philosophical understanding of the concept of creative thinking is the need to focus on the disclosure of their creative potential, as well as the interpretation of the concept of creative thinking. Creative thinking in philosophical sources is reasonably analyzed.

O‘ZBEK TILINI O‘RGANISH MAZMUNINI MINIMALLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY METODLAR

A.Sultanova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: darslik, integratsiya, til ta’limi, savodxonlik, interaktiv metodlar.

Ключевые слова: учебник, интеграция, языковое образование, грамотность, интерактивный метод.

Key words: textbook, integration, language education, literacy, interactive methods.

Bugungi kunda xorijiy tajribalarni ta‘lim tizimiga tatbiq qilish maqsadida bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqa, umumta‘lim maktablarida zamonyiy tipda yangi darsliklarning yaratilishi quvonarli holdir.

Tilni yaxshi bilgan insonlar ilm-fan, san‘at va boshqa sohalarda yanada yuqori natijalarga erishadilar. Turli tillarda gaplashadigan insonlar orasidagi muloqotni osonlashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. O‘zbek tili bo‘yicha o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini, fikrlash doirasini kengaytiruvchi o‘quv qo‘llanma va darsliklar ko‘plab nashr etilmoqda. Mana shu darsliklarda yutuqlar bilan birga ba‘zi mulohazali o‘rinlar ham uchrab turadi. Jumladan, grammatic ma‘lumotlarni taqsimlashda izchillikning yo‘qligi, ba‘zi mavzular esa faqat nutqiy mavzulardan iborat bo‘lib qolayotgani shular jumlasidandir [3]. Bir-biriga yaqin (qoraqlpoq, qozoq, turkman va boshqa) tillarga o‘zbek tilini o‘qitishda ikki tilda farqli bo‘lgan jihatlarga ko‘proq e’tibor berib, o‘quvchilar o‘z ona tilidan kelib chiqqan holda tushunadigan o‘xshash bo‘lgan mavzularni ixchamlashtirish ta‘lim mazmunini minimallashtirishga hamda uning sifatini, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Umumta‘lim maktablari uchun davlat tili sifatida o‘zbek tilida ma‘no va foydalanishda o‘xshashliklarga ega bo‘lgan til hodisalarini ta‘lim mazmundan chiqarib tashlamaydilar. Ikki tilda mos keladigan til hodisalarini (lingvistik atamalar-tushunchalar, ta’riflar, xususiyatlar,

tasniflar, grammatik shakllar va vositalar) chiqarib tashlashdan maqsad o‘quv mazmunidan ona tili darslari bilan bog‘liq takrorlarni bartaraf etadigan dasturiy materiallarni minimallashtirishdir.

O‘zbek tilini o‘qitish mazmunini minimallashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- muayyan sinfda o‘rganiladigan lingvistik atama va tushunchalarni tanlash;
- o‘zbek tiliga xos atamalarga ta’riflar va imlo, grammatic, tinish belgilarni tanlash;
- qo‘srimcha tushuntirishni talab qiluvchi fonema, imlo, grammatic shakllarni tanlash.

Bunday minimallashtirish faqat til hodisalarini tanlashing yetakchi tamoyillarini to‘g‘ri tanlashga zamin yaratadi. Bu quyidagi tamoyillar bo‘lishi mumkin:

- bolalarning ona tili va o‘rganilayotgan (o‘zbek) tilida nutqining rivojlanish darajasini hisobga olish; shu jumladan, maktab o‘quvchilarining nutqida yo‘l qo‘yiladigan xatolarni hisobga olish;
- ona tili darslarida o‘quvchilarining nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini hisobga olish;
- qoraqlpoq va o‘zbek tillarining o‘xshash va farqli tomonlarini hisobga olish.

O‘quvchilarining nutqi rivojlanish darajasini aniqlashtirish ularning o‘zbek tilini o‘rganishdagi imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, leksik nuqtayi nazardan alohida so'z-terminlarni o'quchilarga tanish deb hisoblash mumkin va ular ustida yangi lingvistik tushunchalar sifatida maxsus ish olib borishning hojati yo'q; Talaffuzi, imlosi va qo'llanishi o'xhash (bir oz o'xhash) qoraqalpoq so'zlar zaxirasidan kelib chiqib, o'zbek atamalarining ma'lum qismini nazariy asoslarsiz kiritish mumkin [5].

O'zbek tilini o'qitish mazmunini minimallashtirishda o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi til hodisalarining o'xhash va farqli tomonlarini hisobga olish tamoyili juda muhim o'rinn tutadi. Fonetika, grafika, lug'at, lingvistik atamalar-tushunchalar, grammatic shakllar, ularning ma'nolari va qo'llanilishini taqqoslash orqali to'liq yoki qisman moslikni aniqlash, takrorlarni majburiy ta'lim minimumidan chiqarib tashlash va faqat lingvistik hodisalarini tanlash mumkin. Ikki tilda tafovutlarning mavjudligi nazariy ma'lumotlarni o'rganishni talab qiladi. O'zbek va qoraqalpoq tillari lisoniy hodisalaridagi farqlar ham o'quchilar nutqida yo'l qo'yiladigan xatolar xususiyatini ko'rsatib, o'zbek tili darslarida qiyoslash yo'nalishini tanlashga yordam beradi.

Shunday qilib, o'zbek tilini o'qitishning minimal mazmunini belgilashda quyidagi tamoyillar maqsadga muvofiq: Bolalarning ona tili va o'rganilayotgan (o'zbek) tilida nutqining rivojlanish darajasini hisobga olish; shu jumladan, mакtab o'quvchilarining nutqida yo'l qo'yilgan xatolarni hisobga olish; o'quvchilarning ona tili darslarida nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasini hisobga olish; qoraqalpoq va o'zbek tillarining o'xhash va farqli tomonlarini hisobga olish.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'quvchi faol ishtirok etishga undaladi. O'qituvchi esa mentor sifatida harakat qiladi. Dars jarayonlari interaktiv xarakterga ega bo'ladi: guruhli ishlar, muhokamalar, loyiha asosidagi ta'lim kabi usullar qo'llaniladi. Zamonaviy metodlarda raqamli texnologiyalar keng qo'llanmoqda — onlayn platformalar, multimedia taqdimatlari va boshqalar. An'anaviy metodlar oddiy o'rganiladigan materialning chuoqurroq tushunilishiga yordam beradi. Zamonaviy metodlar esa o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi [1].

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirishdir. Bu maqsadga erishishda quyidagi muhim yo'nalishlar e'tiborga olinmoqda. Internet, raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining keng qo'llanishi ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. O'qituvchilar onlayn platformalarda darslar o'tishi, videolar tayyorlashi yoki virtual sinflarda mashg'ulotlar olib borishi mumkin. Zamonaviy ta'lim dasturlari nafaqat bilim berishga, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Bu esa o'quvchilarни hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi hamkorlikning ahamiyati oshmoqda. O'quvchilarning faol ishtirokini oshbatlantirish orqali ular mustaqil fikrlashni o'rganadilar.

Lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishda bir nechta samarali usullar mavjud. Maktab dasturlari orqali til o'rganish asoslari beriladi. O'quvchilar grammatica, leksika va nutq madaniyatini o'zlashtiradilar. Har kuni kitob o'qish va kundalik yozish orqali til ko'nikmalarini oshirish mumkin. Bu usul fikrlash qobiliyatini ham yaxshilaydi. Turli mavzularda muloqot qilish, bahs-munozaralarda ishtirok etish – bu suhabatlashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Til kurslari yoki onlayn platformalarda qatnashib, yangi tillarni o'rganishga qiziqishni kuchaytirish lozim. Zamonaviy texnologiyalar lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham

Adabiyotlar

- Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения. Автореф. дисс. доктора пед. наук. – Тошкент: 1998.
- Мирджалалова Л.Р. Ўзбек тили машгулотларида болаларни савол-жавобга ўргатишнинг назарий-методик асослари (талиим-тарбия рус тилида олиб бориладиган болалар боғчалари мисолида): Пед.фунд.номз. ... дисс. – Тошкент: 2001. 66-б.
- Muxitdinova X. O'zbek tili. -T.: «O'qituvchi», 2019. 128-b.
- Rafiyev A., Muhammadjonova G. O'zbek tili. -T.: «O'qituvchi», 2019. 128-b.

katta rol o'ynamoqda. Mobil ilovalar, onlayn kurslar va interaktiv platformalar yordamida til o'rganishni yanada qulaylashtirmoqda.

Lingvistik ko'nikmalarining rivojlanishi har bir insonning shaxsiy va professional hayotida muhim ahamiyatga ega. Biz ushbu usullarni qo'llab-quvvatlab, tilga bo'lgan qiziqishni oshirib borishga intilishimiz kerak.

Bu ko'nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Har bir ko'nikma alohida olinganda ham ahamiyatga ega, lekin ularning o'zaro ta'siri tilni mukammal ravishda o'zlashtirishda juda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda global iqtisodiyotning o'zgarishi va raqobatbardosh muhitning kuchayishi, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirishga bo'lgan talabni oshiradi. Zamoniaviy metodlar sifatida innovations texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq qilinishi o'quchilarda kreativ fikrlash, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi zamoniaviy metodlar nafaqat ta'lim jarayonini osonlashtiradi, balki o'quvchilarining va mutaxassislarining ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochadi. Jumladan, quyidagilarni atab o'tishimiz mumkin:

1. Onlayn ta'lim platformalari.

Coursera, Udemy, edX kabi platformalar orqali o'quvchilar turli xil kurslarda ishtirok etishlari mumkin. Bular yordamida ular malakalarini oshirib, yangi bilimlar olishlari mumkin.

2. Simulyatsiya vositalari va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni xavfsiz sharoitda o'rganishlari mumkin. Masalan, tibbiyot sohasida VR simulyatsiyalari shifokorlar uchun amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda keng qo'llaniladi.

3. Mobil ilovalar orqali odamlar har qanday joyda va har qanday vaqtda o'z ko'nikmalarini rivojlantira olishadi. Masalan, til o'rganish ilovalari (Duolingo, Babbel) foydalananuvchilarga qiziqarli formatda yangi tillarni o'rganishga yordam beradi.

4. O'quv Analitikasi.

O'qituvchilar uchun analitik vositalar yordamida ular o'quvchilarining qanchalik muvaffaqiyatlari ekanligini baholashlari va individual yondashuvlarni ishlab chiqishlari mumkin.

Ko'nikma rivojlantirish jarayonida innovations texnologiyalarni qo'llashning afzalliliklari:

— Moslashuvchanlik: O'quvchilar turli vaqt zonalarida yoki geografik joylashuvdan qat'i nazar ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

— Interaktivlik: Innovations texnologiyalar interaktiv ta'lim muhitini yaratadi, bu esa o'quvchilarining faolligini oshiradi.

— Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim dasturlarini yaratish imkoniyati.

— Resurslarga keng kirish: Internet orqali eng yaxshi mutaxassislarining bilimlari va tajribasidan foydalinish imkoniyati.

Innovations texnologiyalar ko'nikma rivojlantirish jarayonini tubdan yangilaydi. Ular nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki insonlarning kasbiy malakalarini ham mustahkamashi mumkin. Kelajakda innovations texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarurati mayjud bo'ladi. Buning natijasida biz raqobatbar-dosh kadrlar tayyorlashimiz mumkin bo'ladi.

5. Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini ta'minlash orqali nutqini rivojlantirish usullari. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. 216-b.

REZYUME. Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida izchillikni ta'minlash, shuningdek o'quvchilar nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini oshirishga yordam beradigan zamonaviy metodlar haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье речь пойдет о современных методиках, помогающих обеспечить последовательность на уроках узбекского языка, а также повысить речевую и языковую компетентность учащихся.

SUMMARY. This article will focus on modern techniques that help ensure consistency in Uzbek language lessons, as well as improve students' speech and language competence.

BO'LAJAK YO'L MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

D.B.Toreshov – assistent o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: yo'l muhandislari, kasbiy kompetensiylar, ta'lim modeli, dasturiy ta'minot, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ключевые слова: инженеры-дорожники, профессиональные компетенции, образовательная модель, программное обеспечение, развитие профессиональных навыков.

Key words: road engineers, professional competencies, educational model, software, development of professional skills.

Kirish. Yo'l infratuzilmasining jadal rivojlanishi va transport oqimlarning ko'payishi sharoitida yo'l muhandislarining kasbiy faoliyati mutaxassislardan yuqori malaka va turli xil ko'nikmalarni talab qiladi. Yo'l qurilishining sifati va xavfsizligi bilan bog'liq muammolar bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi [2:45-58]. Talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularning amaliy tayyorgarligini ta'minlash ham muhim bo'lib, bu kasbiy kompetensiyalarni shakkllantirish uchun asos bo'lishi kerak. Mavjud ta'lim dasturlari ko'pincha sohaning dolzarb talablariga javob bermaydi, bu esa yo'l obyektlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qila oladigan mutaxassislarini tayyorlashni qiyinlashtiradi [3:39-42]. Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan integratsiya qila oladigan ta'lim metodlarini yangilash va takomillashtirish zarurati sezildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak yo'l muhandislarining kasbiy kompetensiylarini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy ta'minotni takomillashtirishga ko'maklashuvchi modelni ishlab chiqishdan iborat.

Model innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini integratsiyalashni o'z ichiga oladi, bu esa zamonaviy yo'l sanoati muammolariga tayyor mutaxassislarini tayyorlash imkonini beradi [1:26-28]. Tadqiqot doirasida mavjud o'qitish usullari tahlil qilinadi va talabalar ta'lim olish jarayonida duch keladigan asosiy muammolar aniqlanadi. Shuningdek, ta'lim jarayoni sifatini va olingan bilimlarning kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligini oshirish imkonini beradigan yechim taklif etiladi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot bo'lajak yo'l muhandislarini tayyorlash darajasini oshirishga qodir bo'lgan samarali ta'lim modelini yaratishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatda yo'l infratuzilmasining sifati va xavfsizligiga ta'sir qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot metodologiyasi bo'lajak yo'l muhandislarining kasbiy kompetensiylarini shakkllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'zida muassamlashtirgan kompleks yondashuvga asoslangan. Tadqiqotning asosiy usullari va bosqichlari quydagilardan iborat:

Mavjud ta'lim dasturlari tahlili: Yo'l qurilishi sohasida mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy o'quv rejalarini va dasturlari ko'rib chiqildi, ularning mazmuni, shakkllari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratildi. Turli ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan dasturlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida ularni qiyoysi tahlil qilish.

Sotsiologik tadqiqot usullari: Talabalar va ish beruvchilarning ehtiyojlarini baholash uchun o'quvchilar, o'qituvchilar va tegishli tashkilotlar vakillari bilan so'rovnomalar va suhbatlar o'tkazildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun statistik usullardan foydalanish, bu mehnat bozorida talab qilinadigan asosiy kompetensiylarini aniqlash imkonini beradi.

O'qitish modelini loyihalashtirish: Ma'lumotlarni tahlil qilish asosida loyihaviy ta'lim, keys-usullar va amaliy seminarlar kabi interfaol o'qitish metodlarini o'z ichiga olgan ta'lim jarayonining yangi modeli ishlab chiqiladi. Yo'l sohasida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan aniq kasbiy kompetensiya va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ssenariylar va o'quv modullarini ishlab chiqish.

Modelni joriy etish va sinovdan o'tkazish: Modelning samaradorligi va qo'llanilishini bilish uchun bir nechta ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkaziladi. Modelni joriy qilgandan so'ng talabalar va o'qituvchilar o'rtasida fikrmulohazalarni olish va tayyorgarlik darajasidagi o'zgarishlarni baholash uchun fokus-guruhrar va so'rovlar o'tkazish.

Natijalarni baholash: Talabalarni testlash natijalari, ularning ta'lim jarayonidan qoniqqanligi va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi asosida joriy etilgan modelning samaradorligini tahlil qilish. Olingan natijalarni avval belgilangan mezonlar va talab etiladigan kompetensiylar bilan taqqoslash. Shunday qilib, taklif etilgan metodologiya bo'lajak yo'l muhandislarini tayyorlashning yuqori sifatini ta'minlashga imkon beradigan o'quv jarayoni uchun asoslangan tuzilmani yaratishga qaratilgan. Bu nafaqat mutaxassislarining malakasini oshirishga, balki mamlakatdagi transport infratuzilmasining umumiy holatini yaxshilashga olib kelishi kerak.

Natijalar. Yo'l muhandislarini tayyorlashning holati to'g'risida umumiy xulosalar: Mavjud ta'lim dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarining atigi 40 foizi o'quv rejasiga loyihalash va modellashtirish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish kabi yo'l qurilishida yangi texnologiyalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslarni o'z ichiga oladi. Aksariyat tayyorgarlik dasturlari barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikning dolzarb mavzularini qamrab olmasligi aniqlandi, bu zamonaviy sharoitda jiddiy kamchilik hisoblanadi.

Mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash: Yo'l qurilishi sohasida 150 ish beruvchi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning 65 foizi amaliy tajribaga ega malakali mutaxassislar yetishmasligidan azyat chekmoqda. Loyihalarni boshqarish va zamonaviy texnologiyalarni bilish tayyorgarlik dasturida bo'lishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiylar sifatida belgilandi.

O'qitish modelini ishlab chiqish va joriy etish: Olingan ma'lumotlar asosida yo'l qurilishida loyihalarni boshqarish va eng yangi texnologiyalar bo'yicha kurslarni o'z ichiga olgan yangi o'quv dasturi ishlab chiqildi. Model uchta ta'lim muassasasida muvaffaqiyatli joriy etildi va sinov natijasida talabalarning qoniqish darajasi 30 foizga oshganligi aniqlandi.

Yangi ta'lim modeli samaradorligini baholash: Aprobatsiya davomida talabalarning mutaxassislik fanlari bo'yicha o'rtacha baholari oldingi kurslarga nisbatan 20 foizga oshdi. O'qishni tugatgandan so'ng darhol o'z kasbida ishlashga tayyor talabalar sonining ko'payishi 25

foizni tashkil etdi, bu bitiruvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov nomalari bilan tasdiqlanadi.

Muhokama. Tadqiqotimiz natijalarini muhokama qilish olingan topilmalarni tahlil qilish, ularni mavjud nazariyalar va amaliyotlar kontekstida talqin qilish, shuningdek, kelajakdag'i harakatlar va tadqiqotlar uchun ehtimoliy oqibatlar haqida fikr yuritishga qaratilgan. Ish beruvchilarning 65 foizi malakali mutaxassislar tanqisligini his qilishi ko'rsatgan mehnat bozorining aniqlangan ehtiyojlari bizning yangi o'quv modelimizning dolzarbligini ta'kidlaydi. Ishlab chiqilgan dasturning joriy etilishi bitiruvchilarining raqobatbardoshligi va yo'l qurilishi sohasidagi amaliy muammolarni hal qilishga tayyorligini oshirish imkonini berishi kutilmoqda. Biroq tadqiqotimizning cheklarlarini ham e'tirof etish lozim. Birinchidan, sotsiologik so'rov uchun tanlov mamlakatning barcha hududlarini qamrab olmagan, bu esa natijalarini umumlashtirishni cheklashi mumkin. Ikkinchidan, yangi dastur samaradorligini baholash o'tkazilgan vaqt oralig'i uning bitiruvchilarining uzoq muddatlari karyera istiqbollariga ta'sirini baholash uchun yetarli darajada uzoq bo'lмаган. Yangi ta'lim modelini joriy etishning uzoq muddatlari tahlil qilishga qaratilgan keyingi tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yo'l qurilishi sohasida o'z karyerasini tanlashga onglioq yondashishga yordam beradigan talabalar uchun kasbga yo'naltirish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bizning topilmalarimizga asoslanib, o'qituvchilar uchun zamonaviy texnologiyalar va ish usullari haqidagi bilimlarini yangilashlari uchun qo'shimcha

kurslar va seminarlar ishlab chiqish kerak, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshiradi. Bundan tashqari, o'quv rejalarini ishlab chiqish jarayoniga soha vakillarini jalb etish dasturlarning dolzarbligi va amaliy yo'naltirilganligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, ushbu tadqiqot yo'l qurilishi sohasidagi ta'lim standartlari va dasturlarini qayta ko'rib chiqishning dolzarbligini tasdiqlaydi, bu esa, o'z navbatida, zamonaviy bozor tahdidlariga muvaffaqiyatli javob bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam berishi kerak.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yo'l qurilishi sohasida mutaxassislar tayyorlash muammosining ahamiyati va dolzarbligini ta'kidlovchi muhim xulosalar olindi. Biz bugungi ta'lim dasturlari zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bermasligini aniqladik. Amaliy ko'nikmalarga zarar yetkazgan holda nazariy bilimlarga tayanish bitiruvchilarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada pasaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan kurslarni qo'shib, o'quv rejalari o'zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi. Soha vakillari bilan hamkorlik haqiqiy ehtiyojlar va tendensiyalarni chucherroq tushunishga yordam beradi. Ta'lim standartlari taklif etilgan o'zgartirishlar samaradorligini uzoq muddatlari baholashga qaratilgan keyingi tadqiqotlari zarur. Shuningdek, amaliy stajirovkalar va kasbga yo'naltirish dasturlarining talabalarning martaba yo'llariga ta'sirini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Yo'l qurilishi sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash infratuzilmani barqaror rivojlanishda asosiy omil hisoblanadi.

Adabiyyotlar

- Иванов И.И. Основы дорожного строительства. –Москва: «Стройинформ», 2020. –С. 320.
- Кузнецова А.А. Подготовка специалистов в области инфраструктуры: проблемы и решения. // Вестник образования. 2022. –Т.: 35, № 4. –С. 45-58.
- Смит Дж., Браун Л. Инновации в гражданском строительстве: практики устойчивого развития. –Лондон: Академическая издательство, 2022. –С. 280.

REZYUME. Maqolada bo'lajak yo'l muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishiga qaratilgan dasturiy ta'minotni takomillashtirish modeli keltirilgan. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta'lim dasturlariga qo'yiladigan talablarning o'zgaruvchanligi sharoitida yo'l qurilishi va boshqaruvi sohasidagi mutaxassislarining yuqori malakasini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена модель совершенствования программного обеспечения, направленная на развитие профессиональных компетенций будущих инженеров-дорожников. В условиях стремительного развития технологий и изменения требований к образовательным программам важно обеспечить высокую квалификацию специалистов в области дорожного строительства и управления.

SUMMARY. The article presents a software improvement model aimed at developing professional competencies of future road engineers. In the conditions of the rapid development of technologies and changing requirements for educational programs, it is important to ensure the high qualification of specialists in the field of road construction and management.

BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA TALABALARНИ IQTISODIY İJTİMOYLASHTIRISHNING MOHIYATI

E.T.Tolepov – assistant o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiylashuv, iqtisodiy ijtimoiylashuv, talabalar, talabalarning iqtisodiv ijtimoiylashuvni.

Ключевые слова: рыночная экономика, экономические отношения, социализация, экономическая социализация, студенты, экономическая социализация студентов.

Key words: market economy, economic relations, socialization, economic socialization, students, economic socialization of students.

Turli zamon va makonlarda jamiyatlar turli siyosiy boshqaruv tizimi asosida boshqarilgan. Ko'p holatlarda ijtimoiy-siyosiy boshqaruv tizimi muayyan jamiyatdagi ustuvor qarashlar, mavjud ijtimoiy hayot, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, davlat boshqaruv organlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida nazorat qilib borishiga ko'ra shakllangan. Shu bois turli jamiyatlarda qaror topgan ijtimoiy-siyosiy boshqaruv tizimi bir-biridan keskin farq qilgan. Biroq ijtimoiy-siyosiy tizimidan qat'i nazar muayyan davrlarda aksariyat jamiyatlarda shakllangan iqtisodiy boshqaruv tizimi mulkchilik shakli (jamoat mulki, davlat mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk, aralash mulk, yakka tartibdagi xususiy mulk, korporativ xususiy mulkka egalikni ifodalash)dan qat'i nazar o'zining tarkibiy asoslariga ko'ra monoton xarakter kasb etgan. Buning asosiy sababi ijtimoiy subyektlarning bir xil iqtisodiy ehtiyojlarga egaliklari bilan bog'liq.

Hayotiy ahamiyatga ega iqtisodiy ehtiyojlar ijtimoiy subyektlarning o'z shaxsini har tomonlama rivojlanishi, shaxsiy farovonligini ta'minlash, yashash, mehnat qilish, ta'lim hamda dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga bo'lgan intilishi asosida shakllanadi. Yeyish, ichish, kiyinish, mehnat faoliyatini tashkil etish va unga haq olish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, oldi-berdi munosabatlarini amalga oshirish, shaxsiy salomatlikni saqlash, ta'lim va dam olish uchun xarajat qilish, turli shakldagi mulk, turar-joy va transport vositasiga, shuningdek, shaxsiy pul mablag'i jamg'armasiga ega bo'lish shaxsning hayotiy ahamiyatga ega iqtisodiy ehtiyojlarini ifodalaydi.

O'z mohiyatiga ko'ra ehtiyojlar "Shaxsning hayotiy faoliyati jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi. Ular shaxsning to'laqonli farovonligi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi obyektiv zaruriy hayotiy

sharoitlarni yaratishga bo'lgan ongli intilishi sifatida namoyon bo'ladi" [12:245]. Ijtimoiy subyektlarga xos shaxsiy ehtiyojlar "faol xarakter kasb etadi va shaxsni faoliyatga undovchi motiv bo'lib xizmat qiladi. O'z faoliyatini tashkil qilar ekan, shaxs ehtiyojlarning to'la qondirilishi uchun intiladi" [12:245].

Bozor munosabatlari sharoitida talabalarni iqtisodiy jihatdan ijtimoiylashtirishning umumiy mohiyatini yoritishda dastlab "ijtimoiylashuv" (yoki "ijtimoiylashish"), "shaxsning ijtimoiylashivi", "iqtisodiy ijtimoiylashuv" tushunchalarining mazmuni bilan tanishish talab qilinadi.

"Ijtimoiylashuv" (ingl. "socialization"; lot. "socialis") tushunchasining ilk asoschilaridan biri amerikalik sotsiolog Franklin Genri Giddings 1887-vilda "Itimoivlashuv nazariysi" nomli risola chop qilgan. Risolada F.G.Giddings tavanch atama vordamida "Shaxsning muayyan kishilar davrasida ular bilan foydali ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi" [17]ni ifodalaydi. Izohdan anglanadiki, muallif ijtimoiylashuv jarayonini juda tor ma'noda tushungan. Nemis sotsiologi Georg Zimmel esa 1890-yilda chop qilingan "Ijtimoiy tabaqlanish: sotsiologik va psixologik tadqiqotlar" nomli asarida ijtimoiylashuvni jamiyat nuqtayi nazaridan talqin qilar ekan, uni ijtimoiy borliqda turli ijtimoiy guruhlarning shakllanishi va birlashuv shakllarining rivojlanishi [18] ekaniga urg'u beradi. Har ikki muallifning ijtimoiylashuv borasidagi qarashlari e'lon qilinganidan keyin o'tgan 130 yil ichida tegishli yo'nalishda yuzlab tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada "ijtimoiylashuv" tushunchasining mohiyatini chuqr yoritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Turli manbalarda "ijtimoiylashuv" tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: muayyan kishilar uyushmasida o'rnatilgan xulq-atvor mafkurasi va qoidalaring o'zlashtirilishi (I.Zorina) [4]; 1) individning ijtimoiy muhitga, ijtimoiy aloqalar tizimiga kirish yo'li bilan ijtimoiy tajribalarining o'zlashtirilishi; 2) individ tomonidan uning faolligi hisobiga faol ravishda ijtimoiy aloqalar tizimini qayta ishlab chiqish jarayoni (M.E.Volchanskiy) [3]; inson shaxsining ta'lim va tarbiya, ijtimoiy rollarni, jamoaviy va shaxsiy tajribalarini o'zlashtirish asosida shakllanishi orqali uning jamiyat a'zosiga aylanishini ta'minlovchi jarayon (Filosofskiy slovar (Falsafa lug'ati) [16:420]; inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilish jarayoni (Falsafa. Qomusiy lug'at) [15:147]; individ tomonidan ijtimoiy me'yor va qadriyatlarning o'zlashtirilish jarayoni (Falsafa. Entziklopedik lug'at) [14:127]; biron-bir voqeahodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlari mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha [5].

"Ijtimoiylashuv" tushunchasi bevosita shaxsga taalluqli bo'lgani bois uning mohiyati to'g'ridan to'g'ri shaxsning ijtimoiylashuvini ham yoritadi.

B.G.Ananev psixologik nuqtayi nazaridan yoritar ekan, shaxsning ijtimoiylashuvini individning shaxs hamda faoliyat subyekti sifatida shakllanish jarayoni deya qabul qiladi. Muallif shaxsning ijtimoiylashuvida quyidagi jihatlar aks etishini aytadi: Shaxsda uning o'zi, kishilar va jamiyat to'g'risidagi bilimlar shakllanadi; amaliy faoliyat ko'nikmalari o'zlashtiriladi; ijtimoiy rollar, ijtimoiy pozitsiya va me'yorlar o'zlashtiriladi; qadriyatli yo'nalishlar aniqlab olinadi, qandaydir obyektni baholashga nisbatan ishonch yuzaga keladi; shaxs amaliy faoliyatni bajarishga kirishadi [10:101].

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga tayangan holda shunday xulosa qilish mumkin: tegishli tushuncha malliflar tomonidan yoki individga nisbatan yoki jamiyat nuqtai nazaridan yoritilgan; ijtimoiylashuv jarayonida

shaxs muayyan jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, qadriyatlar tizimini o'zlashtirib, ularga mos xatti-harakatlarni bajarish malakalarini, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi; shaxsda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar shakllanadi; ijtimoiylashuv natijasida shaxs jamiyatning a'zosi maqomiga ega bo'ladi; shaxs jamiyatning a'zosi sifatida muayyan vazifalarni bajarishga kirishadi.

B.M.Mirdianovaning fikriga ko'ra, jamiyatda keskin o'zgarishlar ro'y beradigan tarixiy bosqichlarda shaxsning ijtimoiylashuvni muammosiga nisbatan alohida qiziqish yuzaga keladi: u doimo dolzorb pedagogik vazifalarning mutlaqo yangi yechimini izlashdan iborat ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar rivojini aks ettiruvchi sifatli o'zgarishlarni ifodalaydi [6:87].

Shaxsning ijtimoiylashuvni uzoq muddatli, bir necha bosqichli, qarama-qarshiliklarga boy, tizimli jarayon sanaladi. Umrining avvalidan xotimasigacha davom etadigan ushbu jarayonda shaxs "yuzaga keladigan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni tashkil qilish asnosida duch keladigan turli vaziyatlar, sharoitlarga to'qnash keladi (bu jarayon ijtimoiy moslashish ham deb ataladi). Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda qaror topgan sharoitlarga moslashishga bo'lgan munosabting xarakteriga ko'ra tayanch asosga ega. Ijtimoiylashuv mohiyatani shaxs hayotiy faoliyatining yangi sharoitlari bilan bog'liq tug'ilishdan umrning so'nggigacha ro'y beradigan uzlusiz (inkret), ijtimoiy moslashuv esa to'xtab-to'xtab sodir bo'ladigan (diskret) jarayon sanaladi (E.M.Nikolaeva) [8:272].

Tegishli faoliyat yo'nalishlari shaxsning ijtimoiylashuvindagi ustuvorlikni yoritadi. Xususan, axloqiy ijtimoiylashuv, huquqiy ijtimoiylashuv, ekologik ijtimoiylashuv, kasbiy ijtimoiylashuv, siyosiy ijtimoiylashuv, iqtisodiy ijtimoiylashuv. Ularning har biri o'ziga xos belgilarni namoyon qiladi. Shu bilan birga ijtimoiylashuv hamda shaxsning ijtimoiylashuvni negizida aks etadigan ayrim holatlar (muayyan mikro yoki makro guruh tomonidan qabul qilingan qoida va mezonlarning o'zlashtirilishi; tegishli yo'nalishda belgilangan me'yorlar asosida harakatlanish; ma'lum xarakterdagи ijtimoiy o'zgarishlarga munosabat va ular bilan bog'liq ehtiyojni qondirishga urinish kabilari) bevosita iqtisodiy ijtimoiylashuv uchun ham xarakterli sanaladi.

Iqtisodiy ijtimoiylashuv subyektiv xarakterdagи munosabatlari fonida individning iqtisodiy munosabatlari tizimiga kirishishi va unda iqtisodiy xulq-atvor ko'nikma, malaka, tajribalarining shakllanish jarayoni (N.Afonina) [2]; xo'jalik faoliyatining chegaralanganligini ifodalovchi ijtimoiy makonning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, iqtisodiy hodisa, jarayonlar to'g'risidagi qarashlar va ularning muayyan shakllarda individ iqtisodiy faoliyatiga tatbiq etilishi, unda iqtisodiy xulq-atvorning shakllanishi (G.Semya) [11:26]; iqtisodiy ijtimoiylashuv – avloddan avlodga iqtisodiy ahamiyatga ega qadriyatlar, me'yorlar, xulq-atvor modellarining uzatilish jarayoni (M.N.Stelmarshuk) [13:32]; shaxs tomonidan jamiyatga xos iqtisodiy qarash, ishonch, qadriyat hamda iqtisodiy hayot me'yorlarining o'zlashtirilishini bildiruvchi obyekтив jarayon (A.S.Prutchenkov) [9:16] deya e'tirof qilinadi.

Bizning fikrimizga ko'ra esa iqtisodiy ijtimoiylashuv – shaxs tomonidan iqtisodiy bilim, malaka, tajriba, umumiy holda esa kompetentsiyalarni o'zlashtirish asosida bozor munosabatlari jarayonida ishtirok etishga tayyorlikni ifodalaydi.

Shaxs tomonidan muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarining o'zlashtirilishi stixiyali ravishda (o'zo'zidan) ro'y bermaydi. Balki evolyutsion tarzda, ya'ni, asta-sekin, bosqichma-bosqich sodir bo'ladi. Shu sababli tadqiqotlarda shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvida muhim bo'lgan bosqichlarni aniqlashga e'tibor

qaratilgan. Jumladan, E.V.Ankudinova shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonini quyidagi bosqichlardan iborat deb hisoblaydi: 1-bosqich: moslashuv (shaxsning atrofdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shart-sharoitlariga moslashishi); 2-bosqich: tenglashish (shaxsning ma'lum ijtimoy-iqtisodiy guruhda o'zini namoyon qilishi); 3-bosqich: individuallashtirish – ijtimoiy muhitda hayotiy faoliyatning eng samarali o'rirlardan birini egallashi); 4-bosqich: yuqori darajada individualashuv (shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy muhitda favqulodda yuqori darajani qo'lga kiritishi) [1].

Jamiyatning faol qatlami bo'lgan yoshlar sirasida talabalar asosiy guruhni tashkil qilib, ota-onalaridan, oila a'zolaridan mustaqil hayot kechiradi va tabiiy ravishda o'zlarining iqtisodiy ehtiyojlarini nisbatan mustaqil qondirishga harakat qildi. Talabalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvida o'ziga xos o'r'in tutadigan bu jarayonda ular o'zlar tomonidan umumiyl va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan iqtisodiy munosabatlarga samarali kirishishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarga tayangan holda ish ko'radi.

Tadqiqotchi G'.A.Nabiev [7] tomonidan olib borilgan ilmiy ishda uy xo'jaligini yuritish, oiladagi mehnat munosabati, pul munosabatlari, qishloq xo'jaligi munosabatlari, ishlab chiqarish munosabati (tadbirkorlik faoliyati), savdo-sotiq munosabati, soliq munosabatlari, kredit mablag'idan foydalanish, xalqaro iqtisodiy munosabat asoslaridan xabardorlik o'spirinlar (15-19 yoshli o'quvchilar) misolida shaxsning iqtisodiy munosabatlarga samarali kirisha olishi uchun asos bo'lishi ko'rsatilgan.

Muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanish o'spirinlarning iqtisodiy munosabatlarga samarali kirisha olishlariga imkon beradigan bilim asoslari va ular negizida shakllanadigan ko'nikmalarni umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan "Iqtisodiy bilim asoslari" fani doirasida qamrab olingan mavzular bo'yicha asoslagan. Shu bois G'.A.Nabiev o'z tadqiqotida alohida ajratib ko'rsatgan yo'nalishlar bo'yicha o'spirinlarda shakllantirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham belgilagan [7].

Shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvida oila muhiti, umumiyl va umumiyl o'rta ta'lim bosqichlarining o'ziga xos o'r'in tutishi inobatga olinsa, u holda OTM talabalardan mehnat (oiladagi mehnat taqsimoti, oila xo'jaligi mehnati, o'quv faoliyati)da iqtisodiy xulq-atvor tajribasini

o'zlashtirish, iste'molchilik (oziq-ovqat, kiyim-kechak), egalik (pul mablag'lari, transport vositalari, turar-joylar va boshqa ko'chmas mulklar) borasidagi qarashlarning shakllanishida ko'zga tashlanadi.

Qolaversa, talabalar tomonidan oila byudjetini rejalashtirish; haftalik, oylik va yillik daromad hamda xarajatlari bo'yicha hisobot olib borish; oila a'zolarining va shaxsan talabaning o'z ichki imkoniyatlarini, xususan, ijodkorlik va maxsus qobiliyati (masalan, badiiy ijodkorlik, kulnariya, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, tasviriy san'at, hunarmandchilik, sport, dizayn, konstrukturlik, texnik jihozlarni ta'mirlash va boshqalar)ni inobatga olgan holda qo'shimcha daromad topish choralarini ko'rish; oilavy yoki shaxsiy jamg'armani shakllantirish; jamg'arilgan moddiy mablag'ni tejash; kundalik ehtiyoj uchun uy-ro'zg'or va maishiy texnika buyumlarini sotib olish; oilaviy biznes yoki kichik tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish; oilaviy tadbirkorlik mahsulotlarini realizatsiyasini ta'minlash (mahsulotlarni reklama qilish va sotish) yo'lida amaliy harakatlarning boshlang'ich darajada yoki samarali tashkil qilinishi ularning muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvini ifodalaydi.

Demak, yuqorida ko'rsatilgan tadqiqot negizida yondashilsa, talabalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvida ularning uy xo'jaligini yuritish, oiladagi mehnat munosabati, pul munosabatlari, qishloq xo'jaligi munosabatlari, ishlab chiqarish munosabati (tadbirkorlik faoliyati), savdo-sotiq munosabati, soliq munosabatlari, kredit mablag'idan foydalanish, xalqaro iqtisodiy munosabat asoslaridan xabardorligi va ularni amalda maqsadli qo'llay olish ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, jamiyatda bozor munosabatining qaror topishi ta'sirida so'nggi yillarda "iqtisodiy ijtimoiylashuv" tushunchasining mohiyatini yoritish, shaxsni ijtimoiylashtirish yo'lida turkum tadqiqotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Mohiyati va xarakteriga ko'ra, iqtisodiy faoliyat va unga asoslangan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish murakkab, o'ziga xos qiyin jarayon sanaladi. Shu bois talabalarni bozor munosabatlariha moslashtirish, iqtisodiy ijtimoiylashtirish jarayoniga tizimi, majmuaviy yondashish talab qilinadi.

Adabiyyotlar

1. Анкудинова Е.В. Определение сущности экономической социализации // <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-suschnosti-ekonomicheskoy-sotsializatsii>.
2. Афонина Н. Введение индивида в отношение экономической социализации // https://spravochnick.ru/mikro-makroekonomika/socializaciya_ekonomicheskikh_processov.
3. Волчанский М.Е. Личность в социальной психологии и социологии: социализация как способ включения индивида в социальную среду // <http://attic.volgmed.ru/depts/psy/s/psy013.htm>.
4. Зорина И. Что такое социализация и почему она так важна в любом возрасте // <https://lifehacker.ru/socializaciya>.
5. Йэхимоийлашув. Йэхимоий муносабатлар. Йэхимоий муҳит // <https://oyina.uz/kiril/teahause/1641>.
6. Мирдиянова Б.М. Социализация как педагогическое явление // Фундаментальные исследования. -М.: 2005. № 3. -С. 87.
7. Набиев Ф.А. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг иқтисодий муносабатларга кириш кўнгикмаларини ривожлантириш технологиялари ("Иқтисодий билим асослари" фани мисолида): пед.фанл. бўйича фалс.фанл. докт. (PhD) ... дис. – Наманган: 2021. 29-б.
8. Николаева Е.М. Социализация личности как проблема социальной синергетики: дис. ... докт.филос.наук. – Казань: 2006. -С.272.
9. Прутченков, А.С. Проблемы и противоречия формирования экономической культуры учащихся современной школы: стандарт экономического образования в общеобразовательных учреждениях. / Под ред. Н.М. Кондратенко. 2-изд. – Самара: СИПКРО, 2011. -С. 16.
10. Психология общения. Энциклопедический словарь / Редактор(ы): А.Бодалев и др. – М.: "Когито-Центр", 2015. – С. 101.
11. Семья Г. Экономическая социализация детей и подростков: периодизация и результаты // Школьный экономический журнал. -М.: 1998. №. 5.-С. 26.
12. Смирнова В.А. Формы личных потребностей и их место в системе экономических отношений // Ж. Вестник Костромского ГУа имени Н.А.Некрасова. -Кострома: 2011. № 4. -С. 245.
13. Стельмашук М.Н. Экономическая социализация / Монография. -Тюмень: ТюмГНГУ, 2015. -С. 32.
14. Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. 127-б.
15. Фалсафа. Қомусий луғат / Туз. ва масъул мухар. Қ.Н.Назаров. -Т.: “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти, 2004. 147-б.
16. Философский словарь / Под общ. ред. А.П.Ярешенко. – Ростов н/Д: «Феникс», 2004. -С. 420.
17. Franklin Henry Giddings. The Principles of Sociology. An Analysis of the Phenomena of Association and of Social Organisation // <https://academic.oup.com/ej/article-abstract/6/23/426/5302616>.
18. Georg Simmel's contributions to the theory of social differentiation: a multidimensional approach // <https://raco.cat/index.php/Digitum/article/view/n27-lewkow>.

REZYUME. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda erkin bozor iqtisodiyoti shaklandi. Jamiatda xususiy mulkchilikning qaror topishi, mehnat bozorida kuchli raqobatning yuzaga kelishi har bir fuqarodan iqtisodiy bilim va faoliyat malakalariga ega bo'lishni talab qiladi. Binobarin, iqtisodiy bilimlardan xabardorlik shaxsnинг iqtisodiy jihatdan samarali ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Maqolada talabalarni bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ijtimoiylashuvini ta'minlash xususida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. За годы независимости в Узбекистане сформировалась свободная рыночная экономика. Утверждение частной собственности в обществе, возникновение сильной конкуренции на рынке труда требует от каждого гражданина наличия экономических знаний и навыков. Следовательно, осознание экономических знаний обеспечивает экономически эффективную социализацию человека. В статье говорится об обеспечении экономической социализации студентов в условиях рыночных отношений.

SUMMARY. Over the years of independence, a free market economy has been formed in Uzbekistan. The establishment of private property in society and the emergence of strong competition in the labor market require every citizen to have economic knowledge and skills. Consequently, awareness of economic knowledge ensures economically effective socialization of a person. The article is about ensuring the economic socialization of students in market conditions.

ИИВ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ КУРСАНТЛАРИДА ЎҚУВ МОТИВАЦИЯ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

**Н.Ш.Тургунов – катта психолор-полиграфолог
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги**

Таянч сўзлар: ўқув мотивация, таълим, фаолият, ташки ва ички мотивлар, ундовчи ҳаракат, ўқув жараёни, ижтимоий, қасбий муваффакият.

Ключевые слова: учебная мотивация, обучение, деятельность, внешние и внутренние мотивы, побуждающее действие, учебный процесс, социальный, профессиональный успех.

Key words: educational motivation, learning, activity, external and internal motives, motivating action, educational process, social, professional success.

Жаҳонда таълимга ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий қадриялари ва дунёқарашини шакллантиришга, чуқур назарий билим, малакалар ва амалий кўнималар бериш учун Ялпи ички маҳсулотнинг Кубада 18,7 %, Вануатуда 11 %, Америка Кўшма штатларида 5,7 %, Японияда 3,6 % миқдори ажратилган [1].

Республикамизда узлуксиз таълим шахснинг ҳар томонлами ривожланиши учун барча шарт-шароитлар яратиб келинмоқда. Таълим соҳасидаги ислоҳатларнинг асосий мақсади шахс онги, тафаккури, замонавий дунёқарашини таркиб топтиришга, даврга ҳамнафас бўлған кадрларни шакллантиришдан иборатdir.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2023 йил “Инсонга эътибор ва сифатли таълим” деб эълон қилиниши ёш авлод таълим-тарбиясига ҳар биримиздан катта масъулият билан қарашга чақирмоқда. [2].

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар доирасида ахолининг тинч ва осойишта ҳаётини таъминлаш ҳамда жамиятимизда қонунга итоаткорлик ва жамоат ҳавфсизлиги маданиятини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Жумладан, ички ишлар органларидағи ишларни “Халқ манбаатларига хизмат қилиш” тамоили асосида ташкил этишининг мутлако янги механизм ва тартиблари жорий этилиб, бунда бўлажак ҳодимларни муносабиб тарбия килиш назарда тутилган.

Шу маънода, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини ҳалқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ – 10-сон қарорига мувофиқ, ҳудудий ички ишлар органлари эҳтиёжини инобатга олиб, Ички ишлар вазирлигининг академик лицейлари битирувчилари учун Ички ишлар вазирлиги Академиясида бакалавриатнинг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти» таълим йўналишига, тўлов-контракт асосида ўқитиши назарда тутган ҳолда, 200 нафаргача қўшимча ҳар йиллик кабул квотасини киритиш белгиланди.

Шу боис, Ички ишлар органлари таълим тизимида курсантларга сифатли билим бериш масаласида

уларнинг ўқув мотивациясига ҳам алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

Маълумки, «мотивация» атамасига биринчи маротаба А.Шопенгауэр ўзининг “етарли сабабларнинг тўртга принципи” (1900-1910) номли маколосида алоҳида эътибор қаратган. Кейин бу атама инсон ва ҳайвонларнинг ҳатти-ҳаракатлари сабабларини тушунтириш учун фойдаланилган.

Агар “Мотив” тушунчасининг таърифига тўхтадиган бўлсак, баъзилар мотивни ҳаракатга туртки бўладиган психик ҳодиса сифатида қарашса, бошқалар эса шахснинг ҳатти-ҳаракатларини танлаш онгли сабаби деб тушунишади.

Ҳозирги кунда ўқув фаолиятидаги мотивлар муаммосини ўрганишга қаратилган тадқиқотлар анчагина жадаллашди. Республикаиз психологлари таълим жараёнида ўқув мотивларини ўрганишга, психологик таҳлил этишига оид кўплаб илмий тадқиқот ишларини олиб бормоқдалар. Замонавий психологияда ўқув мотивларининг турли хил янги назариялари пайдо бўлмоқда. Ўқув мотивацияси масаласи билан Ўзбекистон психологлардан Г.Давлетшин, Э.Ф.Фозиев, Ф.Б.Шоумаров, В.А.Токарева Р.И.Суннатова, А.А.Файзулаев, А.К.Сайтова, Э.З.Усмонова, М.Расурова, Ф.И.Ҳайдаровлар каби олимлар ўзига хос йўналиш яратишига муваффақ бўлишган.

Мотив ва мотивация билан боғлиқ муаммолар хориж психологлари: Ф.У.Тейлор, А.Маслоу, В.Вроом, С.Скиннер, А.Н.Леонтева, А.А.Реана, Л.И.Бозович, А.К.Маркова, О.С.Гребенюк, В.Г.Асеэва, П.М.Жейкобсон ва бошқаларнинг тадқиқотларида ўз ифодасини топган.

Шу нуқтаи назардан мотивация муаммоси бўйича кўплаб илмий изланишлар мотивациянинг табиати, феноменологияси ва моҳияти бўйича турли нуқтаи назарияларнинг хилма-хиллигини акс эттириди.

«Мотив» тушунчасига илмий таъриф берадиган бўлсак, инсонни фаолиятга ундовчи ички туртки ҳисобланади. Яъни, баъзи бир тоифа олимлари мотивни ҳаракатга туртки бўладиган психик ҳодиса сифатида талкин қилишса, бошқалари эса шахснинг ҳатти-ҳаракатларини танлашдаги онгли сабаби сифатида тушунишади. Шунингдек, мотивни шахснинг маълум бир эҳтиёжни қондиришга йўналтирувчи куч деб ҳам таъкидлашади.

Кўплаб психолог олимларнинг илмий тадқиқот ишларида мотив ва эҳтиёжлар шахсни фаолиятга ундовчи психик хусусият сифатида қаралади.

Кўриб чиқилаётган муаммо бўйича кўплаб илмий адабиётларда “шахснинг мотивацион соҳаси” тушунчасини ҳам кўриш мумкин.

Мотивация соҳасининг кенглиги унинг омилларининг сифат жиҳатдан хилма-хиллиги шахснинг мотивлари, эҳтиёжлари, қизиқишлари ва мақсадлари намоён бўлади ва шахс мотивацион соҳасининг ривожланганлик даражасини белгилайди.

Масалан: психолог Р.И.Суннатова ўз илмий тадқиқот ишларида бошлангич ва юқори синф ўқувчилари ҳамда талабаларнинг ўз-ўзини бошқариш жараёнидаги фикрлаш фаолиятларини ўрганади. Олима ўз-ўзини бошқариш жараёнларининг фикрлаш фаолиятига таъсир этиш хусусиятларини қўйидаги изоҳлаган. Муаллифнинг фикрича, “Бир томондан, ўқувчиларнинг ўз-ўзини бошқариш жараёнларида қатор ўзгаришлар мавжудлиги кўзга ташланади. Шу билан бирга, ўқувчиларда ўқув фаолиятига нисбатан қизиқишнинг ошиб бориши ҳамда ўз-ўзини бошқариш жараённада билим олишга нисбатан янгича қарашларнинг шаклланганлиги ҳам кўринади. Шунингдек, ўқувчилар ўз-ўзини бошқариш жараённада ўзини-ўзи тарбиялаш ва ўз қобилиятларини такомиллаштиришга харакат килганларни ҳам кузатилиди” деган [3].

Психолог олим А.А.Файзулаев эса ўз тадқиқотларида мотивацион жараённи босқичмабоскич таҳлил қилишни таклиф қилган. А.А.Файзулаев мотивацион жараённи бешта босқичга бўлиб ўрганади. Бу босқичлар қўйидагилар: 1 - кўзғалишнинг англанилиши; 2 - мотивнинг қабул қилиниши; 3 - мотивнинг хаётга татбик қилиниши; 4 - мотивнинг мустаҳкамланиши; 5 - кўзғалишнинг фаоллашуви кабиларни илгари сурган [4].

Бизнинг фикримизча ўқув фаолияти мотивациясининг ривожланиши омиллари умумлаштириш мезони бўйича беш гурух кўринишида намоён бўлиши мумкин.

Биринчи гурухни ўқув мотивациясини мақсадли ривожлантириш имконини берувчи дидактик (ўқитиши назарияси) принциплар ташкил этади:

- “кийинчилик ўлчови”, кийинчиликнинг оптималь даражаси принципи (Л.В.Занков);

- таълимда муаммолилик принципи (В.Оконь, А.Н.Матюшкин, М.И.Махмутов, Т.В.Кудрявцев, И.Я.Лернер);

- ўзлаштирилган ўқув материалини изчил умумлаштириш принципи (А.М.Матюшкин);

- ўқув материалида “мавҳумликдан аниқликка” томон ҳаракатланиш принципи (В.В.Давидов, А.К.Маркова);

- шахснинг фаоллик принципи, касбий фаолият мазмунини изчил моделлаштириш принципи (А.А.Вербицкий).

Иккинчи гурух омилларини ўқиши мотивациясининг ривожланишига йўналтириш асосида ажратиш мумкин:

индивидуал ёндашув;

типовик ёндашув;

топологик ёндашув (В.Ф. Моргун).

Учинчи гурухни таълимда бирон-бир психологик-педагогик назария ёки концепцияни амалга ошириш воситаларини таъминловчи мотивларни ривожлантирувчи омиллар ташкил этади:

аклий ҳаракатларни босқичмабоскич шакллантириш (П.Я.Гальперин, Н.Ф.Тализина);

муаммоли таълим (А.В.Брушлинский, А.М.Матюшкин, М.И.Махмутов);

ривожлантирувчи таълим (В.В.Давидов, Д.Б.Эльконин);

дастурлаштирилган таълим, ижтимоий тажрибани ўзлаштиришни амалга оширувчи фаолиятли ёндашув ва педагогнинг «оқ қути» принципига нисбатан бошқарувчилик таъсири (Н.Ф.Тализина);

шахсий-фаолиятли ёндашув (И.А.Зимняя);
белгили-матнли таълим (А.А.Вербицкий).

Тўртинчи гурухни анъанавий таълимда ҳам, юқорида санаб ўтилган таълимга нисбатан ёндашувларда ўз ўрнига эга бўладиган, ўқув фаолиятини ташкиллаштиришда психологик-педагогик шароитларни ўз ичига оловучи омиллар ташкил этади. Буларга:

- ўқитувчи шахснинг психологик хусусиятлари (Л.С.Виготский, Ф.Н.Гоноболин, Н.В.Кузьмина, А.К.Маркова, Дж.Брунер ва б.);

- шахсий, субъект хусусиятлари, ҳамкорларнинг ўзаро таъсири ва педагогнинг таълим оловчилар билан муносабати, ҳамкорликдаги сермаҳсул фаолиятни ташкиллаштириш (В.В.Давидов, И.А.Зимняя, В.Я.Ляудис, А.К.Маркова, Г.И.Щукина) кабилар киради.

Бизнинг фикримизча турли муаллифлар томонидан тақдим этилган мотив ва мотивация ўртасидаги фарқни қўйидаги уч шаклда ифодаланиши мумкин:

мотив > ундовчи > харакат (Х. Хекхаузен),
ундовчи (мотив) > харакат (В.И. Ковалев),
ундовчи > мотив > харакат (А.А. Файзулаев).

Психолог Э.П. Ильин, ундовчини мотивдан олиб ташлаган ҳолда мотивда ундов кучи йўқолишига олиб келиши ва у ҳақда гапириш маъноси қолмаслигини таъкидлаган [5].

Юқорида кайд этилган фикр-мулоҳазалар мотивация шахс фаоллигини ҳамда унинг хулқатворини тартибга солишининг етакчи омили сифатида кўплаб олимларнинг қизиқишини ўйғотган. Аслида, талаба билан самарали ижтимоий-педагогик ҳамкорлик қилишда унинг мотивациясининг ўзига хос хусусиятларини хисобга олиш лозим деб ўйлаймиз. Чунки реалликда талаба (курсант)ларнинг хатти-ҳаракатлари замирида мутлақо бошқа сабаблар борилигини кузатиш мумкин.

Ўқув фаолиятининг мотивацияси мақсадлар, эҳтиёжлар ва қизиқишлиар билан белгиланади ва ҳар бир талаба (курсант) учун унинг хусусиятлари уларнинг комбинациясига боғлиқ: қандай мақсадлар кўйилганлиги, муайян эҳтиёжлар қанчалик яхши амалга оширилганлиги, кимда қандай мотивлар пайдо бўлиши, қандай мотивлар борлиги қаратилган.

Бир қатор муаллифлар талабалар таълими учун ижобий мотивацияни шакллантиришга ёрдам берадиган омилларни (шартларни) кўрсатгандар [1]. Булар:

* таълимнинг бевосита ва якуний мақсадларини англаш;

* билимларнинг назарий ва амалий аҳамиятини тушиш;

* таълим фаолияти таркибида муаммоли вазиятлар мавжудлиги;

* талабалар орасида бўлажак касбига бўлган қизиқувчанлик мавжудлиги.

Бугунги кунда, ўтказилган илмий тадқиқотлар кўплигига қарамай, ИИВ Академияси турли ўқув босқичларда ўқиётган курсантларнинг ўқув мотивациясининг психологик хусусиятлари (ривожланганлик даражаси, тузилиши ва динамикаси) илмий асосда ўрганилмаган.

Биз томонимиздан олиб борилаётган тадқиқот натижаларига кўра, ИИВ Академияси курсантларнинг асосий қисми ўртача даражадаги (51,9%) ўқув мотивациясига эга эканлиги аникланди. Шунингдек, курсантларнинг 31,1% юқори даражага, 17,0 % паст даражадаги ўқув мотивациясига эга эканлиги тадқиқот давомида кўзатилди.

Турли босқичда ўқийдиган курсантлар ўртасида ўқув мотивация динамикасида бир қатор сезиларли фарқларга аниқланди. Яъни, бириччи босқичда таҳсил олаётган курсантларнинг 49,0% юқори даражадаги ўқув мотивацияга эга, бу масала иккинчи босқичда ўқийдиган курсантларда 21,3%ни, учинчи босқичда ўқийдиган курсантларда эса 29,7% ни ташкил этди.

Шунингдек, тадқикотимизда ИИВ Академияси курсантлари касбий тайёргарлигининг турли босқичларида таълим муваффакияти билан ўқув мотивларининг бешта асосий гурухлари (касбий, ривожлантирувчи ёки когнитив, прагматик, ижтимоий, шахсий)нинг боғлиқлиги ўрганилди.

Тадқикот натижаларига кўра, юқори даражадаги таълим муваффакиятларига касбий мотивларнинг барчаси шаклланиши орқали ва ўрта даражадаги ўқув натижаларига эса профессионал ва шахсий мотивлар ҳамда паст даражадаги муваффакиятга утилитар мотивлар орқали эришилётгандигини таъкидлашга имкон беради.

Шундай қилиб, ўқув мотивациясига оид ўтказилган назарий тадқикотлар қуидаги хуласаларни чиқаришга имкон беради:

1. Ўрганилган адабиётлар таҳлилига кўра, ўқув мотивацияси муаммоси хозирги кунда долзарб ва тўлиқ ўрганилмаган деган хуласага келишимиз мумкин.

2. Курсантларнинг ўқув мотивациясини шакллантиришда ҳар бир курсантнинг таълим йўналишини тадқик қилишга қаратилган усуслар ва услублар мажмусига асосланиши лозим.

3. Ўқув мотивацияси курсантнинг таълим фаолияти жараёнидаги ўз-ўзига, ўзгаларга ва фаолиятга бўлган муносабатларидағи иерархик тизим динамикасини тадқик қилиши ва шу тизим асосида ижтимоий психологик муҳитнинг яратилишига замин хозирлай олиши билан боғлиқ изланишлар кўламини ўз ичига олиши зарур.

4. Ўқув жараёни билан боғлиқ ижтимоий муҳим кўрсаткичларнинг таҳлили ҳар бир курсант шахсий фаолияти учун характерли бўлган индивидуал кўрсаткичларини ўрганиш асосида амалга оширилиши муҳим.

Кайд этилган ушбу йўналишлар мақоланинг бош тоғасини, вазифаларини, эмпирик маълумотлар кўламини билан боғлиқ ички ишлар органлари таълим тизимида ўқув мотивациясининг бугунги ҳолати ва ўзига хос истиқболларига баҳо беришда маълум назарий ҳамда амалий манба сифатида хизмат қиласи.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катый тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. -Тошкент: «Ўзбекистон» 2017. 45-б.
2. Асмолов А.Г. Психология личности: Учебник. - М.: Изд-во МГУ, 1990. –С.367.
3. Баклашов В.А. Оценка и формирование профессиональной мотивации учения у курсантов вузов МВД России - будущих оперативных работников: Дисс. ... канд. пед. наук, СПб., 2004. –С.186.
4. Давыдов В.П., Мороз И.И. Особенности воспитания курсантов различных курсов обучения. -М.: ВПА, 1983.
5. Карнакова М.Г. Особенности обучения иностранному языку представителей коренных народов Сибири (на примере вузов МВД России): Автограф. дисс. ... канд. пед. наук. - СПб.: СПб Ун-т МВД России. 2000. –С. 27.
6. Душанов Р.Х. Ички ишлар органлари тезкор-кидирув фаолияти субъектларининг психологик жиҳатлари. Монография. Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси. –Тошкент: 2022. 140-б.
7. Душанов Р.Х., Фарфьев Ё.А. Касбий психология. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. 350-б.

РЕЗЮМЕ. Мазкур маколада Ички ишлар вазирлиги олий таълим тизими курсантларида ўқув мотивациясининг муаммо ва ечимлари, уни такомиллаштиришнинг ижтимоий психологик омиллар борасидаги фикр-мулоҳазалар билдирилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлены проблемы и решения учебной мотивации курсантов системы высшего образования МВД, социально-психологических факторах ее совершенствования.

SUMMARY. This article the cadets of the higher education system of the Ministry of Internal Affairs expressed their opinions on the problems and solutions of educational motivation, the social psychological factors of its improvement.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

М.Н.Умаров – кандидат педагогических наук, профессор

Узбекский государственный университет физической культуры

Таянч сўзлар: жисмоний тарбия, восита кобилиятларини шакллантириш, кўнікмалар, маҳорат, жисмоний ривожланиш, педагогик тизим, модель.

Ключевые слова: физическое воспитание, формирование двигательных способностей, умения, навык, физическое развитие, педагогическая система, модель.

Key words: physical education, formation of motor abilities, skills, skill, physical development, pedagogical system, model.

Согласно мнения ряда ведущих теоретиков физического воспитания, а именно, М.Л.Журавина (1), Ю.Ф.Курамшина (4), Л.П.Матвеева (5), Ш.Х.Ханкельдиева (7), физическое воспитание - полиморфная и многофункциональная педагогическая система. Ее образуют ряд неоднородных подсистем, имеющих прямые и обратные связи.

Системообразующими элементами ее выступают:

- 1) цель функционирования системы;
 - 2) состояние объекта воздействия;
 - 3) специфические объединения средств и методов управления со стоянием объекта;
 - 4) аппарат сличения реального состояния объекта с параметрами
- цели и коррекции управляющих воздействий.

Цель исследования: Физическое воспитание может быть признано обеспечением совершенства психофизического состояния человека. Такое совершенство может

быть обеспечено в том случае, если объект физического воспитания - т.е. занимающийся физическими упражнениями - обладает абсолютным здоровьем, надежным двигательным потенциалом, полноценным комплексом социально-личностных психических качеств и интеллектом как инструментом реализации цели (Схема).

При этом отсутствие любой из названных подсистем модели психофизического совершенствования и их взаимосвязей исключает и само такое состояние, и правильное представление о цели совершенствования и соответственно о способах ее достижения. Причем какая-либо компенсация исключается.

Частично эти составляющие совершенствования рассмотрены в предыдущей главе. Но здесь речь пойдет о другом.

Такая модель психофизического совершенствования гипотетична. Вот почему формирующую ее цель следует воспринимать как идеализированную (ИЦ ПФС).



В связи с этим наиболее реалистична цель (и модель) ФВ, скорректированная в зависимости от состояния объекта в целом и по каждой из значимых характеристик здоровья, двигательного потенциала, «психического комплекса» и интеллекта (2,3,5,6).

В целом, и весьма приблизительно, в рассматриваемом аспекте (т.е. по состоянию отдельительных признаков) людей можно отнести к одной из четырех групп, в соответствии с чем в физическом воспитании правомерно выделить четыре направления.

Развивающе-формирующее направление в физическом воспитании.

Первое направление физического воспитания охватывает практически здоровых людей, не имеющих отклонений от нормы в состояниях различных функциональных систем (Схема).

В то же время в силу разных причин эти люди недостаточно развиты физически: имеют недостаточный или избыточный вес (причем и у тех, и у других мышечная масса мала, но у второй подгруппы наверняка в составе тела имеются излишки воды и жира); из-за недостаточной двигательной активности сердечно-сосудистая и легочная системы хотя и не имеют патологий, но не пригодны к физической работе с большим объемом и высокой интенсивностью (что часто требуется в жизни); они не могут быстро или/и долго ходить (а тем более бегать); в воде они в лучшем случае умеют купаться, но не в состоянии плыть; телосложение их далеко не только от журнальных образцов, но даже от «созерцания без сожаления»; они, как правило, неловки; даже по природе жизнерадостные, они быстро сникают, понимая свою «ущербность» - особенно в обществе физически развитых людей (3,4,5,7).

Все это приводит к тому, что такие люди быстро утомляются, негативно реагируют не только на воздействие неблагоприятных факторов, но и просто на их перемену.

При относительно нормальной, даже периодически высокой работоспособности, им требуется более продолжительный отдых для восстановления. Причем,

если для этого используется только «хорошая» пища, то в силу эндогенных механизмов и экзогенных условий (прежде всего малоактивных форм деятельности, двигательно спокойной жизни) в организме происходят такие негативные процессы, как отложение солей, защлаковывание, снижение тонуса сосудов, нарушение регуляторных механизмов, и в целом — изменение биохимии. Все это достаточно быстро приводит уже к патологическим изменениям, а вследствие этого - к болезням.

Такое положение дел наблюдается не только у людей, «отмеченных» возрастом, но и у молодых людей, составляющих социальную основу, генофонд общества.

К сожалению, этому «благоприятствуют» условия окружающей среды: большая загрязненность воздуха и воды; содержание различных канцерогенных веществ, во много раз превышающее предельно допустимые нормы; невероятно высокие уровни окружающих шумов - запредельных раздражителей для нервной системы; дискомфорт многочисленных транспортных перемещений.

К ним добавляются далеко не лучшие условия труда, огромный поток «профессиональной» информации, переработка и усвоение которой забирают энергию, ничего не добавляя здоровью.

Считается, что цивилизация облегчает жизнь человека. Вероятно, так и будет на высшем уровне ее развития. Пока же она повсеместно эту жизнь сокращает. Свидетельство тому - резкое увеличение количества болеющих людей даже в самых «благополучных» странах, сокращение продолжительности жизни. Правда, в последнем виноват и «человеческий фактор» - тот образ и режим жизни, которые люди сами для себя устанавливают, не слишком задумываясь над тем, что такое «хорошо» и что такое «плохо».

Единственный путь исправить положение - использовать физические упражнения. За чистоту окружающей среды тоже нужно бороться, но это очень сложный и долгий процесс, требующий серьезного материально-технического обеспечения. А применение

физических упражнений - проще и надежнее. Почему? Потому, что только с помощью физических упражнений можно «построить» здоровый организм. Однако при условии, что при их выборе, применении, анализе эффективности и организации процесса совершенствования будут применяться соответствующие методы. В противном случае физические упражнения могут принести вред, даже непоправимый.

В связи с тем, что сказано выше, возникают два вопроса.

Вопрос первый: Как согласовать наши стремления к улучшению состояния здоровья и постоянно ухудшающиеся условия окружающей среды?

Согласно наблюдениям специалистов и высказываниям самих занимающихся, в результате систематических занятий физическими упражнениями и искоренения вредных привычек организм становится восприимчивее к некоторым неблагоприятным факторам. Например, обычновенный человек, бросивший курить, острее ощущает загазованность воздуха; физкультурник же, хорошо продувающийся во время оздоровительных занятий в «зеленой зоне», с трудом и чувством отвращения переходит, возвращаясь домой, улицу, буквально забитую автомобильными выхлопами, и в условиях привычного обитания в городском «каменном мешке» может (хотя вовсе и не обязательно) почувствовать себя неважко: будет болеть голова, появится кашель...

На этом основании высказывается мнение о том, что в условиях экологической обстановки, сложившейся на сегодняшний день, занятия физическими упражнениями пользы не приносят - скорее, наоборот.

Такие суждения говорят не столько об оригинальности мышления, сколько о совершенной неосведомленности заявляющих это в вопросах оздоровления. В соответствующей литературе, в средствах массовой информации достаточно много научной информации по оздоровлению.

Для любителей поверхностных суждений дадим вероятно достаточное для них объяснение полезности физических упражнений в аспекте конфликта с экологией.

Занимаясь физическими упражнениями, человек развивает сердечно-сосудистую и дыхательную системы. В результате сердечная мышца начинает работать экономно и за одно сокращение перегоняет крови больше, чем сердце нетренированного человека.

Легкие за счет развитых дыхательных мышц пополняют кровь газовой смесью, необходимой для жизнеобеспечения, тоже за счет экономной работы - меньшего количества дыхательных движений. Таким образом, по сравнению с нетренированным человеком, физкультурник для одной и той же работы или для обмена веществ в состоянии покоя (так называемого основного обмена) совершил меньше дыхательных движений и сердечных сокращений — попросту говоря, меньше потребил из окружающей среды и пропустит через себя всяких вредных веществ.

Конечно, оздоровление заключается не только в этом.

Вопрос второй — очень непростой. Как физически (функционально) готовить тех людей, которые работают в неблагоприятных условиях?

Может быть, в каком-то ограниченном количестве им как раз необходимы вредные воздействия, которые обеспечат такую тренированность, которая нужна именно в таких экстремальных условиях? Тогда на этот вопрос должны ответить специалисты - это иная область.

Что же касается физкультурников и спортсменов, то ответ на данный вопрос давно ясен.

Другое дело - кто должен определять, какими упражнениями следует заниматься человеку, в каком режиме и т.п. Это должен делать специалист. Поясним смысл этого слова: не врач, ничего не понимающий в упражнениях; не инструктор физкультуры, не имеющий достаточных знаний о человеческом организме и влиянии на него физической нагрузки. Именно специалист, обладающий суммой необходимых знаний и умений.

Весьма важно принципиальное отношение к оздоровлению данной (самой многочисленной) группы людей, которых мы относим к «развивающему» направлению физического воспитания - и специалистов, и самих занимающихся.

Считается, что им более подходят упражнения с малой и средней нагрузкой, относительно непродолжительные, малоинтенсивные. Сразу уместно поставить вопрос: неужели можно с помощью таких нагрузок что-нибудь развить! Вряд ли - разве что поддержать, сохранить кондиции...

В этой связи необходимо отметить, что в физическом развитии и формировании двигательных способностей, умений и навыков неоценимую помощь оказывает опыт спорта, в процессе исторического развития которого происходит отбор самых эффективных средств и методов. Другое дело, что для конкретного контингента занимающихся (возрастного, квалификационного, полового) требуются соответствующие поправки по дозировке упражнений, режиму их применения и др. Но если нужно развить какое-либо силовое качество, гибкость или выносливость, это следует делать с помощью упражнений, отобранных из спорта, если требуется формировать координационные двигательные способности или двигательные навыки, то целесообразно применять методику технической подготовки, отработанную в различных спортивных специализациях.

Даже «строительством тела» нужно заниматься, ориентируясь не только на «бодибилдеров», но и на «обыкновенных» спортсменов, чья специализация оказывает весьма значительное влияние на формирование фигуры.

Особо следует выделить группу людей, которым в силу возраста нужно не развивать физические кондиции, имея в виду повышение потенциала, а сохранять их.

Однако для обеспечения должных кондиций опять-таки целесообразно использовать опыт спорта, который свидетельствует о том, что для их сохранения нужно разнообразить нагрузку, не допуская значительного снижения ее уровня, но в то же время не увлекаться маятникообразным варьированием величины нагрузки (как это делают в спорте), или тем более не пытаться сохранять ее постоянной, ибо возникающая долговременная адаптация приводит к снижению функциональных возможностей, а не к их сохранению.

Выводы. Таким образом педагогически целенаправленное соотнесение основных параметров двигательного действия и формирует такую «особо начиненную» форму двигательной активности, которая вызывает морффункциональные изменения в состоянии различных систем организма и механизмах управления ими, что способствует их совершенствованию и формированию – при определенных условиях – особых двигательных структур, называемых двигательными умениями и навыками.

Такими условиями являются: подчинение законам биомеханики, использование физиологических закономерностей функционирования организма и адекватность педагогических воздействий.

Литература

1. Журавина М.Л. Гимнастика: учебник для вузов / под. ред.. -М.: «Академия», 2008. –С. 448.
2. Баршай В., Курсыс В.Н., Павлов И.Б.Гимнастика. Учебник, -М.: «КноРус», 2020. –С. 312.
3. Кошбахтиев И.А. Научно педагогические основы совершенствования физического воспитания студентов: Дис.... д-ра пед. наук. –Т.: 1993. –С. 205.
4. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры: учебник для вузов. -М.: «Советский спорт», 2008. –С. 464.
5. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры (введение в теорию физической культуры; общая теория и методика физического воспитания): учебник для высших учебных заведений физкультурного профлия. 4-е изд. -М.: «Спорт», 2021. –С. 520.
6. Umarov M.N., Eshtayev A.K., va boshq. Gimnastika, darislik. -T.: Co'Ipom nomidagi BMU, 2018. 552-b.
7. Ханкельдиев Ш.Х. Педагогические особенности физического воспитания учащейся молодежи в регионах с жарким климатом.: Дис....д-ра. пед.наук. - М.: 1991. –С. 287.

РЕЗЮМЕ. Тадқиқот шуни кўрсатадики, жисмоний ривожланиш ва восита кобилиятлари, қобилиятлари ва қўнижмаларини шакллантириша спорт таҳрибаси бебаҳо ёрдам беради, унинг тарихий ривожланиши жараёнида энг самарали воситалар ва усууллар танланади. Шу билан бирга, жалб қилингандарнинг маълум бир контингенти (ёш, малака, жинсий) учун машклар дозаси, улардан фойдаланиш тартиби ва бошқалар учун тегишли тузатишлар талаб килинади.

РЕЗЮМЕ. Исследованием показано, что в физическом развитии и формировании двигательных способностей, умений и навыков неоценимую помощь оказывает опыт спорта, в процессе исторического развития которого происходит отбор самых эффективных средств и методов. В тоже время для конкретного контингента занимающихся (возрастного, квалификационного, полового) требуются соответствующие поправки по дозировке упражнений, режиму их применения и др.

SUMMARY. The study shows that in the physical development and formation of motor abilities, skills and abilities, the experience of sports provides invaluable assistance, in the process of historical development of which the most effective means and methods are selected. At the same time, for a specific contingent of students (age, qualification, gender), appropriate adjustments are required for the dosage of exercises, the mode of their application, etc.

Tálim - tárbiya teoriyası hám metodikası

“TARMOQ TEKNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUVDAN FOYDALANISH

M.X.Alaminov – fizika-matematika fanlari nomzodi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: tarmoq texnologiyari, modellashtrish, emulyatsiya.

Ключевые слова: сетевые технологии, моделирование, эмуляция.

Key words: network technology, modeling, emulation.

“Matematika va informatika” ixtisosligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga kelajakdagi faoliyatida zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni egallash imkonini beruvchi fanlardan biri bu “Tarmoq texnologiyalari” fanidir.

“Tarmoq texnologiyalari” fanni 2 kursning IV semestrida o‘rganiladi. Talabalar fanni o‘rganishga 1 va 2 kurslarda “ Informatika va raqamli texnologiyalar” fanini o‘rganayotganda olgan asosiy bilimlari bilan yondashadilar. Ushbu fanni o‘rganish natijasida talaba quyidagilarni bilishi kerak:

- Marshrutlash va kommutatsiya.
- Tarmoqni masshtablash.
- Tarmoqlarni ulash. –
- Lokal tarmoq arxitekturasini loyihalash.
- Kompyuter tarmoqlarida axborotni himoya qilish.

Fanning mazmuni ma’ruza va amaliy ishlar o’tasida taqsimlanadi. Ma’ruza kursi kompyuter tarmoqlarini loyihalashning umumiyligi nazariy asoslarni o‘rganadi va olingan bilimlarni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaydi. Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish usuli nazariya va amaliyotning optimal uyg‘unligini ta’minlaydi, bu kelajakdagi mutaxassislarini tayyorlashda juda muhim ko‘rinadi. Tabiiyki, talabalarga darhol haqiqiy tarmoq uskunalarini berishga arzimaydi. Ko‘pincha talabalar o‘zlarini simli shkaflar ustida ishlashni rad etishadi, chunki ular biror narsani buzishdan qo‘rqishadi. Shuning uchun dastlabki vazifalar emulyatorda amalga oshiriladi. Talabalar ishlar qanday amalga oshirilishining ma’nosini tushunib etgach, ular o‘z bilimlariga ishonch hosil qildilar va haqiqiy jihozlarga o‘tishlari mumkin

Ushbu fanni o‘qitishda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanan maqsadga muvofiq bo‘lib, uning mohiyati talabalarda real vazifalarini bajarish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat [1], [3].

O‘quv jarayonini uchta asosiy bosqichiga ajratish mumkin: nazariy tayyorgarlik, modellashtirish va kompyuter tarmoqlarida ishlashni amalga oshirish [2].

Nazariy ta’lim .

Nazariy ta’lim bir nechta funktsiyalarni bajarish uchun mo’ljallangan:

ta’limiy , tarbiyaviy va rivojlanadirish. Shu munosabat bilan talabalarda asosiy maqsadlarni aniqlash mumkin:

- ulardan foydalanan maqsadidagi ilmiy bilim va malakalar tizimi, o‘quv va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish amaliyoti, reproduktiv kognitiv faoliyat tajribasi;

- kasbiy dunyoqarash, ijtimoiy hayotga tayyorlik, muloqot, fuqarolik xulq-atvori normalari va qoyidalariga rioya qilish, jamoada kasbiy munosabatlari;

- ratsional texnik va fikrlash usullari, kasbiy so‘z boyligi, bilim faolligi va mustaqilligini rivojlanadirish, diqqat, xotira, ta’lim faoliyati sohasida tadqiqotchilik qobiliyatları. Nazariy mashg‘ulotlar, qoyida tariqasida, ma’ruzalar doirasida amalga oshiriladi, uni amalga oshirish uchun proyektor uskunalar yoki kompyuter laboratoriysi o‘rnatilgan auditoriyani ajratish kerak. Shunday qilib, o‘qitiladigan materialning aksariyati interaktiv tarzda taqdim etilishi kerak. Faoliyatning vizualizatsiyasi murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashning eng samarali elementlaridan biridir. Bu o‘quv jarayonining ajralmas qismidir.

Vizualizatsiya olingan bilimlarni idrok etish, yodlash va tahlil qilishni kuchaytirishga, tasavvurni rivojlanadirishga, kognitiv qiziqishni faollashtirishga va olingan ma’lumotlarni real muammolarni hal qilish bilan yanada bog‘lashga yordam beradi. Ushbu bosqich quydagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak: kompyuter tarmoqlari asoslari, OSI modeli, IP-manzillash, telekommunikatsiya tizimlarining va aloqa kanallarining xususiyatlari, shuningdek, tarmoq tugunlarini yagona hisoblash tizimiga ulash sxemalari, tarmoq topologiyasi.

Tarmoqni modellashtirish. Modellashtirish jarayoni quydagi larda imkon beradi:

- tok uchun zarur jihozlarni aniqlash ;
- joriy ehtiyojlarni hisobga olgan holda uskunalar turlarini tanlash va uskunalar narxi mezoniga asoslangan rivojlanish istiqbollari;
- tashkil topgan kompyuter tarmog‘ining ishlashini tekshirish tavsiya etilgan uskunalar;
- tarmoq sig‘imini baholash;
- tuzilmadagi zaifliklarni aniqlash va bartaraf etish;

- shaxs faoliyatining zaruriy hisob-kitoblarini amalga oshirish komponentlari.

Ta'lim maqsadlarida bepul kompyuter tarmoqlarini emulyatsiya qilish tizimlarini ko'rib chiqish etarli bo'lib, ular orasida quyidagilar keng qo'llaniladi:

Mininet - bu kompyuter tarmog'ining emulyatori. Xostlar, kalitlar, aloqa kanallari, marshrutizatorlarni o'z ichiga oladi.

Net Emul - bu kompyuter tarmoqlarini modellashtirish dasturi. Bu oddiy yoki murakkab tarmoqlarni loyihalash va ma'lumotlar oqimini tahlil qilish, turli simulyatsiya rejimlarini yaratish uchun ishlataladigan kuchli, keng qamrovli ta'lim dasturi.

Net-Simulator - bu paketli kommutatsiyalangan tarmoqlar va paketlarni

marshrutlashning turli usullarini simulyatsiya qilish uchun simulyator.

Tarmoqni modellashtirish kompyuter sinflarida laboratoriya mashg'ulotlarining bir qismi sifatida amalga oshirishi kerak. Buning uchun tegishli kompyuter tarmog'ining emulyatsiya tizimini o'rnatish yetarlidir. Bizning fikrimizcha, o'quv maqsadlari uchun eng oddiy va ayni paytda juda funksional simulyator Net-Simulator hisoblanadi.

Net-Simulator dasturchi yoki tarmoq ta'minotchisiga tarmoq topologiyasini, paketlarni yo'naltirish usulini, har qanday tarmoq kanalining o'tkazuvchanligini, tarmoq yuklamasini, paket uzunligini va paketlar sonini taqsimlashni o'zgartirish orqali tarmoq xatti-harakatlarini taqlid qilish imkonini beradi.

G'oyalarni tahlil qilish va baholash: O'quvchilar o'z takliflarini bildirgandan so'ng, taklif qilingan g'oyalalar muhokama qilinadi. O'quvchilar va o'qituvchi ularni ilmilik, qo'llanuvchanlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan baholaydilar.

6. Darsni yakunlash (5 daqiqa)

- Asosiy xulosalarni umumlashtirish:
- termodinamika qonunlari energiyani tejash nima uchun muhimligini tushuntiradi.

- Energiyadan samarali foydalanish atrof-muhitga ta'sirni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

- Energiyani tejash nafaqat ekologiyaga, balki iqtisodiyotga ham yordam beradi (isitish, sovitish va energiya iste'moli xarajatlarini kamaytirish).

Adabiyotlar

1. Шамова, Т.Н. Экологическое воспитание на уроках и во внеурочной деятельности физики. // Наука и образование в XXI веке. – Москва: «Наука», 2018. – С. 29-30.
2. Сооронбаева Н.А. Экологическое воспитание на уроках физики. // Известия вузов Кыргызстана. – Кыргызстан: «Илим», 2018. - С. 47- 49.
3. Зиятдинов Ш.Г., Миркин Б.М. Роль курса физики в экологическом образовании учащихся. // Вестник Башкирского университета. 2006, вып. 11, № 2, -С. 127-130.
- 4.
5. Отарбаев А.Е. Методика формирования интереса школьников к физике. // “Таълим фан ва инновация” № 3. –Ташкент: 2024. 8-10 варок.
6. Камалов А.Б., Отарбаев А.Е. Интеграция экологических проблем в школьный курс физики. // Проблемы, решение, методика преподавания современной физики и астрономии. Международная научно-практическая конференция 16-апреля. – Ташкент: 2024. –С. 816-818.
7. Имашев Г. Экологическое образование в курсе физики. // Вестник Атырауского университета. 2022, вып. 65(2), -С. 59-71.
8. Lawton J.H. Are the general laws in ecology? // Oikos, 1999. V. 84. № 1. -P. 177-192.

REZYUME. Maqola o'quvchilarning ekologik muammolarini anglashida fizika qonunlarini integratsiyalashga bag'ishlangan. Muallifning fikricha, fizikani o'rganishda ekologik jihatlarni kiritish o'quvchilarga fundamental fizik qonunlar va iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va energiya tejamkorligi kabi global ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglashga yordam beradi. Muallifning ta'kidlashicha, fizik qonuniyatlarini real ekologik masalalar kontekstida o'rganadigan fanlararo yondashuv o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirishga yordam beradi.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена интеграции законов физики в осознание учащимися экологических проблем. Введение экологических аспектов в изучение физики, по мнению автора, помогает учащимся глубже осознать связь между фундаментальными физическими законами и глобальными экологическими проблемами, такими как изменение климата, загрязнение окружающей среды и энергосбережение. Автор утверждает, что междисциплинарный подход, при котором физические законы изучаются в контексте реальных экологических задач, способствует формированию экологического сознания у учащихся.

SUMMARY. The article is dedicated to integrating the laws of physics into students' awareness of environmental problems. The introduction of environmental aspects into the study of physics, according to the author, helps students to better understand the connection between fundamental physical laws and global environmental problems, such as climate change, environmental pollution, and energy conservation. The author argues that an interdisciplinary approach, in which physical laws are studied in the context of real environmental problems, contributes to the formation of students' environmental awareness.

O'qituvchi: Bugun biz fizika va ekologiya bir-biri bilan qanday bog'langanini ko'rdik. Termodinamika qonunlari energiya iste'moli bilan bog'liq ekologik muammolarni yaxshiroq tushunish va hal qilishga yordam beradi.

7. Uy vazifasi (2 daqiqa)

1. Termodinamika darsligidan paragrafni o'qib, savollarga javob berish.

2. "Mening uyimda energiyani tejash" mavzusida mini-loyiha tayyorlash: yuda energiya iste'molini yaxshilash usullarini taklif qilish (masalan, issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash, lampalarni energiya tejaydiganlariga almashtirish).

Refleksiya (xohishga ko'ra, 3-5 daqiqa)

• O'quvchilar bilan darsda ularga nima ko'proq yoqqanini muhokama qilish.

• O'quvchilar nimalarni o'rganishganini va termodinamika bo'yicha olishlarini baholashlari mumkin.

Kutilayotgan natijalar:

• O'quvchilar termodinamikaning asosiy qonunlari tushuntirib bera oladilar.

• Energiyani tejash va ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish.

• Energiyadan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun fizik qonunlarni qo'llay olish.

Xulosa. Fizikaning ekologik kontekstga integratsiyalashuvi ekologik mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash yo'lidagi muhim qadamdir. Termodinamika va gidrodinamika kabi fizika qonunlari ekologik jarayonlarni tushuntirish va barqaror rivojlanishga yordam beradigan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun kuchli vositalarni taqdim etadi. Ta'lim jarayonida fanlararo yondashuvdan foydalanish muhim jihat bo'lib, u nafaqat tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, balki o'quvchilarda ekologik xavfsiz yechimlarning ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Shunday qilib, taklif etilgan uslubiy yondashuvlar va ta'lim amaliyoti o'quvchilarda fizik qonunlar va real ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, ularning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha global sa'y-harakatlardagi rolini chuqur tushunishni shakllantirishga yordam beradi.

91

KARBON KISLOTALARÍ TEMASÍN JAÑA PEDAGOGIKALÍQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARÍNDA ÚYRENIW

G.U.Utenova – oqitiwshi

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámlekетlik pedagogikalıq institutı

N.J.Uzaqbergenov – magistrant

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámlekетlik universiteti

Tayanch so‘zlar: blits-savol, aqliy hujim, innovatsiyon usul, ijodkorlik sheriklik, karbon kislotalari, intuitsiya.

Ключевые слова: блиц-вопрос, мозговой штурм, инновационный метод, кооперативное партнерство, угольные кислоты, интуиция.

Key words: blic-questions, brainstorming, innovation method, cooperative partnership, carbonic acids, intuition.

Házirgi rawajlanıwlar dáwiri tálimniń barlıq basqıshlarında ximiya pánin oqıtılw sistemasın jáne de jetilistiriw, pedagoglardiń nátiyjetli miynetin qollap-quwatlaw, ilímiy-izertlew jumıslarınıń kólemin keñeytiw hám ámelijetin asırıw, xalıq aralıq jámiyetshilik penen baylanıslardı bekkemlew, sonıń menen birge, Ozbekstan republikası joqarǵı tálim sistemasın 2030-jılga shekem rawajlandırıw koncepsiyasında ámelje asırıwga tiyisli Mámlekетlik baǵdarlamasında belgilengen. Birinshiden, texnikanıń rawajlanıwı ximik ilimpazlar aldına teoriyalıq tärepten islep shıǵarılıwı kerek bolǵan bir qatar mäselerlerdi qoyadı. Bul mäselerlerdi sheshiliwi óz gezeginde ximiya pániniń jáne de rawajlanıwına sebep boladı. Ekinshiden, ximiya páninde jaratılıp atırǵan jańa teoriyalar jáne bul teoriyalardı ámelijatqa nátiyjeti ámelde qollanıw texnikası aldına belgili strukturalı materiallardı jaratıw mäselenin qóyadı. Mámlekетtimizde tálim-tárbiya sistemasın tupten reformalaw, onı zaman talapları dárejesine kóteriw, keleshek ushın bárkámal áwladtı tárbiyalaw isleri mámlekет siyasatınıń tiykarǵı baǵdarına aylandı.

Ózbekstanda alıp barılıp atırǵan reformalardan tiykarǵı maqset, mámlekетtimizde salamat hám bárkámal, bilimli, joqarı ruwxıy - etikaliq paziyletlerge iye bolǵan áwladtı qálidestiriwden ibarat. Usı maqsetke erisiw ushın húrmetli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev basshilígında jańa dáwirdé jasaytuǵın, jańasha pikirleytuǵın, jańa islep shıǵarıw, social sharayatlarda iskerlik kórsetetuǵın, zamanagóy kásiplik uqıpǵa iye bolǵan qánige kadrlar tayarlawdiń -o'zbek modeli jámiyyette nátiyjeti ámelde asırıw bolıp tabıladı.

Ózbekstanniń keleshegi, onıń perspektivasi, birinshi náwbette jaslar tárbiyasına, olardı sağlam etip ósırıwge, milliy ideya, milliy ideologiya hám óz watanına sadiqlıq ruwxında tárbiyalawǵa baylanıshı bolıp, bul quramali processi tabisı ámelje asırıw gárezsiz mámlekettiń eń aktual wazıypalarınan biri bolıp tabıladı. Sol sebepten de búgingi künde jaslardıń tálim-tárbiyası gárezsiz Ózbekstanniń mámlekет siyasatında úlken áhmiyetke iye bolıp atrı.

Házirgi künde tálim procesine jańa pedagogikalıq texnologiyalardı qóllaw tarawdaǵı ilimiy izertlewler pedagogika páninde eń zárúrlı wazıypalar dan biri bolıp atrı.

Oqıw procesinde jańa pedagogikalıq texnologiyalardan ónimli paydalaniw oqıwshılardıń döretiwshilik aktivligi, izleniwshılıgi, ózbetinshe islewge umtılıwı sıyaqlı unamlı jaǵdaylardi qálidestiriwdiń eń nátiyjetli usılı bolıp tabıladı. Sabaq hám laboratoriya shınıgwılardıń qızıqlı, básekitartısqı bay hám sabaqtıń mazmunlı boliwı, oqıwshılardı sabaqǵa qızıqtıra aliwi oqıtwshılardan sheberlik hám de túrlishe oqıtılw usılların qóllawdi talap etedi.

Organikalıq ximiya pánin oqıtılwda innovaciyalıq texnologiyalardan paydalaniw mäselerlerine de toqtalamız. Atap aytqanda, karbon kislotalar temasına qanday innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalardı qollap sabaq ótiwge toqtalamız. Innovaciyı - tálim sistemasındaǵı hár qanday jańalıq, basqasha aytqanda innovaciyı - bul tálim sistemasına hár qanday jańalıqtı kırızıwı, qóllaw degen manisti aňlatadı.

Organikalıq ximiya pánin oqıtılwda da innovaciyalıq usıllardıń tómendegi túrlерinen paydalanyladi:

1. Kishi toparlarda islew.
2. Aqliy hújim.
3. Sın kózqarastan oylaw.
4. Debatlar.
5. Kózqarasıń bolsın.
6. Rollı oyinlar.
7. Arnawlı bir jaǵday (jaǵday) di úyreniw.
8. Hár kim hár kimga úyretedi.
9. Mashqalalı oqıtılw texnologiyası.
10. Venn diagramması.
11. Modifikasiyalanǵan lekciya.
12. Bumerang hám t.b.

Joqarida keltirilgen innovaciyalıq usıllardan hár birewiniń mazmuni, qollanılıwı hám abzallıǵı metodikalıq ádebiyatlarda keń kórsetilgenligi sebepli usı tarawǵa toqtalamız.

Biz tańlaǵan izertlew teması boyinsha pedagogikalıq tájiriye-sınaqlardı ótkeriw jıllarında innovacion usıllardıń modellestiriw, kórsetiw, kishi toparlarda islew, Aqliy hújim lekciya hám laboratoriya sabaqların ótkeriwde keń paydalandıq. Sol orında aytıwimiz kerek, qandayda bir temada yamasa laboratoriya shınıgıwin oqıtılwda bul usıllardıń bir neshe túrlерinen paydalananı, basqasha aytqanda hár bir ótkerilgen sabaqta innovaciyalıq texnologiyalardıń bir neshe túri birgelesip júzege shıǵadı. Misali, organikalıq ximiyadan ámelijet shınıgwılarda ótiletuǵın “Karbon kislotalar” temasın úyreniwdi alayıq.

“Aqliy hújim” strategiyası

Strategiya talabalardı tema haqqında keń hám hár tárepleme oylaw, óz qıyalları, ideyalarınan unamlı paydalaniwǵa tiyisli kónlikpe, ilmiy tájiriybelerdi payda etiwe baǵdarlanadı. Ol járdeminde islenen shınıgwılarda qálegen mäseler boyinsha bir neshe original (ayrıqsha) sheshimlerdi tabıw mümkinshılıgi tuwiladı. Strategiya tema dóğereginde belgili kóz qaraslardı aniqlaw, olarǵa alternativ ideyalardı tańlaw ushın sharayat jaratadı.

Innovaciyalıq usıllardan taǵı biri mashqalalı jaǵday jaratiw arqalı programmanıń qandayda bir temasın ótiw, bunda oqıtwshi mashqalalı rawajlandıratuǵın tálim programmaların biliwı hám ol járdeminde talabalardıń gárezsiz oqıw iskerligin shólkemlestiriw hám támiyinlew wazıypaları turadı.

Bul usılda jańa temanı úyreniw sáwbet arqalı ámelje asırıladı. Bul usılda oqıwshılarda aldin ózlestirilgen temadan jańa temanı ózlestirıw ushın sistemali hám turaqlı paydalaniw hám de jańa tema menen kerekli baylanısti ornativ píkirlewdi kóbirek aktivlestiredi hám bilimlerdi puqtalaw ózlestiriwge járdem beredi. Bul usılda oqıwshılardıń jańa temanı ózlestirıw procesi, sol waqıtqa shekem belgili bolǵan bilimlerdiń az-azzdan rawajlanıwı, onı jańa jaǵdaylarǵa qóllaw tiykarında kórinetuǵın boladı.

Soni da atap ótiw kerek, usı waqıtqa shekem oqıtwshi barlıq oqıw materialdı ózi bayap, oqıwshılar bolsa tińlawshı bolatuǵın edi. Keleshekte oqıwshı iskerligin aktivlestiriw hám jedellestiriwge tiykarlangan pedagogikalıq texnologiyalarǵa ótiw zárür. Mashqalalı tálim oqıtwshi shaxsıń aktivlestiriwge xızmet etedi. Ámelij sabaq shınıgıwin organikalıq ximiya pániniń uglevodorodolar temasına baǵışlap, bul temanı oqıwshılar jetkilikli dárejede ózlestirıwleri ushın “Blic-soraw” dep ataliwshı innovacion metodtan paydalananız. “Blic-soraw” (ing. “blic” – tez, tezlik penen) metodi berilgen sorawlarga qısqa, anıq hám tınıq tárizde juwap qaytarılıwın talap etetugin metod sanaladı. Tálım dárgaylarda bul metodqa muwapiq sorawlар, tiykarinan, oqıtwshi tárepinen beriledi. Berilgen sorawlarga juwaplar toparlıq, juplıq ýaki individual tárizde qaytarılıwı mümkin. Juwap qaytarılıw forması shınıgıw túri,

úyrenilip atırğan temanıń quramalılığı, studentlerdiń qamtip alınıwina qarap belgilenedi.

Shiniǵılarda metodi qollaw tómendegishe ámelge asırıldı:

-Oqitiwshi úyrenilip atırğan tema, arnawlı quram bólümler mánisiniń ashıp beriliwın talap etetüǵın sorawlardı islep shıǵıp, oqiwshılar názerine usinis etiledi

-Studentler berilgen sorawǵa qısqa müddete anıq, tınıq juwap

-Topar (juplıq)da islewde bir student berilgen sorawǵa juwap qaytaradı (oniń toparlasları juwaptı tolıqtıradı, (birraq, pikirler tákirlanbawı lazım).

Metodi qollawda temaǵa sáykes tayanış túsınikler, tiykarǵı ideyalardıń mánisi studentler tárepinen áwizeki, jazba ýáki súwret (keste, diagramma) tárzinde jaritiliwı mûmkin.

Usı usılda ótilgen tema tákirlarlap alınadı. Buǵan 20 minut waqt sarıplanadı. Qalǵan waqt dawamında - aqlıy hújim usılı tiykarında sabaq dawam ettirildi:

Ne? Qayerde? Qashan?

Aqlıy hújim tárkı hám basqıshılar:

Aqlıy hújimde hár qanday pikir inabatqa alnadı. Aqlıy hújim úsh basqıshdan shólkemlestiriledi:

1) Mashqalanıń qoyılıwı

2) Ideyalar generaciysi:

Ideyalar kóp boliwı mûmkin. Bul orında shegara qoyılmayıdı.

Sin pikirge jal qoyılmayıdı. Eń abstrakt ideyalar da inabatqa alnadı. Ideyalar bahalanbaydı. Hámme ideyalar ulıwmalastırıladı.

3) Ideyalar toparlanıwi, tártipke salınıwı hám eń áhmiyetke iyeleri ajiratlıwı.

Hár bir oqiwshıǵa karbon kislotalardıń ximiyalıq qásyetleri hám alınıw usılları boyinsha reakciya teńletemeleri jazıp keliw tapsırıladı. Qadaǵaław qolay boliwı ushin jurnaldaǵı tárkıb nomeri boyinsha reakciya tańlawları talap etiledi. Ximiyalıq reakciyalardı jazıw procesinde topardaǵı jetekshi oqiwshılar átirapına 3-4ew den topar boliwına ruxsat. Ximiyalıq reakciyanıń bariw procesi hám mánisin oqiwshı onı qanday usılda jazılıwına qaramastan júdá jaqsi túsınip alǵan boliwı shártligi talap etiledi.

Ádebiyatlar

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalıkda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qoshma majlisidagi nutq. / Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. 56-b.

2. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagı ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 48-b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son farmon.

4. 2023 yilları 11 sentyabrda Üzbekestan Respublikası Prezidentinining «Üzbekestan - 2030» strategiyası týfriksida»gi 158-son Фармони қабул килинди. Хужжат ЎзА томонидан чоп этилди.

5. Ixtiyarova G.A., Bekchanov D.J., Ahadov M.Sh. Kimyonı o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. -Toshkent: 2020.

6. Abdisamatov A., Mirzayev R., Ziyayev R. Organik kimyo. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun. -Toshkent: «O'qtuvchi» 2011.

7. Mamadiyorova H., Shakarov N. Organik kimyo. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun. -Toshkent: «O'qtuvchi» 2011.

8. Shohidoyatov H.M., Xojaniyozov H.O., Tojimuhamedov H.S. Organik kimyo. -T.: «Fan va texnologiya», 2014.

REZYUME. Maqolada karbon kislotaları mavzusunu o'qitishda interaktiv metodlarnı o'z o'rniда foydalaniş va o'quvchilarining kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarını orttirish, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarını shakillantirish bo'yicha metodik usullar va ularning ahamiyatlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются методические приемы и их значение для использования интерактивных методов в преподавании предмета «Карбоновые кислоты» и повышения интереса учащихся к химии, формирования навыков самостоятельной работы.

SUMMARY. In the article, the use of interactive methods in the teaching of carboxylic acids, the analysis of methodical methods and their importance in order to increase the students' ability to work and interest in chemistry, and to form their independent work skills done.

ONGLI INTIZOM NEGIZIDA AXLOQ FUNKSIYALARI VA MADANIYATI

Sh.S.Usmonova – o'qituvchi

Andijon davlat universiteti

Tayanch so'zlar: axloq funksiyalari, axloqiy ong, axloqiy munosabatlar, axloq madaniyati.

Ключевые слова: моральные функции, нравственное сознание, нравственные отношения, нравственная культура.

Key words: moral functions, moral consciousness, moral relations, moral culture.

Axloq – jamiat, zamon insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir. Axloq

Ximiyalıq reakciyalar naduris islengen táǵdırde de naduris dep sin qilinbasdan, oǵan qaytadan imkaniyat beriw talap qilinadi. Buniń ushin óziniń toparındaǵı jetekshi oqiwshıdan másláhat alıwi usinis etiledi.

Usı usıllarda karbon kislotalar temasındaǵı bilimler oqiwshılar tárepinen ózlestirilip, keleshekte ózleriniń ómirlık iskerliginde qollawi mûmkin boladi.

Oqitiwshi oqiwshıldı sabaq procesinde qatnasiwın esapqa alıp, olardıń häreketlerine say túrde ballar jardeminde xoshametleydi.

Joqarida kórsetip ótilgenindey, hár bir interaktiv metod tálım-tárbiya sapasın jaqsılaw, natiyeliligin asırıw, oqitiwshi hám tálım alıwshılar, oqiwshı hám oqiwshılar toparı, sonıń menen birge, jámáát ortasında óz-ara sheriklikti payda etiw, ideoologiyalıq hám psixikalıq birliske erisiw, bir maqsetke umtılıw, hár bir tálım alıwshınıń ishki mûmkinshiliklerin ámelge asırıw, shaxs retinde kórinetuǵın boliwi ushin zárür sharayatlar hám de ortalıqtı jaratiwa ulken mûmkinshiliklerige iye.

Interaktiv metodlar óz mánisine kóre bilimlendirilew tiyisli yaması tárbiyalıq maqsetlerdi ámelge asırıwda belgili dárejede nátiyjege erisiwde támilyinlesede, biraq, olardıń hár biri tálım yaması tárbiya procesinde nátiyeli támilyinlew boyinsha túrli mûmkinshiliklerge iye. Usiniń sebebinen oqitiwshılar interaktiv metodlardi tańlawda úyrenilip atırğan tema, yaması sheshiliwi kerek bolǵan maselege itibar qaratiwlari maqsetke muwapiq bolip tabıladı. Qala berse, interaktiv metodlardi nátiyeliligi jáne de asadı, qashanda, oları qollanıwda tálım oqiwshıldıń jas, psixologiyalıq qásiyetleri, dúnyaǵa kóz qarasları, turmis tájiriybeleri inabatqa alınıwı kerek. Bul oqitiwshıldan kásiplik sheberligi, ilmiylik, bilimlilik, sezgirligi hám intiuiçiyaga iye boliwdı talap etedi.

Respublikada úzliksız tálım sistemasınıń túrli basqıshlarında iskerlik alıp baratuǵın oqitiwshıldan hár bir interaktiv metodtnıń mánisi, ózgesheligi, qollanıw shártleri menen tolıq tanisip shıǵıw, ámeliy áhmiyetin turı bahalay alıw talap etiledi. Usı maqala bilimlendiruw tarawinda iskerlik alıp baraturǵın pedagoglar ushin ámeliy derek bolip xizmet etedi degen úmittemen.

boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Axloq ijtimoiy xodisa sifatida insoniyat jamiyatni vujudga kelishi bilan bir vaqtida jamoalar bilan shaxslar o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqa tarzida vujudga kelib, o'zining tarixiy taraqqiyotida:

- insonning tabiiy xislatlarini o'zgartiruvchi, yaratuvchi faoliyati shaklida umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi;

- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;

- kishilarning ichki tuyg'ularini, hissiyotlarini o'stirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarini anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo'llaridan eng afzali;

- oila va kundalik turmushda mayjud bo'lgan oilavy burch, o'zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an'analarни nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tkazish asosida davom ettirish vositasi;

- adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g'oyasi sifatida muntazam ravishda rivojlanib kelgan va rivojlanadi.

Axloqning negizini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlari, mehnat taqsimoti, aholining yoshi va ularning ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma-xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir vaqtida, uni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

- vatanparvarlikni tashkil qiladi. Shubhasizki, ana shu negizlar asosida O'zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma'naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o'z navbatida xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisobnadi.

Axloqning jamiyat hayotida tutgan o'rni u bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi.

Regulyativ funksiyasi – axloqning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Regulyativ funksiya shaxs, xizmat jamoasi, davlat va jamoat institutlari faoliyatini jamiyatda mayjud bo'lgan axloqiy normalar asosida boshqarib turishni anglatadi. Shu maqsadda bir qancha vositalarga tayanadi: axloqiy prinsiplar, jamoatchilik fikri, axloqiy avtoritet, an'analar, urf-odatlar va hokazo. Axloq nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatning ham hulq-atvorini boshqaradi.

Aksiologik funksiyasi (baholash) – yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday axloqiy xatti-harakat u yoki bu qadriyatlar sistemasi orqali baholanadi. «Axloqiy-axloqsiz», «yaxshi-yomon» nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda xatti-harakatlar, munosabatlari, motivlar, qarashlar, shaxsiy sifatlar baholanadi. Axloq inson tomonidan qadriyatlarni o'zlashtirish, ularni rivojlantirishni ham nazorat qiladi.

Informatsion (bilish) funksiyasi- axloqiy bilimlar hosil qilishga qaratilgan bo'lib, axloqiy prinsiplar, normalar, kodekslar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi informatsiya manbayi hisoblanadi. Shu bilan birga odatiy va ekstremal vaziyatlarda, konfliktli va tang holatlarda axloqiy tanlov masalasiga e'tibor qaratiladi. Demak, axloq olamni, insonni, uning mohiyatini, hayotining ma'nosini anglashga yordam beradi.

Tarbiyaviy funksiyasi – har qanday tarbiya tizimi – bu eng avvalo axloqiy tarbiya tizimi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya axloqiy norma, odat, an'ana, umumiyl xulq-atvor namunalari aniq tashkiliy tizim holiga keltiradi, axloqiy bilimlarni axloqiy ishonch-e'tiqodga aylantiradi, konkret vaziyatlarda axloqiy bilim va ishonch-e'tiqodni qo'llashda

ijodiy yondashuvga o'rgatadi. Demak, axloq nafaqat norma va qoidalarga rioya qilishni, balki o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi.

Shu yerda, axloqning alohida funksiyalarini ajratish shartli xarakterga ega ekanligini qayd qilish lozim. Chunki real hayotda ular bir-biri bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Axloq bir vaqtning o'zida boshqaradi, tarbiyalaydi, yo'naltiradi va hokazo. U aksioligik xususiyatga ega. Ya'ni, axloqiy bilimlar insoniy munosabatlari va ijtimoiy voqelik hodisalarini baholash asosida vujudga keladi. Bu baholashning asosiy mezoni kishilarning «nima yaxshi-yu nima yomonligi» haqidagi tasavvurlari hisoblanadi. Bunday baholash ham jamiyatga, ham alohida shaxsga xosdir. Shu tariqa axloqiy qadriyatlardan ijtimoiy va individual tizimlar vujudga keladi. Bu tizimlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir insonda turlicha namoyon bo'ladi. Shaxs faoliyatida ijtimoiy qadriyatlari tizimi ustun bo'lsa, u ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi, uning dunyoqarashida jamoatchilik tamoyili ustun bo'ladi. Aksincha bo'lsa, inson o'zining shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yadi, dunyoqarashida individualizm prinsipi ustun bo'ladi.

Aslida axloqiy ideallar, tamoyillar va normalar kishilarning adolat, insoniylik, ezzulik, yovuzlik, ijtimoiy farovonlik haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqqan. Bu tasavvurlarga mos keluvchi xatti-harakatlar axloqiy deb, zid keladigan xatti-harakatlar axloqsizlik deb e'lon qilingan.

Boshqacha qilib aytganda, kishilar fikricha jamiyat va shaxs manfaatlariiga mos keladigan, insonlar uchun foydalni bo'lgan xatti-harakatlar axloqiydir. Albatta, bu tasavvurlar tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib borgan, turli sinflar, ijtimoiy guruhlarda turlicha bo'lgan.

Xususan hozirgi vaqtida huquqni muhofaza qilish idoralari kasb axloqida uch turdag'i axloqiy norma va tamoyilla amal qiladi:

- 1) huquqni muhofaza qilish idoralari kasb axloqining asosiy mazmunini umuminsoniy axloqiy normalar tashkil qiladi. Lekin ularning ba'zilari, masalan, jasurlik, burchga sodiqlik, adolatparvarlik asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

- 2) bu yerda yana faqat huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlariga xos axloqiy norma va prinsiplar amal qiladi. Masalan, ma'lumotlarning sir saqlanishi, boshliqlar va bo'yusunuvchilar o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlari va shu kabilari.

- 3) Shu bilan birga huquqni muhofaza qilishning faqat u yoki bu xizmatiga taalluqli bo'lgan axloqiy norma va prinsiplardir. Misol tariqasida fuqarolar bilan ishlash jarayonida qo'llanadigan operativ xatti-harakatlar qoidalari, huquqni muhofaza qilish xodimlariga konfidensial yordam bergen fuqarolarning sirini saqlash va hokazo. Bu qoidalari shakl jihatidan umuminsoniy qoidalardan farq qilishi mumkin, lekin o'zining axloqiy mazmunini saqlab qoladi. Xulosa qilib aytas bo'ladi, axloq ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Shu bilan birga u kasbiy xususiyatga ham ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, axloq – inson va jamiyat o'rtasidagi ob'eaktiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Ko'p asrlar davomida, antik davrlardan boshlaboq mutafakkirlar axloq haqida juda ko'p asarlar yozdilar. Ular axloqning mohiyatini tushunishga, tushuntirishga harakat qildilar. O'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot davrida axloq quyidagicha talqin qilib kelindi:

- kundalik hayot aqliy tajribasi;
- individning o'z xulq-atvoridan qoniqishi;
- burchga sadoqat ramzi;
- ijtimoiy stabillik va tartibni saqlash vositasi;
- ijtimoiy foydani talab qiluvchi ijtimoiy hodisa;
- jamiyatda adolatni qaror toptiruvchi vosita;
- insonlarning o'zaro hamjihatligini ta'minlovchi vosita;
- vijdon ovoziga bo'yundiruvchi vosita;
- inson hayotining oly ma'nosini anglash yo'li.

Har bir inson o'zining butun umri davomida o'zining

qadriyatlar tizimini, o'zining xulq-atvor, yomonlik va yaxshilik, baxt, adolat va boshqa axloqiy kategoriyalar haqidagi tasavvurlarini takomillashtirib boradi.

Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar ana shu tanlovni ro'yogba chiqarishga, yana ham aniqroq aytganda, uni osonroq amalga oshirishga xizmat qilgan. İlk axloqiy qoida «o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqaga ham ravo «ko'rma» mazmunida dunyoga kelgan. Uning hozirgi zamondagi o'zbekchasi «pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga ur», «o'zingni er bilsang, o'zgani sher bil» kabi maqollarda aks etgan.

«Axloqning oltin qoidasi» deb atalgan ushbu qoida, bizningcha, eng qadimiy axloqiy talablardandir. Zero xun olish talabi keyinroq paydo bo'lgan va insonning asl mohiyatiga to'g'ri kelmaydigan qoidalardan. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar muqaddas kitoblarda o'z aksini topgan zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.

Ana shu, inson axloqiy hayotining asosi bo'lgan qonun-qoidalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Odamlar ularni og'ir majburiyat deb bilmasdan, dil-dildan bajaradigan zamonning tezroq kelishi uchun tinmay harakat qilishlari axloxiy taraqqiyotdan dalolatdir.

Axloqning tarkibiy tuzilishi murakkab bo'lib, quyidagi elementlardan iborat:

- axloqiy amaliyot-axloqning muhim va belgilovchi komponenti bo'lib, insonning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Faqat inson xulq-atvorining xatti-harakatlarda namoyon bo'lish orqaligina uning axloqiyligi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin;

- insonning faoliyati, inson tomonidan axloq normalari va prinsiplarining amaliyotga tatbiq qilishi uning axloqiy tarbiysi, axloqiy madaniyatining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Axloqiy munosabatlar – ijtimoiy munosabatlarning ko'rinishi sifatida insonlar tomonidan axloqiy (axloqsiz) xatti-harakatlarni sodir etish jarayonida vujudga keladi. Axloqiy munosabatlarning obyektiv va subyektiv tomoni mavjud. Subyektiv tomoni – bu insonning qiziqlichlari, hissiyotlari. Obyektiv tomoni esa – inson uchun imperativ xarakterga ega bo'lgan normalar, ideallar, urf-odatlar, an'analar va boshqa ijtimoiy faktorlar hisoblanadi.

Kishilar axloqiy munosabatga kirishar ekanlar, o'z zimmalariga muayyan axloqiy majburiyatlarni oladilar va muayyan axloqiy huquqlarga ega bo'ladilar.

Axloqiy munosabatlarning shakllangan tizimi mayjudligi ijtimoiy guruh (xizmat jamoasi)da mo'tadil axloqiy ruhiy iqlimi belgilaydi. Xizmat jamoalaridagi axloqiy munosabatlar 3 darajaga bo'linadi:

- 1) boshliqlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar;
- 2) hamkasblar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar;
- 3) fuqarolar bilan bo'ladijan axloqiy munosabatlar.

Axloqiy ong – o'z ichiga axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar, qarashlar, hiss-

iyotlar, norma, prinsiplarni qamrab oladi. Shu bilan birga uyat, vijdon azobi, o'z xatti-harakatidan achinish yoki qoniqish, haqligini anglash kabi axloqiy hissiyotlarni uyg'otuvchi axloqiy o'z-o'zini anglash va axloqiy o'z-o'zini baholashni qamrab oladi.

Masalan, axloq bilan din aloqadorligi masalasida shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. Shu bois diniy – shar'iy tamoyillar va me'yorlar, hadisi sharifdag'i o'gitlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog'liq Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Din insonni axloqiylashtirishning vositasi sifatida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir xil.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari ham juda qadimiy. Har bir haqiqiy san'at asasida asosiy ziddiyat ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik,adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'limaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaq tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi har bir badiy asasida ilgari suriladi.

Lekin ayrim nazariyalar ham borki, ularni axloqsiz deb atash o'rinni. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, mashhur "Maltus nazariyasi". Ingliz iqtisodiyot nazariyotchisi Maltus(1766-1834)ilgari surgan g'oyaga ko'ra, aholi geometrik progressiyaga, iste'mol mahsulotlari arifmetik progressiyaga muvofiq rivojlanadi. Aholi o'sib borib, yer yuzida qashshoqlik, oziq-ovqat yetishmovchiligi vujudga keladi. Shu bois urushlar olib borish tabiiy hol sifatida o'zini oqlaydi. Maltus bu o'rinda urushni targ'ib qilish bilan axloqsizlikning eng yuksak ko'rinishini namoyon etmoqda.

Axloq madaniyati – kishi madaniyatining tarkibiy va ajralmas qismidir. Madaniyatli har bir kishida avvalo, odob madaniyati kamol topgan va odamiylik hislatlari shakllangan bo'lmog'i lozim. Jamiyatda kishining odob madaniyati ijtimoiy turmush tarzini aks ettiradigan, uning mazmuniga mos keladigan madaniyatdir.

Kundalik hayotimizda o'zining samimiyligi, odamiyligi, shirinsuxanligi bilan inson qalbini quvontiradigan, yashartiradigan kishilar juda ko'popiladi. Bunday kishilarni el-yurt sevadi, ular bilan suhbatlashgan odam rohatlanadi. Buning zamirida shirin, serma'no so'z qudrati turganini ta'kidlashni istardik. Ha, so'z bilan ishning birligi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki, yoshlarimiz kattalarini kuzatib, ularning o'z so'zlariga vafodorligi, ishi bilan, so'zining uyg'unligiga qanoat hosil qilganlaridan keyingina ularga ergashadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, axloq muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan masalalardan hisoblanadi, uni yoshlarimiz ongiga, turmushiga, yurish-turishiga qanchalik tez singdira borsak, inson omilini intensivlashtirish uchun shunchalik tez zamin hozirlagan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. Musurmonova O. Manaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T.: 1996.
2. Minavarov A.K. Oila pedagogikasi. -T.: 1996.
3. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. – Toshkent: «Fan», 1994. 134-b.
4. Muxsieve A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari: Ped.fanl.nomz. ... diss.avtoref. – T.: 2005. 22-b.
5. Ochilov S. Mustaqillik manaviyati va tarbiya asoslari. –T.: 1997.

REZYUME. Axloq masalasi hozirgi davrdagi muhim tarbiyaviy zarurat ekanligi, shaxsda axloqni shakllantirish va qaror toptirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada axloqning funksiyalari va madaniyati haqida nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Axloq shaxs shakllanishida asosiy hususiyat ekanligi va axloqning tarixiy taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ. Вопрос нравственности является важной образовательной необходимостью в современную эпоху, большое значение имеет вопрос формирования нравственности и принятия решений в человеке. В статье даются теоретические сведения о функциях и культуре нравственности. Освещены сведения о том, что нравственность является основным признаком в становлении человека и историческом развитии нравственности.

SUMMARY. The issue of morality is an important educational necessity in the present era, the issue of forming morality and decision-making in a person is of great importance. The article provides theoretical information about the functions and culture of morality. The information about the fact that morality is the main feature in the formation of a person and the historical development of morality is highlighted.

PSIXOLOGIYA ILIMLERI

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING O'ZIGA ISHONCHINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA QIYOSIY NATIJALAR TAHLILI

A.Dawkeeva – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pedagog, o'ziga ishonch, o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi himoyalash, o'zini anglash.
Ключевые слова: педагог, уверенность в себе, саморазвитие, самоуправление, самозащита, самосознание.

Key words: teacher, self-confidence, self-development, self-management, self-defense, self-awareness.

Bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotlar natijalari, ushbu sifatning shakllanishida bir qancha muhim omillar o'zarboq liqlilikda ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, talabalarning o'ziga ishonch darajasi, ularning psixologik tayyorgarligi, ta'lif jarayonida ko'rsatiladigan pedagogik yondashuvlar, va shaxsiy o'sish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqidir. O'ziga ishonchning yuqori darajasi ko'proq amaliy tajriba, ilmiy izlanishlar va shaxsiy muvaffaqiyatlar bilan uyg'unlashganda shakllanadi. Turli yondashuvlar bilan amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lif metodlari bilan zamonaviy interaktiv va innovatsion usullarni solishtirish orqali talabalarning o'ziga ishonchi qanday darajada rivojlanishini aniqlash mumkin.

Tahlillar natijasida, pedagogik jarayonda ko'proq ijodkorlik va mustaqil fikrashni rag'batlantiruvchi metodlar qo'llanilgan guruhda o'ziga ishonchning sezilarli darajada oshishi qayd etildi. Ushbu metodlar talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, qiyinchiliklarga bardosh berishga va o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga undaydi. Shuningdek, o'ziga ishonchni rivojlantirishda guruhda ishslash, muloqot va ijtimoiy faoliyatlarni amalga oshirishning ham ijobjiy ta'siri aniqlangan. Qiyosiy natijalar shuni ko'rsatdiki, o'ziga ishonchni shakllanirish uchun pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida har bir talabaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur, bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli pedagog bo'lib yetishishiga xizmat qildi.

Biz respondentlarimiz orasidan o'ziga bo'lgan ishonch darajasi past bo'lgan 180 nafarini tajriba guruhiga ajratib oldik. Mazkur guruhda 10 ta mashg'ulotdan iborat trening dasturimizni qo'lladik. Buning uchun tajriba guruhini 8 ta kichik guruhga bo'lib ishladik. Har bir guruhda 20-23 nafardan talabalar qamrab olindi. Trening mashg'ulotlarimiz o'zining mazmuniga ko'ra 1,5 soatdan 3 soatgacha olib borildi. Bunda asosan talabaarning o'ziga ishonchini oshirishi uchun kognitiv terapiyadan introspektiv xususiyatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratdik. Psixologik trening mashg'ulotidan keyin nazorat tajribasini olib bordik. Mazkur tajriba davomida talabalarning rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan keyingi o'zgarishlari tahlil qilindi. Quyidagi jadvald aniqlovchi va nazorat tajribasining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. "Bo'lajak pedagoglarga o'ziga ishonchining ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlovchi so'rovnomasi" orqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=450)

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M ₁	M ₂		
O'ziga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	5,5	7,3	-2,1	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,7	-1,0	0,17
Boshqalarga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	6,9	9,3	-2,4	0,05

	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,3	0,10
Emotsional barqrarorlik	Tajriba guruhi (n=180)	5,4	8,1	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,8	-0,9	0,24
Kognitivlik	Tajriba guruhi (n=180)	7,0	9,4	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,0	0,23

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001.

"Bo'lajak pedagoglarda o'ziga ishonchining ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlovchi" mualliflik so'rovnomamizdagi mezonlar bo'yicha rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, "O'ziga ishonch" (t=-2,1; p<0,05), "Boshqalarga ishonch" (t=-2,4; p<0,05), "Emotsional barqrarorlik" (t=-2,7; p<0,05) hamda "Kognitivlik" (t=-2,2; p<0,05) omillarida sezilarli darajadagi o'zgarishlar kuzatildi. Biz rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davomida talabalarda introspeksiyani kuchayishiga e'tibor qaratib, individual refleksiyani kuchayishiga olib keldik. Talabalar o'zlarini tahlil qilar ekanlar, o'z shaxslariga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllanishiga erishdik. Mashg'ulotlardagi kauzusli topshiriqlar talabalarning emotsiyonal holatlarini barqrarorlashtirishga, konstruktiv munosabat o'rnatish uchun ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga, o'zini tahlil qilish orqali o'z shaxsiga nisbatan ijobjiy emotsiyonal munosabatni tarkib topishiga xizmat qilgan. Natijada talaba o'zini adekvat baholab, o'ziga ishonchi ortaganligi kuzatilgan. Nazorat guruhi vakillarini natijalarida ahamiyatli o'zgarishlarning kuzatilmaganligi esa biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorligini tasdiqlab beradi. Izlanishimizdagi shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini ko'rsatib beruvchi muhim mezonlardan biri – bu uning o'ziga bo'lgan munosabatidir. Shu boisdan, nazorat tajribasida "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasidan olingan natajjalarni ham tahlil qildik.

2-jadval. "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasiorqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=450)

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M ₁	M ₂		
Samimiylit	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,5	-2,4	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-1,1	0,10
O'z-o'ziga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,6	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,4	0,10
O'z-o'zini idora qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	10,2	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	8,0	8,2	-1,2	0,18

O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	11,1	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,9	8,1	-1,3	0,12
O'z-o'zini qabul qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,4	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-0,8	0,20

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

"Shaxsnинг о'з-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi orqali rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin barcha omillarda ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, "Samimiylit" ($t=-2,4$; $p<0,05$), "O'z-o'ziga ishonch" ($t=-2,5$; $p<0,05$), "O'z-o'zini idora qilish" ($t=-2,5$; $p<0,05$) "O'z-o'ziga munosabatning aks etishi" ($t=-2,3$; $p<0,05$) hamda "O'z-o'zini qabul qilish" ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillarida sezilarli darajadagi o'zgarishlar kuzatildi.

Adabiyyotlar

- Моросанова В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека / Ин-т психологии РАН; Психологический ин-т РАО. — М.: «Наука», 2010. -С. 8.
- Шадриков В.Д. Психологический анализ деятельности как системы [Текст] // Психологический журнал. 2008. Т. 1. № 3. - С.33-46.
- Ломов Б.Ф.Методологические и теоретические проблемы психологии [Текст]. -М.: «Наука», 2003. –С. 446.
- McClelland, D.C. (1987). Human motivation. New York: University of Cambridge.
- Mead, George Herbert. 1982. The Individual and the Social Self: Unpublished Essays by G. H. Mead, edited by D. L. Miller. Chicago: University of Chicago Press. ISBN 978-0-608-09479-3

REZYUME. Bu maqolada o'ziga ishonchini rivojlantirishda "o'ziga ishonch", "boshqalarga ishonch", "emotsional barqarorlik" hamda "kognitivlik" omillarida qiyosiy natijalarining tahlili haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлены научно-теоретические сведения об анализе сравнительных результатов по факторам «уверенность в себе», «доверие к другим», «эмоциональная устойчивость» и «когнитивность» в развитии уверенности в себе.

SUMMARY. This article provides scientific and theoretical information about the analysis of comparative results in the factors of "self-confidence", "trust in others", "emotional stability" and "cognitiveness" in the development of self-confidence.

O'SMIR FUTBOLCHILARNING FAOLIYATIDAGI TO'SIQ VA QIYIN VAZIYATLARGA PSIXIK BAR-QARORLIKNI TA'MINLASH ASOSI

A.U.Xaitov – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Tayanch so'zlar: o'smir, futbol, to'siq, qiyin vaziyat, iroda, chidamlilik, tashabbuskorlik, psixik barqarorlik, musobaqa, motivatsiya, stress barqarorlik.

Ключевые слова: подросток, футбол, препятствие, трудная ситуация, воля, выносливость, инициатива, психическая устойчивость, соревнование, мотивация, стрессоустойчивость.

Key words: teenager, football, obstacle, difficult situation, will, endurance, initiative, mental stability, competition, motivation, stress resistance.

O'smir futbolchilarni tarbiyalash va yuqori malakali futbolchi sifatida voyaga yetishiga zamin yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Yosh futbolchilarni o'smirlilik davrida jismoniy psixologik rivojlanishiga e'tibor berish ularning keyingi davrdagi professional futbolchilik faoliyati samarali bo'lishini ta'minlaydi [1]. O'smirlarning futbol bilan shug'ullanishi uchun musobaqalardan tashqari faoliyat bilan bog'liq bo'lgan turli to'siq va qiyin vaziyatlar to'sqinlik qilishi mumkin [3]. Bunday vaziyatlarni yengib o'tish uchun o'smirlarning irodasi yordam beradi [4]. O'smirlarni musobaqalarga irodaviy tayyorlash orqali ularga ta'sir etayotgan musobaqa faoliyatidan tashqari to'siqlarni bartaraf etiladi [2].

O'smir futbolchilar faoliyatida qanday to'siqlarni yoki qiyin vaziyatlar mavjud ekanligini aniqlash va tahlil qilish talab qilinadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun futbol mifik maktab va tugaraklaridagi 511 nafar, (TGda 276 nafar, NGda 235) o'smir futbolchilarda olib borilgan tadqiqotda "Futboldagi to'siq va qiyinchiliklar" mualliflik so'rovnomasi qo'llanilib, TG va NG o'smir futbolchilar faoliyatida aniq maqsad (67,7%), safarga uzoq yo'l (88,9%), jismoniy yuklamalar (72,5%), yangi jamoa (87,2%), turli sharoitda o'ynash (74,3%), jamoadoshlar (83,6%), oilaviy qarashlar (67,6%), yuqori natijaga ishonch (67,3%), jarohat olish xavotiri (57,5%) bilan bog'liq bo'lgan asosiy qiyinchilik va to'siqlarning mavjud ekanligi aniqlangan.

O'smir futbolchilarda ushbu to'siqlarni va qiyinchiliklarga bardoshlilikni shakllantirish, doimo

Tajriba guruhining natijalaridan ko'rib turibmizki, talabarda o'ziga munosabat adekvatlashgan. Bunda bo'lajak pedagoglarning o'ziga munosabatini ijtimoiy determinanti hisoblangan shaxslararo munosabatlardagi samimiylik konstruktiv muloqot o'rnatish ko'nikmasini shakllantirish orqali barqarorlashtirildi. Talabalarning o'ziga ishonchini ko'rsatib beruvchi subyektiv omillar, ya'ni o'ziga ishonch, o'zini idro qilish, o'zini qabul qilish, o'ziga munosabat bevosita hissiy hamda kognitiv sohaga korreksiona ta'sir etish orqali rivojlantirildi. Eng avvalo, bo'lajak pedagoglarning o'zi haqidagi tasavvurlari adekvatlashtirildi va o'ziga ijobjiy emotSIONAL munosabat shakllantirildi. Shu orqali bo'lajak pedagogning o'zini qabul qilishi hamda o'ziga bo'lgan ishonching ichki asoslari mustahkamlandi. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida o'zgarishlarni kuzatilmaganligi biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorlik darajasini yana bir karra tasdiqlash imkonini beradi.

Adabiyyotlar

- Моросанова В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека / Ин-т психологии РАН; Психологический ин-т РАО. — М.: «Наука», 2010. -С. 8.
- Шадриков В.Д. Психологический анализ деятельности как системы [Текст] // Психологический журнал. 2008. Т. 1. № 3. - С.33-46.
- Ломов Б.Ф.Методологические и теоретические проблемы психологии [Текст]. -М.: «Наука», 2003. –С. 446.
- McClelland, D.C. (1987). Human motivation. New York: University of Cambridge.
- Mead, George Herbert. 1982. The Individual and the Social Self: Unpublished Essays by G. H. Mead, edited by D. L. Miller. Chicago: University of Chicago Press. ISBN 978-0-608-09479-3

maqsad uchun olg'a intilishini ta'minlash uchun TG ishtiroychilari mashg'ulotlar jarayonida "Men chidamli bo'laman" va "Men kuchli iroda egasiman" psixologik trening dasturi asosida ularning irodaviy tayyorgarligi olib borildi. TG ishtiroychilari bilan olib borilgan irodaviy tayyorgarlik natijasida ularga ta'sir etayotgan aniq maqsad (24,1%), safarga uzoq yo'l (42,8%), jismoniy yuklamalar (36,4%), yangi jamoa (36,4%), turli sharoitda o'ynash (41,9%), jamoadoshlar (31,8%), oilaviy qarashlar (36,2%), yuqori natijaga ishonch (18,6%), jarohat olish xavotiri (28,5%) bilan bog'liq bo'lgan asosiy qiyinchilik va to'siqlarning salbiy ta'siri pasayishiga erishildi.

O'smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari vaziyatlarida yuzaga keladigan to'siq va qiyinchilik omillarini yingib o'tishda ularda shakllangan irodaviy sifatlar yordam beradi [6]. Futbolda musobaqa faoliyatidan tashqari vaziyatlarida yuzaga keladigan to'siq va qiyinchilik omillari quyidagi beshta asosiy faktorlarga ajratildi:

- birinchi faktorga "futbolda aniq maqsad bo'lishi", "yuqori natijaga ishonch mavjudligi", "texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirish" kabi vaziyatlar kiritilgan bo'lib o'smir futbolchilarning faoliyat maqsadi bilan bog'liqlikni ifoda etadi.

- ikkinchi faktorga "doimiy jismoniy yuklamalar bajarish", "jarohat olishdan xavotir me'yoriyligi", "trener bilan ishlash" kabi vaziyatlar ajratilgan bo'lib o'smir futbolchilarning mashg'ulotlar jarayonida belgilangan

jismoniy yuklamalarni bajarish, trener bilan mashg'ulotlar jarayonida ishtirok etishni ifodalaydi.

- uchinchi faktorga "kundalik rejimga rioya etish", "safarlarga uzoq yo'l bosish", "turli sharoitlarda o'ynash (ob-havo, muxlislar)" kabi vaziyatlar o'rinni olgan bo'lib, o'smir futbolchilarning doimiy faoliyatida mavjud bo'lgan va unga rioya etishni talab etadigan vaziyatlar, uzoq safarlar, musobaqa jarayonidagi turli noqulay vaziyatlar keltirilgan.

- to'rtinchi faktorga "yangi jamoaga qo'shilish", "jamoadoshlar bilan munosabat" kabi vaziyatlar kiritilgan. Bunday vaziyatlar o'smir futbolchilarning jamoaga nisbatan munosabati, yangi jamoaga qo'shilishda kuzatiladigan noqulayliklarni ko'rsatadi.

- beshinchi faktorga "o'qishdagi o'zlashtirish", "oilaviv qarashlar", "futboldan tashqari faoliyat" kabi vaziyatlar joylashgan. Ushbu vaziyatlar asosan o'smir futbolchilarning sport faoliyatidan tashqari bo'lgan faoliyat turlari bo'lgan vaziyatlarni namoyon etadi.

O'smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari jarayonlarda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlarda qaysi irodaviy sifatlarning o'rnini yuqori ekanligi faktorli tahlil asosida aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval. O'smir futbolchilarning faoliyatida yuzaga keladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengish uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlar N=276 (TG)

Irodaviy sifatlar	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor	5-faktor
Maqsadga intiluvchanlik	0,84**	0,72**	0,65**	0,57**	0,68**
Qat'iyat va matonat	0,78**	0,68**	0,71**	0,15*	0,73**
Jur'at va jasorat	0,62**	0,61**	0,69**	0,16*	0,49**
Mustaqillik va tashabbuskorlik	0,71**	0,54**	0,14*	0,52**	0,61**
Sabotlilik va o'z- o'zini tuta bilish	0,67**	0,73**	0,56**	0,69**	0,56**
to'siqlarga chidamlilik	0,79**	0,56**	0,79**	0,53**	0,67**
iroda kuchi	0,81**	0,77**	0,73**	0,48**	0,54**

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01

O'smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari jarayonlarda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlarni yengib o'tish uchun ahamiyatli bo'lgan irodaviy sifatlarning tahlili:

Birinchi faktor bilan maqsadga intiluvchanlik ($r=0,84$), qat'iyat va matonat ($r=0,78$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,71$), to'siqlarga chidamlilik ($r=0,79$) irodaviy sifatlari hamda iroda kuchi ($r=0,81$) yuqori bog'liqlikni ifodalagan. O'smir futbolchilar faoliyatida aniq maqsadning mavjudligi va yuqori maqsadga intiluvchanlik bilan harakat qilishi, yuqori natijaga ishonch mavjudligi va natija uchun qat'iyat, matonat bilan harakat qilishi, natijaga erishish yulida mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsata olishi lozim. Shu bilan birga futbolchilar to'siqlar va jarohat olish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlarda chidamlilik namoyon etishi, irodasi kuchli bo'lishi kerakligi aniqlangan.

